

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

XAITBAEV A.X.

ORGANIK KIMYO

Toshkent-2020

A.X.Xaitbaev. Organik kimyo. O‘quv qo‘llanma - Toshkent: 2020 y.

Mazkur o‘quv qo‘llanma Oliy ta’lim muassasalarining nomutaxassislik yo‘nalishdagi bakalavriyat talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bakalavriatura ta’lim yo‘nalishi talabalariga o‘qitiladigan “Kimyo” va “Umumiy kimyo” fani dasturi asosida tayyorlangan.

O‘quv qo‘llanmada 5140200-Fizika, 5140100-Biologiya, 5140600-Geografiya, 5140800-Geologiya, 5141300-Neft va gaz kimyosi, 5141400-Tabiiy va fiziologik faol birikmalar kimyosi, 5410100-Agrokimyo va agrotuproqshunoslik, 5630100-Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha), 5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi, 5321000-Oziq-ovqattexnologiyasi (mahsulot turlari bo‘yicha), 5110400-Biologiya, 5110200-Fizika va astronomiya, yo‘nalishi bo‘yicha universitetlarda tahsil olayotgan bakalavriat talabalari uchun belgilangan mavzularning mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Mas’ul muxarrir:

M.A.Mahkamov – kimyo fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

M.Nishonov – Farg’ona Davlat universiteti professori

Z.A.Smanova – O‘zbekiston Milliy universiteti professori

Sh.M.Xakberdiev – Jizzax politexnika instituti dotsenti

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtta ma’sus ta’lim vazirligining
2020 yil - sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat
berilgan (ro‘yxatga olish raqami)

«ORGANIK KIMYO» FANINING RIVOJLANISH TARIXIDAN

A. M. Butlerov o'zining «Organik kimyonni to'liq o'rganishga kirish» degan kitobi va 1861 yili organik moddalarning kimyoviy tuzilishi nazariyasiini yaratish bilan organik kimyo fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Rus olimi **N.N.Zinin** (1812-1880) sanoatda benzoldan anilin olish, akademik A.E.Favorskiy (1860-1945) atsetilen, allen va dien uglevodorodlarning kimyosini o'rganish, akademik S.V.Lebedev sanoatda sintetik kauchukni olish, akademik N.D.Zelinskiy (1861-1953) tuyingan va tuyinmagan tsiklik birikmalar kimyosi va ularni sintez qilish usullari bilan organik kimyoning rivojiga uz hissalarini qo'shdilar.

«Organik kimyo» fanining rivojlanishiga O'zbekiston olimlari ham o'zlarini katta hissalarini qo'shganlar.

Akademik S.Yu.Yunusov (1909-1995) boshchiligidagi izoxinolin, eritrin, diterpen, xinolin, indol, xinozolidin, xinazolin, steroid, pirolizidin, piridin, tropan va oltingugurtli alkoloидлар ustida ilmiy ishlari olib borildi. S.Yu.Yunusov o'simliklarning xar xil a'zolariga alkoloидлarning dinamik tuplanish konuniyatlarini yaratdi va shogirdlari bilan O'rta Osiyoda, ayniksa, O'zbekistonda o'sadigan shifobaxsh o'simliklardan 800 dan ortiq alkoloидлар ajratib oldi, ulardan 500 ta yangisining tuzilish formulasini aniklab, O'zbekiston alkoloидлар kimyosini dunyoda etakchi uringa olib chikdi. Uning shogirdlari orasida N.K.Abubakirov, X.A.Abduaizimov, F.Yu.Yuldashev, Z.F.Ismailov, S.T.Akramov, R.N.Nuriddinov, M.S.Yunusov, S.I.Iskandarov kabi taniqli kimyogarlar etishib chiqdi.

Akademik O.S.Sodiqov (1913-1987) dunyoga taniqli o'zbek kimyogar olim va tashkilotchi raxbardir. Uning ilmiy ishlari O'rta Osiyoda o'sadigan yovvoyi va madaniy o'simliklar xamda tabiiy birikmalar kimyosini urganishga bagishlangan. Uning shogirdlari O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Afg'oniston, Mog'uliston, Vietnam va Polshaning taniqli kimyogarları hisoblanadi. O.S.Sodikov 1966 yildan 1983 yilgacha O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Prezidenti bo'lib ishlagan.

Akademik I.T.Sukervanik (1901-1968) «Aromatik birikmalarni alkillash va atsillash» soxasi buyicha izchil va keng kamrovli tadkikotlar utkazgan, shu yunalishda tanilgan organik

kimyogarlar maktabini yaratgan olimdir. U spirtlar bilan alkillash mexanizmini ishlab chikkan anomal alkillash borishini xam isbotlab bergen, yangi reaktsiya kashf etgan, tadkikotlarnig natijalarini defoliant va gerbitsid preparatlari sifatida kishlok xujaligida kullagan.

Akademik A.A.Abduvaxobov O'zbekistonda kimyogar – element organiklar maktabini yaratgan yirik olim. U shogirdlari bilan birga element-organik birikmalar kimyosi, nozik organik sintez muammolari, molekulyar darajada kuyi molekulyar bioregulyator ta'siri mexanizmining kimyoviy moxiyatini aniklash, fazoviy kimyo buyicha organik kimyo fanining rivojiga katta hissa qo'shib kelmokda. A.A.Abduvaxobov raxbarligida O'rta Osiyo mintaqasida bиринчи bulib ferromonlar komponentlarining sintez usullari ishlab chikilgan. Olingan moddalar guza usimligini zararli xasharotlardan ximoya qilishda, xasharotlarni uziga jalb kiluvchi moslamalar yordamida yukotishda, paxta etishtirishda, uning xosildorligini oshirishda keng kullanilib kelinmokda.

Akademik M.A.Askarov polimerlar kimyosi va texnologiyasi soxasida katta ilmiy ishlar kilgan olimdir. Uning ilmiy ishlari aromatik diaminlarning alifatik ikki asosli kislotalar bilan polikondensatlanish; yangi monomerlarning polimerlanish reaktsiyalarini chuqur va har tomonlama o'rganish; tarkibida azot, kislorod va oltingugurt bo'lgan plastmassalar olishga va ularning xossalarini yaxshilashga qaratilgan. U plyonka hosil qiluvchi polimerlar xossalarini yog sanoati chikindilaridan olingan stabilizatorlar ta'sirida yaxshilash asosidagi ishlarni polimer plyonkalar va linoliumlar ishlab chikarishga joriy kilgan.

Akademik S.Sh.Rashidova – yukori molekulyar birikmalar kimyosi soxasidagi olma. Uning ilmiy izlanishlari ma'lum kimyoviy tuzilishga ega bulgan biologik faol polimerlarning sintezi, kup kirrali xossaga ega bulgan polimerlar asosidagi dorilar, o'simliklarning ximoya qilish vositalarini tanlashning nazariy asoslarini ishlab chikishga va ularni amaliyotga kullahshga bagishlangan. Bu tadkikotlar asosida «Kovilon» deb nomlangan plazma urnini bosuvchi dori olingan, o'simliklar usishini boshkaruvchi modda – benzoil chumoli kislotasi asosida chigit, sholi va kandlavlagi uruglarini ekishdan oldin polimer moddalar bilan kapsullash masalalari o'rganilgan.

1- MAVZU. TO'YINGAN UGLEVODORODLAR (ALKANLAR)

Reja:


1. Izomeriya va nomeklaturasi.
 2. Alkanlarning tabiiy manbaalari va asosiy olinish usullari.
 3. Alkanlarni olinishi.
 4. Alkanlarning fizik va kimyoviy xossalari.
 5. Alkanlarning ishlatalishi.

Alkanlar uglerod atomlarining tormoqlanmagan (shoxlanmagan) hamda tarmoqlangan (shoxlangan) zanjiriga ega bo'lishi mumkin.

Agar n-alkan (shoxlanmagan) larni bir-biridan CH₂ gruppaga farq qiladigan qatorga joylashtirilsa, u xolda *gomologik qator* deb ataluvchi qator xosil bo'ladi :bu qatordagi birinchi to'rtta vakil (C₁-C₄) trivial nomga ega bo'ladi. Qatordagi qolgan vakillarning nomlari grekcha va lotincha sanoqlardan tashkil topgan. O'ng tomonda formulalarning qisqartirilgan ko'rinishi berilgan:

CH_4	metan	
CH_3CH_3	etan	
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_3$	propan	
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_3$	butan	
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_3$	pentan	
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_3$	geksan	
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_3$	heptan	
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_3$	oktan	
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_3$	nonan	
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_3$	dekan	


Butan moddasidan boshlab, *izomeriya* xodisasi kuzatila boshlaydi (*izomeriya* deb, molekulyar formulasi va massasi bir xil, lekin, tuzilish formulasi, fizikaviy hamda kimyoviy xossalari ijixatidan bir-biridan farq qiladigan birikmalarga aytildi). Masalan:





Jadval: To'yingan uglevodorodlarning qyrim fizik xossalari

Formulasij	Izomeri	Nomi	Qaynash hatorali ${}^{\circ}\text{C}$ da) va normal sharo'idaqj holatli	Radikal	Izomeri	Radikal nomi
CH_4	-	Metan	-161,6	$-\text{CH}_3$	-	Metil
C_2H_6	-	Etan	-88,6	$-\text{C}_2\text{H}_5$	-	Etil
C_3H_8	-	Propan	-42,1	$-\text{C}_3\text{H}_7$	-	n-propil izo-propil
C_4H_{10}	$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_3$ $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}_3$	n-butan izo-butan	-0,5	Gazlar	$-\text{C}_4\text{H}_9$	n-butil izo-butil tButil-butil nButil-butil
C_5H_{12}	$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_3$ $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}_2\text{CH}_3$ $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}_3$	n-pentan 2-metyl butan 2,2-dimetil propan	+36,07	$-\text{C}_5\text{H}_{11}$	$-\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_3$ $-\text{CH}_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}_2\text{CH}_3$ $-\text{CH}_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}_2\text{CH}_3$ $-\text{CH}_2\text{C}(\text{CH}_3)\text{CH}_2\text{CH}_3$ $-\text{CH}_2\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}_3$	α -pentil iso-pentil n-pentil tButil-pentil nButil-pentil iso-o-pentil
				Suyuqlik		
C_6H_{14}	5 ta	Gelesan	+68,7	$-\text{C}_6\text{H}_{13}$	"	Gelesil
C_7H_{16}	9 ta	Gepjan	+98,5	$-\text{C}_7\text{H}_{15}$	"	Gepfil
C_8H_{18}	18 ta	Oktan	+125,6	$-\text{C}_8\text{H}_{17}$	"	Oktil
C_9H_{20}	35 ta	Nonan	+150,7	$-\text{C}_9\text{H}_{19}$	"	Nonil
$\text{C}_{10}\text{H}_{22}$	75 ta	Dekan	+174,0	$-\text{C}_{10}\text{H}_{21}$	"	Dekil

Molekuladagi ko'rيلayotgan uglerod atomi, boshqa uglerod atomlarining qanchasi bilan bog'langanligiga mos ravishda uglerod atomlari – birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi, va to'rtlamchi bo'lishi mumkin. Masalan:



Shoxlangan alkil gruppalarini nomlashda, yana, zanjirni raqamlashdan ham foydalaniladi:




Tabiatda alkanlarning asosiy manbaalari bo'lib – neft, yoldosh va tabiiy gaz (tarkibida asosan, metan hamda oz miqdorda etan, propan va butan bo'ladi) lar hisoblanadi. Neft maxsulotlarini qayta ishslash natijasida alkanlarning turli aralashmalari olinadi.

Tabiiy gazning tarkibi

Komponentlar	Formula	Miqdori, % da
Metan	CH_4	88-95
Etan	C_2H_6	3-8
Propan	C_3H_8	0,7-2,0
Butan	C_4H_{10}	0,2-0,7
Pantan	C_5H_{12}	0,03-0,5
Uglerod (IV)-oksid	CO_2	0,6-2,0
Azot	N_2	0,3-3,0
Geliy	He	0,01-0,5

Alkanlarning asosiy olinish usullarini quyidagi sxema yordamida tasvirlash mumkin:



Alkanlar rangsiz moddalar bo'lib, oddiy sharoitda ular gazsimon yoki suyuq ko'rinishda bo'ladi. Tarkibida juda ko'p uglerod atomiga ega bo'lgan alkanlar qattiq xolatda bo'ladi. Alkanlarning hammasi suvdan bir muncha yengil bo'ladi.


Jadval


Ayrim alkanlarning-suyuqlanish va qaynash xaroratlari hamda zichliklari

Alkan	T _{suyuq.} °C	T _{qayn.} °C	D ₄ ²⁰
CH ₄	-182,5	-161,6	0,436 (-170°C)
CH ₃ CH ₃	-183,3	-88,6	0,561 (-100°C)
CH ₃ CH ₂ CH ₃	-187,7	-42,1	0,501 (bosim)
CH ₃ CH ₂ CH ₂ CH ₃	-138,4	-0,5	0,573 (-25°C)
CH ₃ -CH-CH ₃ CH ₃	-159,6	-11,7	0,551 (-25°C)
CH ₃ CH ₂ CH ₂ CH ₂ CH ₃	-129,7	+36,07	0,626
CH ₃ -CH-CH ₂ -CH ₃ CH ₃	-159,9	27,8	0,620


$\begin{array}{c} \text{CH}_3 \\ \\ \text{CH}_3-\text{C}-\text{CH}_3 \\ \\ \text{CH}_3 \end{array}$	-16,6	9,5	0,591 (bosim)
n-C ₆ H ₁₄	-94,0	+68,7	0,660
n-C ₈ H ₁₈	-56,8	+125,6	0,702
n-C ₁₀ H ₂₂	-29,7	+174,0	0,730

Alkanlarning ayrim bir kimyoviy xossalari quyidagi sxemada keltirilgan:





Alkanlar faqatgina arzon va oddiy yoqilg'i hisoblanmasdan, balki, alkanlar keyingi paytlarda juda ko'p turli xil maxsulotlar ishlab chiqarishda ishlatalayotgan asosiy xom ashyo hisoblanadi.



Neftni haydashdagi tipik fraktsiyalar

Fraktsiya	Massa ulushi % da	Molekula tarkibidagi uglerod atomlarini soni	Qaynash harorati °C	Ishlatilishi
Uglevodorod gazlar	2	3-5	-40 - +36	Yoqilg'I Erituvchi
Petroley efir (yengil benzin)	2	5-7	40-100	
Benzin	32	4-12	30-200	Motor yoqilg'isi
Kerosin	18	9-16	200-300	Dizel va reaktiv yoqilg'isi, erituvchi
Gazoyl	20	15-20	220-450	Dizel yoqilg'isi
Mazut	26	19 dan ortiq	-	Surkov moylari moylar, asfalt

Detonatsiyaga chidamli bo'lgan yuqori sifatli benzin olish uchun neft va mazutni qayta ishlash

Qayta ishlash usuli	Sharoit	Kimyoiy reaktsiyalar	Asosiy mahsulotlar
Termik kreking	450-550°C 3 MPa	<i>Parchalanish:</i> $C_8H_{18} \rightarrow C_4H_8 + C_4H_{10}$	To'yingan va to'yinmagan uglevodorodlar
Katalitik kreking	470-530°C	<i>Parchalanish.</i> <i>Izomerlanish:</i> $CH_3-(CH_2)_4-CH_3 \xrightarrow{n\text{-geksan}} CH_3-\overset{CH_3}{ }CH-(CH_2)_2-CH_3$ $CH_3-(CH_2)_5-CH_3 \xrightarrow{n\text{-geptan}} \begin{matrix} & CH_3 \\ & \\ CH_3-C-CH_2-CH-CH_3 \\ & \\ & CH_3 \end{matrix}$ $CH_3-(CH_2)_3-CH_3 \xrightarrow{iz\text{-oktan}} \begin{matrix} & CH_3 \\ & \\ CH_3-C-CH_2-CH-CH_3 \\ & \\ & CH_3 \end{matrix}$ (oktan soni=73) (oktan soni=0) (oktan soni=100)	Shoxlangan zanjirli uglevodorodlar
Piroliz	650-900°C kat. Pt	<i>Parchalanish.</i> <i>Tsikllanish:</i> $C_6H_{14} \rightarrow \text{[Cyclohexene ring]} + 4H_2$	Etilen, propilen, aromatik uglevodorodlar
Riforming (aromatlash)	600-700°C kat. Pt	<i>Tsikllanish.</i>	Aromatik uglevodorodlar

1 l benzin tarkibiga 1-2 ml TEQ (tetraetil qo'rg'oshin) qo'shilishi benzinni oktan sonini 8-10 birlikka oshiradi.



Ayrim moddalarning oktan sonlari

Modda	Oktan soni	Modda	Oktan soni
n-Geptan	0	Tsiklogeksan	80
n-Geksan	40	Neogeksan	94
Kerosin	30-40	Benzol	100
Benzin	70 dan 100 va undan yuqori	izo-Oktan Triptan	100 116

Ligroin fraktsiyasining uglevodarod tarkibi

Uglevodorodlar	Uglerod atomining soni					Miqdori % da
	5	6	7	8	9	
Shoxlanmagan alkanlar	13	7	7	8	5	40
Shoxlangan alkanlar	7	6	6	9	10	38
Tsikloalkanlar	1	2	4	5	3	15
Aromatik birikmalar	-	-	2	4	1	7
						100

Kreking jarayoni uglerod zanjirlarining uzilishi hamda ancha oddiy to'yingan va to'yinmagan uglevodorodlar hosil bo'lishi bilan sodir bo'ladi, masalan:



Katalitik kreking. Bu usul katalizatorlar (odatda alyumosilikatlar) ishtirokida 450°C va atmosfera bosimida o'tkaziladi. Bu usul bilan asosan 80% unum bilan aviatsiya benzini olinadi.

Termik kreking. Termik krekingda boshlang'ich xom ashyo (mazut va b.) $450-550^{\circ}\text{C}$ harorat va 2-7 MPa bosimda qizdiriladi. Avtomobil benzini asosan shu usul bilan olinadi.

TAYANCH SO'ZLAR

Alkan, paravin, izomeriya, nomeklatura, gomologik qator, birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi, va to'rtlamchi uglerod atomlari, tabiiy manbaalar, fraktsiya, detonatsya, termik va katalitik kreking, piroliz, reforming, oktan soni.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. C_4H_9 , C_5H_{11} va C_6H_{13} radikallar izomerlarining tuzilish formulalarini yozing va ularni sistematik nomeklatura bo'yicha nomlang.
2. Quyidagi moddalar to'g'ri nomlanganmi?
 - a) 3-propilgeptan; b) 2-metil-3-etilbutan; c) 4-butil-4-izobutilnonan; d) 4-izopropil-5-butildekan; e) 3,4-dimetilpentan; f) 4-izopropil-5-uchlamchibutildekan; j) 3-metil-5-izobutil-dekan; h) 3-etil-4-propiloktan; Noto'g'ri nomlanganlarini tuzating.
3. Quyidagi uglevodorodlarning tuzilish formulalarini yozib, sistematik nomeklatura bo'yicha nomlang: a) metiletil-propilizobutilmekan; b) metildietilmekan; c) dimetilpropil-butilmekan; d) trimetilizobutilmekan; e) dipropildiizopropilmekan; f) α,α -diizopropil- β,β -diizobutiletan; j) α,β -dimetil- α -etil- β -izopropiletan.
4. Olti xil usul bilan *n*-oktanni hosil qilish reaksiyalari tenglamalarini yozing.
 - a) butan; b) izobutan; c) 2,2,4-trimetilpentan va d) neopen-tanning fotokimyoviy xlorlanishidan nechtadan monoxlor-alkanlar hosil bo'ladi? Ularning hosil bo'lish reaksiyalari tenglamalarini yozing.
5. Quyidagi radikallarni barqarorligi ortib borishi tartibida yozing. Ularning nisbiy barqarorligiga metil guruhlarining ta'sirini tushuntiring:
 - a) $CH_3-CH_2^*$; b) CH_3^* ; c) $CH_3-*CH-CH_3$; d) $CH_3-*C(CH_3)-CH_3$
6. 1 l etanning to'la yonishi uchun necha litr havo kerak (havoning bir hajmida 20,9% kislorod bor)? Hosil bo'lgan uglerod (IV)-oksidning (n.sh.da) hajmini hisoblang. [Javob: $V(havo)=16,8\text{ l}$, $V(CO_2)=2\text{ l}$]
7. Tarkibida 10 g NaOH bo'lgan natron ohagi sirkal kislotaning natriyili tuzi bilan qattiq qizdirilganda n.sh.da necha litr metan ajralib chiqadi. [Javob: 5,6 l]
8. Metanning ma'lum hajmining massasi 5 g keladi. Xudda shuncha hajmla propanning massasini hisoblab toping. [Javob: 13,75 g]

TO'YINMAGAN UGLEVODORODLAR (ALKEN, ALKADIEN VA ALKIN)

2-MAVZU. ETILEN QATORI UGLEVODORODLARI

(Alkenlar) - C_nH_{2n}

Reja:

1. Izomeriya va nomeklaturasi.
2. Alkenlarning asosiy olinish usullari.
3. Alkenlarning fizik va kimyoviy xossalari.
4. Alkenlarning ishlatilishi.


Alkan molekulasidagi ikkita vodorod atomini chiqarib yuborish natijasida umumiy formulasi C_nH_{2n} ko'rinishda bo'lgan uglevodorodlar hosil bo'ladi.

Alkenlarning eng oddiy vakillari

Formula		Nomeklatura	Formulaning qisqartirilgan ko'rinishi
Umumiy	Strukturali		
C_2H_4	$CH_2=CH_2$	Etlen (hosilalarini va qoldiqlarini nomlashda "eten" dan foydalaniлади)	=
C_3H_6	$CH_2=CHCH_3$	Propen ("propilen"dan ham foydalaniлади)	
C_4H_8	$CH_2=CHCH_2CH_3$	Buten-1	
	$CH_3CH=CHCH_3$	Buten-2, tsis- (yoki Z), trans- (yoki E)	
	$CH_2=C(CH_3)_2$	2-metilpropen-1 ("izobutilen" ham ishlatiladi)	
C_5H_{10}	$CH_2=CHCH_2CH_2CH_3$	Penten-1	
	$CH_3CH=CHCH_2CH_3$	Penten-2, tsis- (yoki Z), trans- (yoki E)	
	$CH_2=C(CH_3)CH_2CH_3$	2-metilbuten-1	
	$CH_2=CHCH(CH_3)_2$	3-metilbuten-1	


	$(CH_3)_2C=CHCH_3$	2-metilbuten-2	
--	--------------------	----------------	--


Alkenlarni olishning asosiy usullari bo'lib, alkan yoki ularning hosilalari tarkibidan atomlar yoki boshqa funktsional gruppalarini chiqarib yuborish hisoblanadi. Juda ham kamchilik hollarda alkenlar – atsetilen, dien, polien moddalaridan olinadi.




Alkenlar gomologik qatorining birinchi vakillari (C_2-C_4) oddiy sharoitda gazsimon, qatorning keyingi vakillari esa – rangsiz suyuqlik yoki kristallsimon moddalardir.


Alkenlar namoyon qiladigan kimyoiy xossalari, molekulalari tarkibida qo's' (=) bog' borligi bilan tushuntiriladi. Bu bog' juda oson qutblanuvchanlik xususiyatiga ega bo'lib, elektrodonor xususiyatiga ega bo'ladi.





Kimyo sanoatida, asosan, alkenlar gomologik qatorining dastlabki uchta vakili – etilen, propilen va butilen (ularning manbai bo’lib, neftni krekinglash jarayoni hisoblanadi), shuningdek, atsetilen, butadien va izopren ishlatalidi.






TAYANCH SO'ZLAR

Alken, olefin, izomeriya, nomeklatura, gomologik qator, qutblanuvchanlik, kimyo sanoati.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- Metanni unga aralashgan etilenden qanday tozalash mumkin? Reaksiya tenglamalarini yozing.
- To'rta gazometr gazlar bilan: biri metan, ikkinchisi etan, uchinchisi propan, to'rtingchisi esa etilen bilan to'ldirilgan. Bir xil hajmda olingen shu gazlarni to'la yondirish uchun sarf bo'ladigan kislorodning hajmlarini solishtirib ko'rib, bu gazometrlarning har birida qaysi gaz borligini aniqlash mumkinmi? Misollarda tushuntiring. Tegishli reaksiya tenglamalarini yozing.
- Qanday uglevodorod bromni biriktirib olib, tuzilishi quyidagicha bo'lgan dibromli hosila beradi: $\text{CH}_3\text{CHBr}-\text{CHBr}-\text{CH}_3$.
- Markovnikov qoidasining mohiyatini propilen, buten-1 va 2-metil-2-buten misoldida kimyoviy tenglamalar orqali yozib tushuntiring.
- σ - va π -bog'lar hosil bo'lish mohiyatini tushuntiring. Tarkibida σ - va π -bog'lari bo'lgan organik birikmalarga misollar keltiring.
- Quyidagi sxema bo'yicha boradigan reaksiyalarning tenglamalarini yozing.



7. Etilenden 100 g dibrommetan olish uchun qancha etilen va brom kerak bo'ladi? [Javob: 14,9 g C_2H_4 ; 85,1 g Br_2]
8. Vodorodga nisbatan zichligi 21 ga teng bo'lgan gazning tarkibida C-85,7% va H-14,29% borligi aniqlandi. Shu uglevodorodning molekulyar formulasini aniqlang. [Javob: C_3H_6]

3-MAVZU. DIEN UGLEVODORODLARI

(Alkadienlar)

Reja:

1. Izomeriya va nomeklaturasi.
2. Alkadienlarning asosiy olinish usullari.
3. Alkadienlarning fizik va kimyoviy xossalari.
4. Alkadienlarning ishlatalishi.



Tarkibida ikkita qo'sh (=) bog' ushlagich (umumiyl formulasi C_nH_{2n-2}) ochiq zanjirli uglerod atomlaridan tashkil topgan uglevodorodlarga *alkadienlar* deyiladi.

$CH_2=C=CH-CH_3$ "kumulyativ" (butadien-1,2)



$CH_2=CH-CH=CH_2$ "tutash" (butadien-1,3 yoki divinil)

$CH_2=CH-CH_2-CH_2-CH_2-CH=CH_2$ 'tutash emas" (geptadien-1,6)

Bazi dien uglevodorodlarining trivial nomlari hozir ham qo'llaniladi. Masalan:



Ratsional nomeklaturaga ko'ra dien uglevodorodlarini nomlashda etilen, metan yoki etan asos qilib olinadi:







dietildivinilmetan



α,β -dimetil- α,β -diviniletan

Sistematisk nomeklatura ko'ra, uglerod zanjirini raqamlash qo'sh bog'lar yaqin turgan tomondan boshlanadi.



4,5-dimetil-2,4-oktadien

2. Olinish usullari.




Alkadien-1,3 moddalari rangsiz bo'lib, ularning gomologik qatoridagi birinchi vakillari gazsimon yoki past haroratda qaynaydigan suyuqlik hisoblanadi:

Jadval

Struktura formulasi	T _{suyug} 0°C	T _{qavn} 0°C	D ₄ ²⁰
CH ₂ =CH-CH=CH ₂	-108,4	-4,5	0,6206
CH ₂ =C(CH ₃)-CH=CH ₂	-136	34,1	0,681

Alkadien-1,3 uchun turli hil moddalar bilan birikish reaksiyaga kirishish bilan bir qatorda polimerlanish reaksiyasi xarakterli hisoblanadi.



Sintetik kauchuklarning eng muhim turlari

Nomi	Dastlabki moddalar (moraqamlar)	Polimerning formulası	Eng muhim xossalari va qo'llanilishi
Butadien kauchuk	CH ₂ =CH-CH=CH ₂ 1,3-butadien	$\left[\begin{array}{c} & \text{CH}_2^- \\ & \\ \text{H} & \diagdown \\ & \text{C}=\text{C} \\ & \diagup \\ \text{H}_2\text{C} & \text{H} \end{array} \right]_n$ Noregulyar tuzilish (Trans-holat)	Suv va gazlarni o't-kazmaydi. Elastiklik jihatidan tabiiy kauchukdan keyingi orinda turadi. Kabel, poyabzal, turmush uchun zarur ayrim buyumlar ishlab chiqarishda ishlataldi.
Divinil kauchuk	CH ₂ =CH-CH=CH ₂ 1,3-butadien	$\left[\begin{array}{c} \text{H} & \text{H} \\ & \\ \text{H} & \diagdown \\ & \text{C}=\text{C} \\ & \diagup \\ \text{H}_2\text{C} & \text{CH}_2 \end{array} \right]_n$	Chidamliligi va elastikligi jihatidan tabiiy kauchukdan bir muncha ustun.

		Regulyar tuzilish (Sis-holat)	Shinalar ishlab chiqarishda ishlatiladi
Izopren kauchuk	$\text{CH}_2=\underset{\text{CH}_3}{\text{C}}-\text{CH}=\text{CH}_2$ 2-metil-1,3-butadien (izopren)	$\left[\begin{array}{c} \text{H}_3\text{C} & & \text{H} \\ & \diagdown & \diagup \\ & \text{C}=\text{C} \\ & \diagup & \diagdown \\ \text{H}_2\text{C} & & \text{CH}_2 \end{array} \right]_n$ Regulyar tuzilish (Tsis-holat)	Elastikligi va chidamliligi jihatidan tabiiy kauchukka o'xshaydi. Shinalar ishlab chiqarishda ishlatiladi.
Xlorpren kauchuk	$\text{CH}_2=\underset{\text{Cl}}{\text{C}}-\text{CH}=\text{CH}_2$ 2-xlor-1,3-butadien (xlorpren)	$\left[\begin{array}{c} \text{Cl} & & \text{H} \\ & \diagdown & \diagup \\ & \text{C}=\text{C} \\ & \diagup & \diagdown \\ \text{H}_2\text{C} & & \text{CH}_2 \end{array} \right]_n$ Regulyar tuzilish (Tsis-holat)	Yuqori harorat ta'siriga chidamli, benzin va moyning yonishi ta'sir etmaydi. O'zidan gaz o'tkazmaydi. Kabellar, benzin va neft quvurlari tayyorlashda ishlatiladi.
Butadienstirol kauchuk	$\text{CH}_2=\text{CH}-\underset{\text{CH}=\text{CH}_2}{\text{CH}}=\text{CH}_2$ 1,3-butadien  Styrol	$(\text{CH}_2-\text{CH}-\text{CH}-\text{CH}_2-\text{CH}-\text{CH}_2)_n$ 	O'zidan gaz o'tkazmaydi, ammo o'tga chidamsizroq. Transportyorlar, avtokeramalar ishlab chiqarishda foydalaniadi.

TAYANCH SO'ZLAR

Alkadien, izomeriya, nomeklatura, gomologik qator, kumulativ, tutash, kauchuk, divinil, izopren, xlorpren, sterol

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- 1,4-pentadien va 1,3-pentadienning brom bilan birikish reaktsiyalarini yozing.
- Butadienstirol nomli sintetik kauchuk butadienni stirol bilan hosil qilgan sopolimeridir. Sopolimerlanish reaktsiyasini yozing.
- Tabiiy kauchukka bromli suv ta'siridan hosil bo'ladigan mahsulot struktura zvenosining formulasi qanday?
- Alken va 1,4-pentadien molekulasining elektron formulasini yozing. Har bir uglerod atomining gibrildanish holati va C-C, C=C va C-H bog'lari qaysi orbitalarning qoplanishidan hosil bo'lganligini ko'rsating.
- C_5H_8 tarkibli barcha izomer dienlar va alkinlarning tuzilish formulalarini yozing, hamda ularni har ikkala nomeklaturaga ko'ra nomlang.

- Hajmi 2 l ($\rho=0,79$ g/ml) bo'lgan (massa ulushi 95%) etil spirtidan qanday hajmli divinil hosil bo'ladi? Reaktsiyaning unumi 90% ga teng.
- Gazlar aralashmasidagi 1,3-dienlarni miqdoran aniqlashda, 1,3-dienlarni malein kislotaning angidridi bilan oson va qoldiqsiz miqdoran birikish reaktsiyasidan foydalaniadi. Gazlar aralashmasining 100 l dan 152 g tetragidraftal kislota angidridi hosil bo'ldi. Gazlar aralashmasining necha litri butadien-1,3 (divinil)dan iborat? [Javob: 22,4 l]
- Massasi 8,1 g bo'lgan butadien-1,3 ning gidrogenlanishi natijasida butan va buten-1 aralashmasi olindi. Shu aralashma brom eritmasi orqali o'tkazilganda 10,8 g massadagi 1,2-dibromutan hosil bo'ldi. Olingan aralashmadagi uglevodorod-larning massa ulushlarini aniqlang. [Javob: $W(C_4H_8)=32,6\%$; $W(C_4H_{10})=67,4\%$]

4-MAVZU. ATSETILEN QATORI UGLEVODORODLARI (Alkinlar)

Reja:


- Izomeriya va nomeklaturasi.
- Alkinlarning asosiy olinish usullari.
- Alkinlarning fizik va kimyoiy xossalari.
- Alkinlarning ishlatalishi.

Tarkibida uch (\equiv) bog' ushlagan, ochiq zanjirli uglerod atomlaridan tashkil topgan uglevodorodlarga *Alkinlar* yoki *atsetilen uglevodorod* lari deyiladi. Ularning umumiy formulasi alkadienlarnikiga (C_nH_{2n-2}) o'xshash bo'ladi.

Struktura formulasi	Nomenklatura		Formulaning qisqartirilgan ko'rinishi
	IFYUPAK (sistematik) (o'rindosh)	Ratsional	
$H-C\equiv C-H$	Etin, atsetilen	Atsetilen	
$CH_3-C\equiv C-H$	Propin	Metilatsetilen	
$CH_3CH_2-C\equiv C-H$	Butin-1	Etilatsetilen (Metiletenilmetan)	
$CH_3-C\equiv C-CH_3$	Butin-2	Dimetilatsetilen	
$CH_3CH_2CH_2C\equiv C-H$	Pentin-1	Propilatsetilen	

		(Etilenilmetan)	
CH ₃ CH ₂ C≡C-CH ₃	Pentin-2	Metiletlatsetilen (Metilpropenil-1, metan)	
4 3 2 1 CH ₃ CH(CH ₃)C≡C-H	3-metil-butin-1	Izopropilatsetilen (Dimetiletinilmetan)	

Alkinlar asosan, parchalanish reaksiyalari yordamida olinadi.





Alkinlar rangsiz gaz yoki suyuq ko'rinishda bo'ladi. C_{17} dan boshlab esa, alkinlar kristalsimon moddalardir.

Ayrim alkinlarning fizik konstantalari

Struktura formulasi	$T_{\text{suyuq.}}^{\circ}\text{C}$	$T_{\text{qayn.}}^{\circ}\text{C}$	D_4^t
H-C≡C-H	-80,8	-83,8	0,6200 (-84 $^{\circ}\text{C}$)


	(170 kPa)	(haydash)	
$\text{CH}_3\text{-C}\equiv\text{C-H}$	-101,5	-23,3	0,6785 (-27°C)
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{-C}\equiv\text{C-H}$	-130	8,6	0,6680 (0°C)
$\text{CH}_3\text{-C}\equiv\text{C-CH}_3$	-32,3	27,2	0,6880 (25°C)

Alkinlar turli xil moddalar bilan birikish reaksiyasiga kirishishdan tashqari yana, dimerlanish, tsiklooligomerlanish, polimerlanish va oksidlanish reaksiyalariga ham kirishishi mumkin. Bundan tashqari, CO-birikish (karbonillanish) reaksiyasi ham katta amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.



Alkinlarning birinchi vakili bo'lgan *atsetilen*, organik sintezlarda keng ishlataladi. U sintetik kauchuklar, polivinilxlorid va boshqa polimerlar ishlab chiqarishda eng asosiy hom ashyolardan biri

hisoblanadi. Atsetilenden, turli sohalarda ishlataladigan xilma-xil erituvchilar ishlab chiqarishda ham keng qo'llaniladi. Atsetilen kislorodda yondirilganda alanganing harorati 3150°C ga yetadi, shuning uchun u metallarni payvandlashda va qirqishda ishlataladi.



TAYANCH SO'ZLAR

Alkin, izomeriya, nomeklatura, gomologik qator, organic sintez, erituvchi

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Vinil atsetilenden 2-xlorbutadien-1,3 (xloropren) hosil bo'lish reaktsiyasini yozing.
2. Kumush oksid va mis (I)-xloridning ammiakli eritmasini etin va propin bilan reaktsiyalari tenglamasini yozing.
3. Uchta idishda uch xil gaz: metan, etan va atsetilen borligi ma'lum. Shu gazlarning qaysi biri atsetilen ekanligini tajriba yo'li bilan qanday aniqlash mumkin?
4. Atsetilen portlab, oddiy moddalarga ajralishi mumkin. Oddiy moddalardan atsetilin sintez bo'lishi ekzotermik reaktsiya hisoblanadimi yoki endotermikmi? Reaktsiya tenglamasini yozing.
5. Quyidagi sxemada keltirilgan o'zgarishlarni amalda oshirishga yordam beradigan reaktsiya tenglamalarini yozing.

- a) Atsetilen $\xrightarrow[\text{Hg}^{2+}]{\text{HOH}}$ A $\xrightarrow{\text{H}_2}$ B $\xrightarrow{\text{Na}}$ C
- b) Atsetilen $\xrightarrow[\text{Hg}^{2+}]{\text{HOH}}$ A $\xrightarrow{[\text{O}]}$ B $\xrightarrow{\text{Cl}_2}$ C $\xrightarrow{\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}}$ D
- c) Xlorbutan \longrightarrow Buten-1 \longrightarrow 1,2-dibrombutan \longrightarrow Butin-1
- d) Kaltsiy karbid \longrightarrow X \longrightarrow Y \longrightarrow Xloretan



6. 5,6 l atsetilen olish uchun (n.sh.da) necha gramm vinil xlorid KOH ning spirtdagi eritmasi bilan reaktsiyaga kirishadi?
7. Texnik atsetilen olishda ishlataladigan kaltsiy karbid muayyan talablarga javob berishi kerak: uning 1 kilogramiga suv ta'sir ettirilganida 260 l atrofida atsetilen ajralib chiqishi lozim. Shunday karbidda CaC_2 ning massa ulushi qanchaga teng?
8. Kaltsiy karbid iste'molchilarga 130 kg gacha karbid sig'adigan barabnlarda yuboriladi. 80% li karbidning shuncha miqdoridan qancha hajm atsetilen olish mumkin?

5-MAVZU. ALITSIKLIK BIRIKMALAR (tsikloalkan, tsikloaklen va tsikloalkadienlar)


Reja:

1. Klassifikasiya, izomeriya va nomeklaturasi.
2. Alitsiklik birikmalar asosiy olinish usullari.
3. Alitsiklik birikmalar fizik va kimyoviy xossalari.
4. Alitsiklik birikmalar ishlatalishi.


Monosiklik tsikloalkanlarni nomlashda, tegishli alkanlarning nomiga "tsiklo-" old qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilinadi.




Cis-dimetiltsiklopropan




Trans-dimetiltsiklopropan




Spiro [2,2] pentan



Spiro [2,4] heptan




Spiro [3,4] oktan



Bitsiklo [2,2,0] geksan





Bitsiklo [3,3,0] oktan



Bitsiklo [2,2,1] heptan


Alitsiklik birikmalarning olinish usullari quyidagi sxemalarda keltirilgan.



(R=C₂H₅; R'=OC₂H₅; R=C₂H₅; R'=CH₃)


Malon efiri

Atsetosirkafa efiri




Ikki asosli kislota tuzi

Tsikloalkanon



Metilbenzol (toluol)

Metilsiklogeksan




Tsikloalkanlar ayrim vakillarini fizikaviy xossalari quyidagi jadvalda keltirilgan. Ularning birinchi ikki vakili (C_3 va C_4)-gaz, C_5 - C_{10} -suyuq, yuqori birikmalari esa qattiq agregat holatiga ega bo'ladi. Tsikloalkanlarning – qaynash va suyuqlanish haroratlari hamda zichlik qiymatlari, tarkibida xudi shuncha C atomi tutgan alkanlardan bir munkha yuqori bo'ladi.


Nomi	Formulasi	$T_{\text{suyuq.}}^{\circ}\text{C}$	$T_{\text{qayn.}}^{\circ}\text{C}$	Nisbiy zichlik d^{20}
Tsiklopropan	C_3H_6	-127,4	-33,3	0,689 (40°C da)
Tsiklobutan	C_4H_8	-90,2	+12,9	0,703
Tsiklopentan	C_5H_{10}	-93,8	+49,3	0,745
Tsiklogeksan	C_6H_{12}	+6,5	+80,7	0,779
Tsiklononan	C_9H_{18}	+11	+178	0,860
Tsiklotriakontan	$C_{30}H_{60}$	+56	-	0,854

Tsiklogeksan va uning to'yinmagan hosilalari – rangsiz, suyuq, o'ziga xos hidli, suvda erimaydigan moddalar hisoblanadi.

Tsiklogeksan eritmalarda bir necha formalarda bo'lishi mumkin:




Tsikloparafinlar ham huddi to'yingan uglevodorodlarda bo'lganidek hamma bog'lari to'yingan, lekin ular birikish reaksiyasiga kirishish hususiyati bilan to'yingan uglevodorodlardan farq qiladi.



Tsikloparafinlardan *tsiklogeksan*, *metiltsiklogeksan* va boshqa bazi birlari amaliy ahamiyatga ega. Neftni aromatlash jarayonida bu alitsiklik birikmalar aromatik uglevodorodlarga – *benzol*, *toluol* va boshqa moddalarga aylanadi. Ular bo'yqlar dorilar va h.k.lar olishga keng foydalanildi. *Tsiklopropan* narkoz uchun ham ishlataladi.

Alisiklik birikmalarning sinfiga kiruvchi *terpenlar* o'simliklar tarkibida uchrab, ular o'simlik efir moylarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Terpenlar asosan, molekulasi tarkibida qo'sh bog' tutgan, monotsiklik yoki bitsiklik tsiklogeksanning hosilalari hisoblanadi. Masalan:



α -Pinen qayin daraxti skipidarining eng asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Ko'pchilik *terpenlar* yoqimli hidga ega bo'lganligi sababli, ularning ko'pchiligi *atir-upa* (parfyumeriya) sanoatida keng ishlatiladi.

TAYANCH SO'ZLAR

Tsikloalkan, tsikloalken, tsikloalkadien, izomeriya, nomeklatura, gomologik qator, "tsiklo", "vanna" va "tvist" shakllar, terpen, pinen

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Geksan, tsiklogeksan va tsiklogeksen xossalari solishtiring. Ular o'rtasidagi farqni tushuntiring. Bu moddalar qayerlarda va nima maqsadda ishlatiladi?
2. Tsiklopropanni propilendan qaysi usul yordamida tozalash mumkin? Shu usulning reaksiya tenglamasini yozing.
3. Tsiklopropan va tsiklopantan qanday sharoitda brom bilan reaksiyaga kirishadi? Reaksiya tenglamalarini yozing.
4. Tsikloparafinlar formulasida uglerod atomini simvalidagi indeksni n bilan belgilab, shu uglevodorodning yonish reaksiyasining tenglamasini umumiy ko'rinishda yozing.
5. Tsilindrda gaz bor (uning molekulyar formulasasi C_4H_8), u butilen yoki tsiklobutan bo'lishi mumkin. Gazning tuzilishini kimyoviy yo'l bilan qanday aniqlasa bo'ladi?
6. Tsiklik zanjirda tarmoqlari bo'lмаган tsiklik tuzilishdagi uglevodorod bug'ining havoga nisbatan zichligi 1,931 ga teng. Shu moddadagi uglerodning massa ulushi 85,7% ni tashkil etadi.

Uglevodorodning formulasini aniqlang va uning struktura formulasini yozing. [Javob: C_4H_8]

7. Tsikloalkan bug'ining vodorodga nisbatan zichligi 42 ga teng. Tsikloalkan molekulasida asosiy uglerod zanjiridan chiqqan yon tarmoqlari yo'q. Tsikloalkan formulasini aniqlang va uning nomini ayting [Javob: C_2H_{12} tsiklogeksan].

8. Massasi 7 g bo'lgan tsikloalkan yonganda massasi 22 g bo'lgan uglerod (IV)-oksid hosil bo'ladi. Bunda normal sharoitda o'lchangan qancha hajm kislorod sarf bo'ladi? [Javob: 16,8 l].


6-MAVZU. AROMATIK UGLEVODORODLAR

Reja:


- Izomeriya, gomologlari va nomeklaturasi.
- Aromatik uglevodorodlarning asosiy olinish usullari.
- Aromatik uglevodorodlarning fizik va kimyoviy xossalari.
- Aromatik uglevodorodlarning ishlatalishi.
- Ko'p yadroli aromatik uglevodorodlar


Tarkibida boshqa birikmalardan farq qilib tsiklogeksatrien yopiq zanjiri (tsikl) ushlagan, uglerodga boy bo'lgan tsiklik uglevodorodlarga *aren* (*aromatik uglevodorod*) lar deyiladi.

1865 yilda benzolning struktura formulasini birinchi bo'lib nemis olimi A.Kechule taklif qildi:




Quyida arenlarning ayrim bir asosiy namoyondalari keltirilgan:







Etilbenzol




1,2,4-trimetilbenzol




1,2,3-trimetilbenzol
(pseudokumol)



1,3,5-trimetilbenzol
simm.-trimetilbenzol
(mezitilen)




Kumol
(izopropilbenzol)




Durol
(1,2,4,5-tetrametilbenzol)


Benzol qatori arenlarining to'yinmagan o'rinosbasorlar bilan:



Stirol
(vinilbenzol)
(feniletilen)



Etrinilbenzol
(Fenilatsetilen)




1,4-divinilbenzol


Tarkibida ikkita o'rinosbasor tutgan benzollar uchta izomer hosil qilishi mumkin: *ortho*-*, meta*- va *para*- holat (qisqartirilgan *o*-, *m*- va *p*-) yoki 1,2-, 1,3- va 1,4- birikmalar.




Fenil-




Benzil-




o-tolil-




m-tolil-




p-tolil-




2,3-ksilil-




2-etilfenil-



fenetil-




2-metil-3-fenilpentan



2-fenil-2-buten

Benzol qatori arenlari, sanoatda, toshko'mirni va neftni qayta ishlash hamda benzolni alkillash orqali olinadi. Laboratoriya sharoitida esa, alkillash va atsillash orqali olinadi.

Benzol qatori uglevodorodlarining olinish usullari quyidagi sxemalarda keltirilgan:





Benzol va uning eng yaqin tomologlari-o'ziga xos hidli rangsiz suyuqlik, yuqori galologlari-qattiq moddalar. Qaynash va suyuqlanish haroratlari, benzol halqasining yonidagi o'rinosarlarning tarkibi va holatiga uzviy bog'liq bo'ladi. Arenlarning zichligi har doim birdan kichik bo'lib, suvda juda kam erishi bilan bir qatorda, ko'pchilik organik erituvchi-spirit, efir, otsetan va boshqalar bilan cheklanmagan miqdorda aralashishi mumkin.

Ayrim arenlarning fizik xossalari

Nomi	Brutto formula	T ₀ suyuq °C	T ₀ qayn °C	Nisbiy zichlik d ²⁰
Benzol	C ₆ H ₆	+5,5	80,1	0,879
Toluol	C ₇ H ₈	-95	110,6	0,866
Etilbenzol	C ₈ H ₁₀	-94	136,2	0,866
Ksilol (dimetilbenzol)				
o-	C ₈ H ₁₀	-25	144,4	0,96
m-	C ₈ H ₁₀	-47	139,1	0,881
p-	C ₈ H ₁₀	+13	138,4	0,854
Propilbenzol	C ₉ H ₁₂	-99	159,2	0,861
Kumol (izopropilbenzol)	C ₉ H ₁₂	-96	152,4	0,862
Stirol (vinilbenzol)	C ₈ H ₈	-31	145,0	0,906
Fenilatsetilen	C ₈ H ₆	-45	142,0	0,930

Benzol va uning gomologlarining kimyoviy xossalari






Benzol yadrosida joylashgan elektrofil almashinish reaksiyasida ishtirok etayotgan o'rribosarlarni, yo'naltiruvchi ta'siriga ko'ra ikkiga bo'lish mumkin:

Birinchi xil o'rribosarlari -asosan, kelayotgan o'rribosarni *ortho-* va *para-* holatlarga yo'naltiradi. Ularga-alkil radikallari, -OH, -NH₂, -NHR, -NR₂, galogenlar va boshqa guruhlar misol bo'ladi.


Ikkinchchi xil o'rribosarlari -kelayotgan o'rribosarlarni, asosan *meta-* holatga yo'naltiradi. Ularga -CF₃, -NO₂, -SO₃H, -COOH, -CHO, -CN va boshqa guruhlar misol bo'ladi:

Aromatik uglevodorodlarning eng asosiy hom ashyosi bo'lib, yuqorida aytib o'tlgandek, toshko'mir va neft hisoblanadi.

1000-1500°C da toshko'mirni kokslash natijasida - koks (ko'mir massasiga nisbatan 75%), koks gazi (1 t ko'mirga 300 m³), toshko'mir smolasi (2-3%) va ammiakli suv hosil bo'ladi.




Rasm: Benzolning ishlatalishi.




Rasm: Toluolning ishlatalishi.


Ko'p yadroli arometik birikmalar deb, o'zaro bir-biri bilan uglerod-uglerod bog'lari orqali bog'langan, tarkibida ikki yoki undan ortiq benzol yadrosi tutgan birikmalarga aytildi.




Bifenil




3,4'-dimetilbifenil




Difenilmetan




Trifenilmetan




Naftalin



Antratsen




Tetratsen
(naftatsen)




Pentatsen


b) Angulyar kondensirlangan tsikllar:




Fenantren



Xrizen



Pitsen



Sxema. Uglevodorodlarning o'zaro bir-biriga aylanishi.

TAYANCH SO'ZLAR

Aren, izomeriya, nomeklatura, gomologik qator, orto-, meta- va para-holat, koks. Naftalin, antratsen, izomeriya, nomeklatura, gomologik qator

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Aromatik uglevodorodlar qanday turlarga bo'linadi?
2. Aromatik uglevodorodlarni qaysi usullar yordamida olish mumkin? Ularning tabiiy manbaalariga misollar keltiring.
3. Birinchi va ikkinchi tur o'rincbosarlari benzol halqasidagi vodorod atomining qo'zg'aluvchanligiga qanday ta'sir qiladi?
4. Nima uchun ikkinchi tur o'rincbosarlari tutgan benzol hosilalari nukleofil reagentlarni ko'proq *m*-holatga almashtiradi? Javobingizni izohlang.
5. Quyidagi: a) C_6H_{16} CH_3CH_2Br va $AlCl_3$ moddalardan foydalanib etilbenzol; b) C_6H_6 va $CH_2=CHCH_3$ dan izopropil-benzol olish reaksiya tenglamalarini yozing. Hosil bo'lgan moddalar qanday nomlanadi?

6. 49 g metilsiklogeksanni katalitik degidrogenlab toluol olishda necha litr vodorod ajralishini hisoblang. Reaktsiyaning unumi nazariya nisbatan 75% ni tashkil etadi. [Javob: 25,2 g]
7. 100 g benzol vodorod bilan reaktsiyaga kirishib 100 g massali tsiklogeksan hosil bo'ldi. Bu nazariy unumga nisbatan necha % ni tashkil qiladi? [Javob: 92,86%]
8. Benzoldan 450 g xlorbenzol olish uchun qancha hajm xlor kerak bo'lishini hisoblab toping. Reaktsiyaning sodir bo'lish shart-sharoitlarini ko'rsating. [Javob: 89,6 l Cl_2]

TARKIBIDA KISLOROD SAQLOVCHI ORGANIK BIRIKMALAR

Tarkibida gidrosil guruhi saqlovchi birikmalar

1) Bir atomli spirtlar:



2) Ikki atomli spirtlar:



3) Uch atomli spirtlar:



7- MAVZU. BIR ATOMLI SPIRTLAR.

Reja:

1. Izomeriya, gomologlari va nomeklaturasi.
2. Bir atomli spirlarning asosiy olinish usullari.
3. Bir atomli spirlarning fizik va kimyoviy xossalari.
4. Bir atomli spirlarning ishlatalishi.

Ochiq zanjirli, bir atomli spirlarning umumiy formulasi $R-OH$ (yoki $C_nH_{2n+1}OH$) bo'lib, ular radikalning tabiatiga qarab to'yingan va to'yinmagan (yuqorida) spirlarga, gidrosil birikkan uglerod atomining turiga qarab esa birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi spirlarga bo'linadi:



Birlamchi spirit




Ikkilamchi spirit




Uchlamchi spirit


Ba'zi spirtlar trivial nomlarga ega:




Yog'och spiriti




Vino spiriti




Miritsil spiriti



Etilenglikol




Glitserin



Pentaeritrit



Metil spiriti



Izopropil spiriti




Allil spiriti




Proporgil spiriti


Ratsional nomeklaturaga ko'ra bir atomli to'yingan va to'yinmagan spirtlar metil spirt (*karbinol*) ning hosilalari deb qaraladi:




Dimetilkarbinol




Metiletilizobutilkarbinol




Etilpropillallikarbinol




1-propanol




Etinilizopropilkarbinol



4-metil-2-pentanol




3-buten-1-ol



4-geksin-2-ol


Fenollarning trivial nomlari ko'p ishlataladi. Sistematisk nomeklaturaga ko'ra nomlash uchun tegishli aromatik uglevodorod nomiga *-ol* qo'shimchasini qo'shib aytildi. Raqamlash gidroksil guruhi bilan bog'langan uglerod atomidan boshlanadi. Ba'zan


gidrosil guruhining borligi *gidroksi (oksi)-* old qo'shimchasi bilan belgilanadi:



Spirtlar tabiatda erkin holda juda kam miqdorda uchraydi. Masalan, o'simlikning efir moylari, hayvon va o'simlik organizmlarida metil spirit va etil spirti bilan birqalikda uchraydi. Ammo murakkab va oddiy efir holida spirtlar tabiatda keng tarqalgan. Masalan, metil spirti oddiy efir holida *lignin* tarkibida tsetil spirti $C_{16}H_{33}OH$ murakkab efir holida *spermatset* tarkibida, miritsil spirti $C_{30}H_{16}OH$ esa *mum* tarkibida uchraydi.

Spirtlarning ayrim asosiy olinish usullari quyidagi sxemada keltirilgan:





Bir atomli spirlarning aksariyati o'ziga xos hidli, rangsiz suyuqlik yoki kristallsimon ko'rinishda bo'ladi. Alkanollar gomologik qatorning birinchi vakillari yoqimli hidga ega bo'lsa,


butanol va pentanollarning barcha izomerlari yoqimsiz hidga ega bo’ladi. Yuqori alkanollar yoqimli aromatik hidga ega bo’ladi.

<i>Birikma</i>		T _{suyuq., °C}	T _{qayn., °C}	D ₄ ²⁰
CH ₃ OH	Metil spirit	-97,8	64,7	0,7924
CH ₃ CH ₂ OH	Etil spirit	-117,3	78,4	0,789
CH ₃ CH ₂ CH ₂ OH	Propil spiriti	-127,0	97,2	0,804
(CH ₃) ₂ CHOH	Izopropil spirit	-88,5	82,3	0,785
CH ₃ (CH ₂) ₂ CH ₂ OH	Butyl spirit	-89,5	117,7	0,8097
(CH ₃) ₂ CHCH ₂ OH	2-metil, propil spiriti	-108,0	108,4	0,801
(CH ₃) ₃ COH	2-metil, propan-2-ol	25,5	83,0	0,788
CH ₃ (CH ₂) ₃ CH ₂ OH	Amil spirit	-78,5	138,0	0,814
CH ₃ CH ₂ CH(CH ₃)CH ₂ OH	2-metil, butyl spirit		128,0	0,819
(CH ₃) ₂ CHCH ₂ CH ₂ OH	3-metil, butyl spirit	-117,2	130,5	0,812
CH ₃ CH ₂ C(CH ₃) ₂ OH	2-metil, butan-2-ol	-11,9	101,8	0,809
CH ₂ =CHCH ₂ OH	Allil spiriti		96,7	0,85
CH ₃ (CH ₂) ₃ CH ₂ OH	Detsil spiriti	6	228	0,80
C ₆ H ₁₁ OH	Tsiklogeksanol	25,5	161,5	0,96

Spirtlarning bu xossasi suvnikiga o'xshash bo'ladi (suv-100°C da qaynasa, suvning analogi - H_2S esa -60°C da qaynaydi).


Spirtlar qutibli birikmalar hisoblanadi. Ularning molekulasida ikkita qutibli bog'lar: $\square\text{C-O-}\square$ va $\square\text{O-H-}\square$ mayjud bo'ladi.


O-H qutbli bog' hamda kislorod atomida bo'ladigan ortiqcha juft elektronlar, molekulalar o'zaro bir-biri bilan assotsiyalanish (bog'lanishi)ni keltirib chigaraadi:



Spirit va fenollarning kislotali xossalari.


Moddalarning kislotali xossalari, ular tarkibidan vododrodnинг H^+ proton holida chiqib ketib uning о’rnini metall olishi bilan tushuntiriladi. Bunday xususiyat, gidrosil guruhi tutgan-spirt va fenollarda ham kuzatiladi.






Kislotali xossasi ortadi


Spirtlarning xarakterli kimyoviy xossalari quyidagi sxemada keltirilgan:



Birlamchi spirtlar oksidlanguanda aldegidlar hosil bo'lsa:




Ikkilamchi spirtlar oksidlanguanda esa ketonlar hosil bo'ladi:




Uchlamchi spirtlarni oksidlash bir muncha qattiq sharoitda olib boriladi. Buning natijasida, oksidguruhga yaqin turgan C-C bog' tuzilishi bilan berib, boshlang'ich spirtga nisbatan molekulasisida

kamroq uglerod atomini tutgan kislorod saqllovchi birikmalar hosil bo'ladi. Masalan,



Metil spirt ko'pgina sanoat miqiyosidagi organik sintezlarda keng ishlataliladi.



Rasm. Metanolning ishlatalishi

TAYANCH SO'ZLAR

Alkanol, radikal, izomeriya, nomeklatura, gomologik qator, karbinol, fenol

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Spirlarni neytral modda ekanligini qanday isbotlash mumkin?
2. Eterifikatsiya va gidroliz deb qanday reaktsiyalarga aytildi?
3. Nima uchun uchlamlchi spirtlar oksidlanguanda karbon kislotalarning aralashmasi hosil bo'ladi? Misollar keltiring.
4. Etil spirt, propan va etil xlorid molekulalari tuzilishini taqqoslang. Nega propan suvda erimaydi-yu, etil spirt unda yaxshi eriydi? Nega etil xlorid 12,4°C da qaynagani holda etil spirt nisbatan yuqori haroratda (78,3°C) qaynaydi

- C₄H₈O tarkibli to'yinmagan izomer spirtlarning tuzilish formulalarini yozing. Ularni sistematik va ratsional nomeklaturaga binoan nomlang.
- Natriy metali 1,85 g to'yingan bir atomli spirtga ta'sir ettirilganda 280 ml vodorod ajralib chiqadi. Shu spirtning molekulyar massasini va qaysi spirt ekanligini aniqlang. [Javob: C₄H₉OH]
- 23 g etil spirtning benzoldagi eritmasiga 2,5 g natriy ta'sir ettirilganda olinadigan vodorod qancha hajmni egallaydi? [Javob: 1,22 l]
- Propil spirtning benzoldagi eritmasiga mo'l natriy ta'sir ettirilganda 56 ml (n.sh.da) vodorod ajralib chiqadi. Eritmada necha gramm spirt bo'lgan? [Javob: 0,3 g]


8- MAVZU. KO'P ATOMLI SPIRTLAR

Reja:

- Izomeriya, gomologlari va nomeklaturasi.
- Ko'p atomli spirtlar asosiy olinish usullari.
- Ko'p atomli spirtlarning kimyoviy xossalari.
- Ko'p atomli spirtlar ishlatalishi

Molekulasida ikki va undan ortiq gidroksil guruuhlar saqlagan organik birikmalar *ko'p atomli spirtlar* deyiladi. Gidroksil guruhlarning soniga ko'ra, ular ikki atomli, uch atomli va hokazo spirtlarga bo'linadi. Ikki atomli spirtlar *glikol* yoki *biollar*, uch atomllilar esa-*gletsirin* yoki *triollar* deyiladi.


Ratsional nomeklaturaga ko'ra ko'p atomli to'yingan va to'yinmagan spirtlar quyidagicha nomlanadi:





□□□□□□□□□□□□-метил-□□ иккителамчибутил

учламчибутилэтиленгликол



этиленгликол



триметиленгликол





гептаметиленгликол




\square -метилtrimetilenglikol

\square -этил, \square -изопропил тетраметилен гликол




Glikol (etandiol-1,2) moddasini olishning eng asosiy xom ashyosi bo'lib, etilen hisoblanadi.




Gletsiren. Birinchi marta glitsiren moddasi, 1979 yilda K.Sheelee tomonidan yog'larni qo'rg'oshin oksidi ishtirokida ishqor eritmasi bilan ishlov berish orqali ajratib oldi. Yog'lar-C₁₆-C₁₈ tarkibli karbon kislotalari bilan glitserindan tashkil topgan murakkab efirlar hisoblanadi. Ishqor eritmasi ta'sirida murakkab efirlar gidrolizga uchrab: kislotalarning qo'rg'oshinli tuzlari cho'kmaga tushib, suvli eritmalarda esa glitserin qoladi.


Hozirgi zamonda sanoatda, glitserining bir qismi yog'lardan olinsa, ko'p qismi esa usul bilan allilxlorid yoki allil spirtidan olinadi:




Etilenglikalning kimyoviy xossalari asosan bir atomli spirtlarning xossalariiga muvofiq keladi. Bunda reaksiyalar bitta gidroksil guruhdan ham, ikkala gidroksil guruhdan ham borishi mumkin. Masalan; etilenglikol ishqoriy metallar (m-n: Na, K, Mg, Al kabi) lar bilan chala va to'liq reaksiyaga kirishib *glikolyatlar* hosil qiladi.



Bir atomli spirtlardan farq qilib, etilenglikol mis (II)-gidroksid bilan oson reaksiyaga kirishadi va *och ko'k rangli* mis glikolyat hosil qiladi.





Turli noorganik oksidlovchilar ta'sirida etilenglikol oson oksidlanadi:




Gidroksil guruhlari oson galogenlarga almashishi mumkin:




Kuchli mineral kislotalar ishtirokida etilenglikol spirtlar bilan reaksiyaga kirishib oddiy efirlar hosil qiladi:




Glikol, kislotalar ishtirokida qizdirilganda tsiklik efir-dioksan hosil bo'ladi:



Glitserin ham (etilenglikol singari) yangi tayyorlangan mis (II)-gidroksidi bilan reaksiyaga kirishib (sifat reaksiyasi) och ko'k rangli mis (II)-glitseratni hosil qiladi:




Glitserinning murakkab efirlari amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'ladi. Nitrat va sulfat kislotalari («nitrolovchi agent») aralashmasi ta'sirida nitrat kislotasining efiri-glitserin trinitrat («nitroglitserin») hosil bo'ladi, bu modda portlovchi modda sifatida ishlatilishi bilan bir qatorda, dori ishlab chiqarishda keng ishlatiladi.




Nitroglitserin oddiy haroratda ($t_{suyuq}=13^0\text{C}$), har qanday chayqalish (urilish)ga sezgir bo'lib, portlovchi modda hisoblanadi.

Nitroglitserinning parchalanishI - kuchli ekzotermik (3000°C) jarayon bo'lib, bunda juda ko'p miqdorda gazlar ajralib chiqadi:



Glitserin yuqori haroratda kuchsiz kislota (katalizator) lar bilan qo'shib qizdirilganda, tarkibidan ikki molekula suv chiqib ketishi natijasida to'yinmagan aldegid - *akrolein* (kuchli yoqimsiz hidga ega) hosil bo'ladi:



Etilenglikolning hosil qilgan ko'pchilik oddiy va murakkab efirlari sanoatda keng miqiyosda ishlatiladi. Shulardan biri hisoblangan metiltsellozolv $\text{CH}_3\text{OCH}_2\text{CH}_2\text{OH}$ (suyuqlik, $t_{\text{qayn}}=125^{\circ}\text{C}$) erituvchilar sifatida ishlatiladi. Etilenglikolning 50% li suvli eritmasi avtomobil dvigatellarini qish paytida sovituvchi muzlamaydigan suyuqlik (*antifriz*) sifatida (muzlash harorati- 34°C) ishlatiladi. Etilenglikol shuningdek ba'zi organik moddalarni sintez qilishda qo'llaniladi. Masalan, undan yuqori molekulali modda - muhim ahamiyatga ega bo'lган sintetik tola - *lavsan* sintez qilishda foydalilaniladi. Etilenglikol shuningdek portlovchi moddalar ishlab chiqarishda ham ishlatiladi.

Glitserin nitroglitserin va dinamit olish uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, glitserin parfyumeriyada va meditsinada (terini yumshatuvchi yog' upalar tayyorlashda), teri sanoatida (terilarni qurishdan saqlashda), to'qimachilik sanoatida (matolarni yumshoq va mayin qilishda) va hokazo ishlatiladi. Oziq-ovqat sanoatida liker va boshqalarga shirinroq ta'm berishda va quyiltirish maqsadida ham foydalilaniladi. Bundan tashqari, tibbiyotda *nitroglitserinning* spirtdagi 1% li eritmasi qon tomirlarini kengaytiruvchi vositalardan biri sifatida ishlatiladi.

TAYANCH SO'ZLAR

Diol-, triol- va poliollar, izomeriya, nomeklatura, gomologik qator, glikol, glitserin, glikolyat, nitroglitserin, akrolein, antifriz, lavsan,


SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Etilenglikol oksidlanganda besh hil reaktsiya mahsuloti: glikol aldegidi; glioksol; glikol kislotasi; oksalat kislotasi va glioksil kislotasini hosil qilishi mumkin. Bu moddalarning tuzilish formulasini yozing.
2. $C_5H_{12}O_2$ tarkibli izomer glikollar tuzilish formulasini yozing va ularni sistematik nomeklaturaga binoan nomlang.
3. $C_6H_{14}O_3$ tarkibli izomer uch atomli spirlar (alkantriollar) tuzilish formulalarini yozing va ularni sistematik nomeklaturaga ko'ra nomlang.
4. $C_6H_{14}O_2$ tarkibli normal tuzilishli izomer α - , β - va γ -glikollarning tuzilish formulalarini yozing. Ularning qaysilari optik faol? Ikkiti assimetrik uglerod atomi tutgan izomerning enantiomerlari proyektsion formulalarini yozing. Ularni R - va S -nomeklaturaga binoan nomlang.
5. 22,7 g trinitroglitserin olish kerak bo'ladigan 80% li ($\rho=1,45$ g/ml) HNO_3 eritmasining qanday hajmi kerak bo'ladi? [Javob: 16,3 ml]
6. 15,5 g oddiy ikki atomli spirt olish uchun kaliy permanganatning suvdagi eritmasi orqali qanday gazsimon organik moddani va qancha hajmda o'tkazish kerak? Reaktsiya mahsulotining unumi nazariy unumning 50% ni tashkil qiladi. Bunda necha gram $KMnO_4$ kerak bo'lishini hisoblab toping. [Javob: 52,7 g $KMnO_4$]
7. 72,7 ml ($\rho=1,26$ g/m) glitserinning gidroksil gruppalarini tarkibidagi barcha vodorod atomlarini o'rnnini olish uchun 69 g massali Na metali yetadimi? [Javob: yetadi]
8. Molekulyar massasi 62 ga teng bo'lgan spirt metilmagniy yodid bilan reaktsiyaga kirishganida 1,33 ml (n.sh.) gaz ajralib chiqadi. Spirt molekulasida nechta faol vodorod atomlari borligini va uning tuzilishini aniqlang. [Javob: CH_2OH-CH_2OH]


9- MAVZU. FENOL VA AROMATIK SPIRTLAR

Reja:


1. Izomeriya, gomologlari va nomeklaturasi.
2. Fenol va aromatik spirlarning asosiy olinish usullari.
3. Fenol va aromatik spirlarning fizik va kimyoviy xossalari.
4. Fenol va aromatik spirlarning ishlatalishi




Fenol
(gidroksibenzol)




o-krezol
(*o*-metilfenol,
2-metilfenol)




Rezortsin
(benzendiol-1,3
1,3-digidroksibenzol)




Naftol-2
(2-naftol)



Benzil spiriti
(fenilmetanol)




Trifenilmethanol



2-fenil etanol-1
(2-fenyletil spiriti,
Fenetol)


Tabiatda, fenol va krezol (metilfenol) larning juda ham ko'p miqdori toshko'mir smolasasi tarkibida bo'ladi. Smola tarkibidan, o'yuvchi ishqor eritmalari yordamida fenolyatlar holida ajratib olinib, shundan so'ng kislotalar ta'sirida cho'ktiriladi:




Natriy fenolyat



Bir atomli fenollarning ayrim bir olinish usullari quyidagi sxemada keltirilgan:



Aromatik uglevodorodlarni etilenoksid (propilenoksid va h.k) bilan alkillash orqali, 2-aryl-1-etanol olishga imkon beradi:



Fenollar rangsiz suyuqlik yoki kristallsimon moddalar bo'lib, (jadval), o'ziga xos kuchli hidga ega bo'ladi. Suvda juda kam miqdorda eriydi. Ochiq holda havoda saqlanganda asta-sekin qorayib (oksidlanish jarayoni) boradi.


Ayrim fenollarning fizik konstantalari.


Birikma	T _{suyuq., 0°C}	T _{qavn., 0°C}	d ₄ ²⁰	n _d ²⁰
	41,0	182	1,072	1,5425 (40°C)

<chem>Oc1ccccc1C</chem>	30,0	191	1,0465	1,5453
<chem>Oc1ccccc1C</chem>	11,0	203	1,034	1,5398
<chem>Oc1ccccc1C</chem>	36,0	202	1,035	1,5395

Fenollar kuchsiz OH-kislotalar (lekin alkanollarga qaraganda birmuncha kuchli) hisoblanadi.


Fenollar uchun, sifat reaksiysi hos bo'lib: FeCl_3 moddasining suvli eritmasi bilan qizil-pushti rang hosil qiladi. Fenollarning ayrim bir boshqa kimyoiy xossalari quyidagi sxemada keltirilgan:





Fenol dunyoda bir yilda 1,5-2 mln. tonna miqdorda ishlab chiqariladi. Barcha ishlab chiqariladigan miqdorning 90% i sintetik usullar yordamida olinsa, atigi 10% igina - toshko'mir smolasi tarkibidan ajratib olinadi. Eng asosiy sintetik usul bo'lib *kumol* (*Udris-Sergeev*) usuli hisoblanadi. Sintetik fenolning 50% idan ortig'i shu usulda ishlab chiqariladi.

Fenolning juda ko'p qismi, fenoplastlar ishlab chiqarishda asosiy xom ashyo bo'lgan fenolformaldegid smolalarini ishlab chiqarishda ishlatsa, qolgan qismi asosan, sintetik tolalar ishlab chiqarish sanoatning xom ashyosi hisoblanuvchi tsiklogeksanal ishlab chiqarishda ishlataladi. Quyidagi sxemada fenolning ayrim bir ishlatalish sohalari ko'rsatilgan:



TAYANCH SO'ZLAR

Fenol, izomeriya, nomeklatura, gomologik qator, fenetol, fenolyat, kumol, antiseptic moddalar, pestitsidlar

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Fenollar va aromatik spirtlarning xossalari o'rtrasidagi farq nimalardan iborat? Ulardagi OH gruppining aktivligini solishtiring.
2. Fenol qanday usullar bilan olinadi? Fenolning kislotalik xossaga ega ekanligini qanday tushuntirish mumkin?
3. Qaysi reaksiyalar yordamida fenolni benzoy kislotadan farq qilish mumkin? Bu birikmalarni bir-biridan qanday ajratish mumkin?
4. Fenol bilan benzil spiriti aralashmasini bir-biridan qanday usullar bilan ajratish mumkin?
5. Uchta probirkada butanol-1, etilenglikol va fenolning benzoldagi eritmasi bo'lса, har bir moddani aniqlash uchun qanday moddalar foydalilanildi? [Javob: $Cu(OH)_2$; $Br(H_2O)$]
6. 2 t natriy fenolyatdan qancha fenol olish mumkin? [Javob: 1620,7 kg]
7. 5 mol fenolga sırka kislotaning xlorangidridi ta'sir ettirilganda qancha fenolning sırka efiri hosil bo'ladi? [Javob: 680 g]
8. 52,8 g kaliy krezyolyat hosil bo'lishi uchun o'yuvchi kaliy bilan necha gramm krezyol reaksiyaga kirishadi? Kukun holidagi mis katalizatori ishtirokida kaliy krezyolyatga xlorbenzol ta'sdir ettirilsa, qanday modda hosil bo'ladi? [Javob: 39 g feniltolil efir]

10- MAVZU. KARBONIL BIRIKMALAR VA ULARNING HOSILALARI


Reja:

1. Izomeriya, gomologlari va nomeklaturasi.
2. Karbonil birikmalar va ularning hosilalarining asosiy olinish usullari.
3. Karbonil birikmalar va ularning hosilalarining fizik va kimyoviy xossalari
4. Karbonil birikmalar va ularning hosilalarining ishlatalishi


Karbonil birikmalar-molekulasidagi bitta uglerod (geminal atomi) atomidagi ikkita vodorod atomini bitta kislorod atomiga almashtirgan uglevodorodlarni hosilasi hisoblanadi. Bunday yo'l bilan $>\text{C}=\text{O}$ olinadi, bu guruh *karbonil guruhi* yoki *oksoguruhi* deb ataladi.

Agar, karbonil guruhi bitta vodorod hamda bitta uglerod (oddiy holatda ikkita vodorod atomlari bilan) atomi bilan bog'langan bo'lsa, bu birikmalar *aldegidlar* deb, -CHO guruhi *aldegid* guruhi deyiladi.

Agar karbonil guruhi ikkita uglerod atomi bilan bog'langan bo'lsa, bu birikma *keton* deb, -CO- guruhi *ketoguruhi* deb ataladi:



Aldegidlar





Ketonlar

Molekulasi tarkibidagi funksional guruhlari hamda karbonil guruhlari miqdoriga ko'ra, karbonil birikmalar quyidagi sinflarga bo'linadi:





- 1) monokarbonil birikmalar;
- 2) dikarbonil birikmalar;
- 3) tarkibida boshqa funktional guruhlarni tutgan karbonil birikmalar.

Monokarbonil birikmalar




1) To'yinshan karbonil birikmalar:




2) To'yinmagan tutash (α , β - to'yinmagan) karbonil birikmalar:




3) Arenlarning karbonil birikmalari (aromatik aldegid va ketonlar):



Juda ham ko'pchilik aldegidlar trivial nomlarga ega bo'lib bu holatda, tegishli nomga aldegid so'zini qo'shish bilan hosil qilinadi.






Trimetilsirka aldegidi



Metilvinilizo-propil sirka aldegidi

Ayrim aldegidlarning nomeklaturasi

Struktura formulasi	Nomeklatura		
	IYuPAK	Ratsional	Trivial
CH ₂ O	Metanal	Formaldegid	Formaldegid Chumoli aldegid
CH ₃ CHO	Etanal	Atsetaldegid Sirka aldegid	Atsetaldegid Sirka aldegid
CH ₃ CH ₂ CHO	Propanal	Metilsirka aldegid	Propion aldegid
CH ₃ CH ₂ CH ₂ CHO	Butanal	Etilsirka aldegid	Butiraldegid Moy aldegid
(CH ₃) ₂ CHCHO	2-metil propanal	Dimetilsirka aldegid	Izomoy aldegid

		\square -metilpropion aldegid	
	Tsiklogeksan karbaldegid		
$\text{CH}_2=\text{CH-CHO}$	Propenal	Vinil karbaldegid	Akrolein
$\text{CH}_3\text{-CH=CH-CHO}$	Buten-2-al	\square -propenil karbaldegid	Kroton aldegid
$\text{CH}_2=\text{CH-CH}_2\text{-CHO}$	Buten-3-al	Atsil karbaldegid Vinilsirka aldegid	
$\text{CH}\equiv\text{C-CHO}$	Propinal		Propargil aldegid
	Benzaldegid		Benzoy aldegid
	2-naftalin karbaldegid		\square -naftaldegid


Keton guruhi sistematik (IYuPAK) nomeklaturaga ko'ra *-on* qo'shimchasi yoki *okso-* (*keto-*) old qo'shimchalari bilan belgilanadi.


Ayrim ketonlarning nomeklaturasi

Struktura formulasi	Nomeklatura		
	IYuPAK	Ratsional	Trivial
$\text{CH}_3\text{-CO-CH}_3$	Propanon-2	Dimetilketon	Atseton
$\text{CH}_3\text{-CO-CH}_2\text{CH}_3$	Butanon-2	Metiletilketon	
$\text{CH}_3\text{-CO-CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_3$	Pantanon-2	Metilpropil-keton	
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{-CO-CH}_2\text{CH}_3$	Pantanon-3	Dietilketon	
$(\text{CH}_3\text{-CO-CH}(\text{CH}_3)_2$	3-metil, butanon-2	Metilizopropil-keton	
	Tsiklogeksan karbaldegid		
$\text{CH}_3\text{CH=CH-CO-CH}_3$	Penten-3-on-2	Metil $\square\square\square$ -propenil keton	
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{C}\equiv\text{C-CO-CH}_3$	Geksin-3-on-2	Metil $\square\square\square$ -butinilketon	

		<i>Metilfenilketon</i>	<i>Atsetofenon</i>
	<i>1,3-difenil-propanon</i>		<i>Xalkon</i>


Aldegid va ketonlar, turli xil organik birikmalarini oksidlash, digologenalkan (RR^1CX_2) larni gidrolizlash, alkinlarga suv ta'sir ettirish, alkenlar tarkibiga karbonil guruhini to'g'ridan-to'g'ri kirgazish va shunga o'xshash boshqa reaksiyalar yordamida olinadi.





To'yingan aldegid va ketonlar rangsiz suyuqlik (*formaldegid - kuchli hidli gaz*) bo'lib o'ziga xos o'tkir hidga ega bo'ladi.

Ayrim aldegid va ketonlarning fizikaviy konstantalari


Nomi	Formulasi	$T_{\text{suyuq}}, {}^\circ\text{C}$	$T_{\text{qayn}}, {}^\circ\text{C}$	Nisbiy zichlik (g/sm^3)
<i>Formaldegid</i>	HCHO	-92	-20	0,81 (-21 ${}^\circ\text{C}$)
<i>Atsetaldegid</i>	CH ₃ CHO	-121	21	0,80
<i>Propion aldegid</i>	CH ₃ CH ₂ CHO	-81	49	0,807
<i>Akrolein</i>	CH ₂ =CHCHO	-87	52	0,84
<i>Benzaldegid</i>		-26	180 (+15 ${}^\circ\text{C}$)	1,05
<i>Atseton</i>	CH ₃ COCH ₃	-94	56	0,792
<i>Metiletilketon</i>	CH ₃ COC ₂ H ₅	-86	80	0,805


<i>Tsiklopentanon</i>		-58	130	0,94
<i>Tsiklogeksanon</i>		-40,5	156	0,94
<i>Atsetofenon</i>		+20	202	1,02

Karbonil guruhlarning qutbliligi, ularning kimyoviy xossalarini belgilab beradi. Bu guruh-reaksiyaga kirishish jihatidan eng faol bo'lgan guruhlardan biri hisoblanadi. Bu guruh uchun quyidagilar xossalar xarakterli bo'lib hisoblanadi:

- 1) karbonil guruhdagi qo'sh bog' hisobiga birikish;
- 2) karbonil guruhidagi kislorodining o'rmini, tarkibida turli xil azotli guruhlarni ushlagan qoldiqlari olishi;
- 3) kondensatsiya reaksiysi.


Karbonil guruhining reaktsion qobiliyatiga, bu guruh bilan bog'langan radikalning o'lchami ham bevosita ta'sir qiladi. Bu radikal qanchalik katta hajmga ega bo'lsa, karbonil guruhiga reagentning kelishi shunchalik qiyinlashadi, buning natijasida esa reaksiya sekinlashadi:






a) Ketonlar bunday reaktsiyaga kirishmaydi

Ketonlar, havo kislороди bilan ham, kuchsiz oksidlovchilar bilan ham oksidlanmasdan, kumush oksidining ammiakli eritmasini qaytarmaydi. Ular faqat kuchli oksidlovchilar (masalan: KMnO_4) ta'sirida oksidlanadi.






Formaldegid kuchli hidga ega bo’lgan rangsis gaz bo’lib, suv hamda organik erituvchilarda yaxshi eriydi; tarkibida stabilizator sifatida 5-15% metanol ushlagan formaldegidning 35-37%li suvli eritmasini *formalin* deb ataladi.

Suvli eritmalarini vakuumda asta-sekin bug’latish natijasida rangsiz kukunsimon modda hosil bo’la boshlaydi, bu narsa, tarkibida $n=8-100$ oligomer va polimerlar aralashmasini, *paraform* (uni, gazsimon formaldegid o’rniga har xil sintezlarda foydalaniadi) deyiladi.


Formaldegid moddasidan turli xil polimerlar (fenolformaldegid va karbamid smolalari) ishlab chiqarishda ishlatiladi. Ulardan tolalar, plyonkalar va konstruktsion qismlar ishlab chiqarishda foyadalaniadi.

Formaldegid ammiak bilan ta’sirlashib, politziklik tuzilishga ega bo’lgan - *urotropin* moddasini hosil qiladi (bu reaksiya birinchi bo’lib 1860 yilda A.M.Butlerov tomonidan topilgan):




Teri sanoatida formalinning oshlash ta'siri oqsilning ivishi bilan tushuntiriladi. Oqsilning ivishi natijasida teri qotadi va chirimaydigan bo'ladi. Formalinning biologik preparatlarni saqlashda ishlatilishi ham mana shu xossasiga asoslangan. Ba'zan, formalin urug'larni dezinfeksiyalashda va dorilashda ham foydalilaniladi.

Atsetaldegid moddasidan, sirkə kislota, etiletsetat, metaldegid, paraldegid shuningdek etil spirti olishda foydalilaniladi.




Xloralga ishqorning suvli eritmasi ta'sir qilishi natijasida *xloroform* hosil bo'ladi. Bu usuldan sanoatda, atsetaldegid yoki etil spirtidan xloroform olishda foydalilaniladi:



Aromatik aldegidlarning vakili bo'lgan *benzaldegid*, turli bo'yoqlar, yoqimli hidli moddalar va h.k.lar olishda ishlatiladi.

Atseton - rangsiz o'ziga xos yoqimli hidga ega bo'lgan suyuqlik bo'lib, suv va organik erituvchilar bilan aralashadi. U asosan nitrotsellyuloza va atsetiltsellyuloza moddalarining erituvchilari sifatida ishlatiladi.

Tsiklogeksanon-asosan eng asosiy monomerlar hisoblanadigan kaprolaktam (kapron tolesi olinadi) hamda adipin kislotasi (neylon tolesi olinadi) olishda keng ishlatiladi:



TAYANCH SO'ZLAR

Aldegid va ketonlar, izomeriya, nomeklatura, gomologik qator, formaldegid, formalin, paraform, urotropin, atseton, kaprolaktam

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Aldegid va ketonlarning umumiy formulalarini yozing va ularning gomologik qatorlariga misollar keltiring.
2. Nima uchun aldegidlarning kimyoviy reaktsiyalarga moyilligi ketonlarga nisbatan kuchli?
3. Aldegidid va ketonlarning tabiatan o'xshashligini isbotlovchi kimyoviy reaktsiyalarni yozing.
4. Aldegid va ketonlar olishning asosiy usullarini bayon eting.
5. “*Aldol*” va “*kroton kondensatsiya*” deb qaysi kimyoviy reaktsiyalarga aytildi? Misollar keltiring.
6. C_8H_8O tarkibli birikma gidroksilamin (NH_2OH) va fenilgidrazin ($C_6H_5NHNH_2$) bilan oson reaktsiyaga kirishadi; yod va ishqor ta'sirida benzoy kislota va yodoform hosil qiladi. Shu birikmaning struktura formulasini yozing va nomlang.

[Javob: $p\text{-}CH_3C_6H_4CHO$, $p\text{-}tolilaldegid$]

7. Oksidlanganda atseton va izomoy kislotani hosil qiladigan, $NaHSO_3$ bilan reaktsiyaga kirishmaydigan $C_7H_{14}O$ tarkibli ketonning tuzilishi aniqlang. [Javob: *Dizopropilketon*]
8. C_4H_8O tarkibli modda “*kumush ko'zgu*” reaktsiyasini beradi. Bu modda PCl_5 ta'sirida $C_4H_8Cl_2$ tarkibli birikmani, katalizator ishtirokida qaytarilganda esa 1-butanolni hosil qiladi. Dastlabki moddaning tuzilishini aniqlang. [Javob: *Moy aldegid*]

11-MAVZU. KARBON KISLOTALAR

Reja:

1. Izomeriya, gomologlari va nomeklaturasi.
2. Karbon kislotalar asosiy olinish usullari.
3. Karbon kislotalar fizik va kimyoviy xossalari
4. Karbon kislotalar ishlatalishi



Karbon kislotalar deb, molekulasi tarkibida (yoki qisqacha $-COOH$) funktional guruhi tutgan birikmalarga aytildi. Bu guruh *karboksil guruhi* deb atalib, bu

guruhning nomi, uni tashkil qiluvchi ikki xil *karbonil* va *gidroksil* guruhlarining nomidan kelib chiqadi.

Karboksil guruhsidagi vodorod atomi kislotali xususiyatni namoyon qiladi. Molekulasi tarkibidagi karboksil guruhsining miqdoriga ko'ra-bir *asosli* (monokarbon), *ikki asosli* (dikarbon) va ko'p asosli (polikarbon) turlariga bo'linadi. Bundan tashqari, -COOH guruhsi yonidagi turgan *R* (radikalning) xarakteriga ko'ra, karbon kislotalar-to'yangan, to'yinmagan, aromatik va h.k turlarga bo'linishi mumkin.

Bir asosli karbon kislotalar

Tarkibida karboksil guruh (-COOH) tutgan, umumiy formulasi **RCOOH** ko'rinishda bo'lган, uglevodorodlarning hosilasi *karbon kislotalari* deyiladi.


Molekulasi tarkibidagi karboksil guruhsining soniga hamda uglevodorod radikalining tabiatiga bog'liq ravishda karbon kislotalar quyidagi sinflarga bo'linadi:

- 1) monokarbon kislotalar (to'yangan, to'yinmagan, aromatik)
- 2) dikarbon va polikarbon kislotalar (to'yangan, to'yinmagan va h.k)
- 3) karbon kislotalarning funktsional hosilalari (atsilgalogenid, angdriddlar, murakkab efirlar, amidlar, nitrillar, izotsianidlar);
- 4) tarkibida turli xil funktsional guruh tutgan karbon kislotalarning hosilalari (galogenkarbon kislotalar, gidroksikarbon kislotalar, aminokarbon kislotalar, oksokarbon kislotalar).

Monokarbon kislotalar

Monokarbon kislotalar, asosan, molekulasi tarkibidagi radikalning tabiatiga ko'ra quyidagi sinflarga bo'linadi:


- a) to'yangan monokarbon kislota (alkan va tsikloalkanlarning hosilalari) lar;




- b) to'yinmagan monokarbon kislota (olkin, olken, olkodien va boshqa to'yinmagan uglevodorodlarning hosilalari) lar;



v) aromatik monokarbon kislotalar; ArCOOH, ArCH₂COOH, ArCH=CHCOOH.





*metiletilsirkakisloota
yoki α -metilmoykisloota*



*izo-butilsirkakisloota
yoki γ-metilvaleriankisloota*

α, β-to'yinmagan karbon kislotalarni nomlashda akril kisloota asos qilib olinadi:









Ayrim monokarbon kislotalarni nomeklaturasi

Formulasi	Nomeklatura		
	Trivial	Sistematis	Boshqacha
1	2	3	4
HCOOH	<i>Chumoli kisloota</i>	<i>Metan kisloota</i>	
CH ₃ COOH	<i>Sirka kisloota</i>	<i>Etan kisloota</i>	<i>Metankarbon kisloota (bu nom ishlatilmaydi)</i>
CH ₃ CH ₂ COOH	<i>Propion kisloota</i>	<i>Propan kisloota</i>	
CH ₃ CH ₂ CH ₂ COOH	<i>Moy kisloota</i>	<i>Butan kisloota</i>	
CH ₃ CH(CH ₃)COOH	<i>Izomoy kisloota</i>	<i>2-metilpropa n kisloota</i>	
CH ₃ CH ₂ CH ₂ CH ₂ COOH	<i>Valerian kisloota</i>	<i>Pantan kisloota</i>	
CH ₃ CH(CH ₃)CH ₂ COOH	<i>Izovaleria n kisloota</i>	<i>3-metilbutan kisloota</i>	
CH ₃ C(CH ₃) ₂ COOH	<i>Pival kisloota</i>	<i>2,2-dimetilpropan kisloota</i>	<i>2-metilpropan-2-karbon kisloota</i>
CH ₃ (CH ₂) ₄ COOH	<i>Kapron kisloota</i>	<i>Geksan kisloota</i>	
CH ₃ (CH ₂) ₅ COOH	<i>Enant kisloota</i>	<i>Geptan kisloota</i>	
CH ₃ (CH ₂) ₁₄ COOH	<i>Palmitin kisloota</i>	<i>Geksadeka n kisloota</i>	
CH ₃ (CH ₂) ₁₆ COOH	<i>Stearin kisloota</i>	<i>Oktadekan kisloota</i>	


			<i>Tsiklogeksankarb on kislota</i>
$\text{CH}_2=\text{CHCOOH}$	<i>Akril kislota</i>	<i>Propen kislota</i>	<i>Etilenkarbon kislota</i>
$\text{CH}_2=\text{C}(\text{CH}_3)\text{COOH}$	<i>Metakril kislota</i>	<i>2- metilprope n kislota</i>	<i>Propenkarbon— 2-kislota</i>
	<i>Kroton kislota</i>	<i>Trans- buten-2 kislota</i>	
	<i>Izokroton kislota</i>	<i>Tsis-buten- 2 kislota</i>	
$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_7\text{C}=\text{C}(\text{CH}_2)_7\text{COOH}$	<i>Olein kislota</i>	<i>Tsis- oktadetsen -9-kislota</i>	
$\text{HC}\equiv\text{C}-\text{COOH}$	<i>Propiol kislota</i>	<i>Propin kislota</i>	<i>Atsetilenkarbon kislota</i>
	<i>Benzoy kislota</i>		<i>Benzol karbon kislota</i>
	<i>o-Toluol kislota</i>		<i>o-Toluolkarbon kislota</i>
	<i>Fenilsirka kislota</i>	<i>Feniletan kislota</i>	
	<i>Dolchin kislota</i>	<i>Trans-3- fenil- propan kislota</i>	

Ochiq zanjirli va aromatik bir asosli kislotalar tabiatda erkin holda kamroq, o'simliklar organizmida murakkab efir holida keng tarqalgan. Masalan, benzoy kislota $\text{C}_6\text{H}_5\text{-COOH}$ dastlab o'simlik smolalarini haydash usuli bilan olingan. Bir asosli kislotalar asosan sun'iy usullar bilan olinadi.




To'yingan monokarbon kislotalar, o'tkir o'ziga xos hidli rangsiz suyuqlik yoki kristalsimon ko'rinishda bo'ladi. Yuqori karbon kislotalar (C_{15} - C_{18}) kuchsiz stearin hidiga ega bo'ladi.

Quyidagi keltirilgan jadvaldan ko'rinish turibdiki, kislotalar yuqori qaynash va suyuqlanish haroratiga ega bo'ladi (hattoki, spirlarga nisbatan ham). Bu holat, kislotalar molekulasi vodorod bog'lari hisobiga kuchli assotsiatsiyalangan holatda bo'lishi bilan tushuntiriladi. Kislotalardagi vodorod bog'lar, spirlardagiga qaraganda mustahkamroq ko'rinishda bo'lishi bilan farq qiladi, buning asosiy sababi, kislota molekulasi dagi O-H bog' qutbliroq ko'rinishda bo'lischidir. Molekulalarning assotsiatsiyalanishi chiziqsimon ko'rinishda



bo'lishi bilan bir qatorda tsiklik-dimer (xarakterli) assotsiatsiyalanish holida ham bo'lishi mumkin:




Ayrim bir asosli karbon kislotalarning fizikaviy xossalari

Kislota	Formula	$T_{\text{suyuq}}^{\circ\text{C}}$	$T_{\text{gayn.}}^{\circ\text{C}}$	Nisbiy zichlik ${}^{20}\text{d}_4$	$25^{\circ\text{C}}$ da suvda dissots.konst.
1	2	3	4	5	6
Chumoli	HCOOH	+8,4	100,7	1,22	17, 7
Sirka	CH ₃ COOH	+16, 6	118,1	1,049	1,7 5
Propion	CH ₃ CH ₂ COOH	-22,0	141,1	0,99($15^{\circ\text{C}}$)	1,3
Moy	CH ₃ CH ₂ CH ₂ COOH	-7,9	163,5	0,96	1,5
Izomoy	(CH ₃) ₂ CHCOOH	-47,0	154,5	0,95	1,4
Valerian	C ₄ H ₉ COOH	-34,5	187,0	0,94	1,6


Kapron (geksan)	$C_5H_{11}COOH$	-3,9	205,8	0,92	1,3 2
Enant	$C_6H_{13}COOH$	-7,5	223,5	0,918	1,2 8
Palmitin	$C_{15}H_{31}COOH$	+64, 0	390(parch)	0,84(80^0C)	-
Stearin	$C_{17}H_{35}COOH$	+69, 4	360(parch)	0,84(80^0C)	-
Tsiklopentankarbo n		-4	215	1,05	-
Tsiklogeksankarbo n		+31	232	1,03(34^0C)	-
Benzoy		+122	249	-	6,5
Fenilsirka		+76, 7	265	-	5,6

Karboksil guruhning eng asosiy xossasi bo'lib - uning kislotali xususiyatni namoyon qilishi hisoblanadi.


Karboksil guruhdagi atomlarning bir-biriga ta'sir etishi natijasida C=O bog'lanish karbonil guruhdagiga qaraganda puxtarot, O-H bog'lanish esa spirtlarnikidan bo'shroq bo'lib qoladi.




Monokarbon kislotalar uchun ko'p qirrali reaktsion faollik xarakterli bo'lib, shulardan asosiysi bo'lib karboksil guruhsiga xos reaksiyalar (protonning birikishi va ajralishi, karbonil guruhsidagi nukleofil reaksiyalar) hisoblanadi:



Bir asosli to'yingan va toyinmagan karbon kislotalarning kimyoviy xossalari quyidagi sxemalarda keltirilgan:



Aromatik karbon kislotalarning kimyoviy xossalari quyidagi sxemalarda keltirilgan:



Chumoli kislotasi - HCOOH karbon kislotalarning eng oddiy namoyondasidir. U chumolilar organizmida, shuningdek, qichitqi o't, archa o'simliklarida, qon, muskul tarkibida ham bo'ladi.

Chumoli kislotasi - oksalat ($\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4$) kislota, etilformiat olishda, to'qmachilik sanoatida gazlamalarni bo'yashda keng ishlatiladi. Tibbiyotda chumoli kislotasining 1,25% li spirtli eritmasi bod kassaligini davolashda ishlatiladi.

Sirka kislota CH_3COOH shakarlarning sirka kislotali bijg'ish mahsulotidir. Sirka kislotaning suvdagi 3-5% li eritmasi *sirka* deyiladi va kundalik turmushimizda ovqatga qo'shimcha uchun, oziq-ovqatlarni konservalashda ishlatiladi. Tibbiyotda sirka kislota ayrim tuzlar ko'rinishida, bir qator dorivor moddalarni sintez qilishda ishlatiladi. Sirka kislotaning kaliyli tuzi - kaliy atsetat CH_3COOK o'rtamiyona siydik haydovchi vosita, sirka kislotaning qo'rg'oshinli tuzi-qo'rg'oshin atsetat ($\text{Pb}(\text{OH})\text{OOCCH}_3$) *qo'rg'oshinli sirka* deb ataladi va suyultirilgan eritma holida teri va shilliq pardalar yalig'langanida ishlatiladi.

Moy kislota $\text{C}_3\text{H}_7\text{-COOH}$ buzilib, taxir bo'lib qolgan moy va ter tarkibida sof holda uchraydi. U murakkab efir holida o'simlik moyi va hayvon yog'i tarkibida bo'ladi. Kraxmal, shakar yoki

glitserin maxsus mikroorganizmlar yordamida bijg'itilganda ham moy kislota hosil bo'ladi.

Izovalerian kislota $(\text{CH}_3)_2\text{CH}-\text{CH}_2\text{COOH}$ sof holda hamda murakkab efirlar holida "valerian" o'simligi ildizida uchraydi. U "valerian nastoykasi", "validol" va "bromizoval" kabi dorivor moddalar tarkibiga kiradi va tinchlantiruvchi ta'sir ko'tsatadi.


Benzoy kislota $\text{C}_6\text{H}_5\text{COOH}$ dorivor birkimlar, anbar moddalar va bo'yoqlar olish uchun xom ashyo hisoblanadi, shuningdek, oziq-ovqatlar uchun konservant sifatida ishlataladi.

Natriy benzoat $\text{C}_6\text{H}_5\text{COONa}$ balg'am ko'chiruvchi va kuchsiz dezinfektsiyalovchi vosita hisoblanadi.


KARBON KISLOTALARNING FUNKTSIONAL HOSILALARI

(klassifikatsiya, izomeriya va nomeklaturasi)


1. *Atsilgalogenid* (karbon kislotalarning galogenangidridlari) lar.









2. *Karbon kislotalar angdridlari*.






3. *Karbon kislotalarning murakkab efirlari, laktonlar*.







4. Karbon kislotalarning amid va imidlari, laktamlar.






chumoli kislota
amidi
(formamid)



sirka kislota
dimetil amidi
(N,N -dimetilasetamid)



ftal kislota imidi
(ftalimid)



2-piperidon
(\square -valerolaktam)

TAYANCH SO'ZLAR

Monokarbon, dikarbon va polikarbon kislotalar, izomeriya, nomeklatura, gomologik qator, aromatik, chumoli kislota, sirka, valerian kislota, validol.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. To'yinmagan karbon kislotalarning murakkab efirlariga misollar keltiring. Ularning sanoatda qanday ahamiyati bor?

- To'yingan karbon kislotalarning to'yinmagan spirtlar bilan hosil qilgan murakkab efirlariga misollar keltiring.
- Adipin kislota asosida neylon (*anid*) olinadi. Shu jarayonning kimyoviy tenglamasini yozing.
- Molekulyar formulasi $C_4H_8O_2$ bo'lgan birikma a) sodaning suvdagi eritmasi bilan reaktsiyaga kirishganda CO_2 ajraladi; b) kristall holdagi ishqor qo'shib suyuqlantirilganda propan hosil bo'ladi; c) so'ndirilgan ohak ta'sirida $C_8H_{14}O_4Ca$ tarkibli birikma hosil qiladi, u gidrolizga uchratilsa, diizopropilketon hosil bo'ladi. Shu birikmaning tuzilishini va nomini aniqlang.

[Javob: $CH_3CH(CH_3)COOH$ 2-metil propan kislota]

- Emperik formulasi $C_3H_4O_2$ ga teng, suvli eritmasi kislotali xossaga ega, bromli svjni rangsizlantiradigan va kumush oksidining suvdagi eritmasi bilan reaktsiyaga kirishib, $C_3H_3O_2Ag$ tarkibli birikma hosil qiluvchi moddaning tuzilishini aniqlang. [Javob: $CH_2=CH-COOH$]
- Tarkibida kislotada eritmaydigan 2% aralashmasi bo'lgan 4 g ruxni eritish uchun 60 ml 20% li chumoli kislota yetadimi?

[Javob: Yetadi]

- 30 g sirka kislota va zichligi 0,8 bo'lgan 37,5 ml etil spirtidan qancha sirka kislotaning etil efiri hosil bo'ladi? Efirning nazariy unumi 85% ni tashkil qiladi. [Javob: 36,8 g]
- 60 g moy kislota etil efirini olish uchun vino spirtidan qancha massa kerak? [Javob: 23,8 g]

12-MAVZU. ODDIY EFIRLAR. EPOKSIDLAR




Reja:

- Izomeriya, gomologlari va nomeklaturasi.
- Olinish usullari.
- Fizik va kimyoviy xossalari
- Ularning ishlatalishi

Oddiy efirlar-spirtlar, yenollar va fenollarning hosilalari bo'lib, bu birikmalarning gidroksil guruhsidagi vodorod atomi uglevodorod qoldiq bilan almashgan boladi.

Oddiy efirlarning quyidagi xillari mavjud bo'lishi mumkin:


- Tarkibida $C(sp^3)-O$ bog' tutgan oddiy efirlar;
 - dialkil efirlar ($C_nH_{2n+1}-O-C_nH_{2n+1}$) tsikloalkil efirlar.
 - yopiq zanjirli efirlar



va h.k.

2) Tarkibida $\text{C}(\text{sp}^2)-\text{O}$ bog' tutgan oddiy efirlar;

a) alkilalkenil efirlar (vinil efirlar);






va dialkenil efirlar (divinil efirlar) $\text{C}_n\text{H}_{2n-1}-\text{O}-\text{C}_n\text{H}_{2n-1}$;







a) alkilaril efirlar $\text{Ar}-\text{O}-\text{C}_n\text{H}_{2n+1}$;

b) diaril efirlar $\text{Ar}-\text{O}-\text{Ar}'$



3) Tarkibida $\text{C}(\text{sp})-\text{O}$ bog' tutgan oddiy efirlar, masalan, alkilalkinil efirlar $\text{R}-\text{C}\equiv\text{C}-\text{O}-\text{R}'$.




Simmetrik oddiy efirlarning nomiga *di-* old qo'shimchasini qo'shib aytildi:



Oddiy efirlarning olinish usullari quyidagi sxemalarda keltirilgan:






Oddiy efirlar (dimetilefiridan tashqari)-rangsiz, o'ziga xos hidli, past haroratda qaynaydigan suyuqliklardir.

Ayrim dialkil efirlarning fizik konstantolari.

Birikma	T _{suyuq.} °C	T _{qayn.} °C	²⁰ D ₄
CH ₃ -O-CH ₃	-138,5	-23,7	
CH ₃ CH ₂ -O-CH ₂ CH ₃	-116,3	34,6	0,714
CH ₃ CH(CH ₃)-O-CH(CH ₃)CH ₃	-60	67,5	0,726
CH ₃ -O-C(CH ₃) ₂ CH ₃		54	0,758
CH ₃ -O-CH ₂ CH ₂ OH		124,3	0,966
CH ₃ CH ₂ -O-CH ₂ CH ₂ OH		135,1	0,931
CH ₃ -O-CH ₂ CH ₂ -O-CH ₃	-58	84,5	0,863


Oddiy efirlarning reaktsion qobiliyati spirlarnikiga qaraganda ancha past bo'ladi. Kislorod-uglerod bog' ancha puxta bo'lib, qiyin uzeladi.




Dietilefir. Oson yonuvchan, bug'larining havo bilan aralashmasi portlovchan modda. Ko'pchilik organik moddalar uchun

erituvchi sifatida ishlataladi. Efir anestizirlovchi xususiyatga ega bo'lganligi sababli, meditsinada xirurgik operatsiyalarda qo'llaniladi.

Fenol va naftollarning oddiy efirlari, o'ziga xos yoqimli hidga ega bo'lganliklari uchun parfyumeriya sanoatida keng ishlataladi. Fenollarning eng asosiy efirlari bo'lib, metil (anizol) va etil (fenetol) efirlari hisoblanadi, ular - erituvchilar, bo'yoqlar sintezida, dorivor moddalar olish va h.k. larda ishlataladi. Fenollarning yon zanjirida to'yinmagan qoldiq ushlagan vakillari tabiatda keng tarqalgan bo'ladi. Masalan, *anetol* anis moyi tarkibida uchraydi:



Etilenoksidning ishlatalishi:



TAYANCH SO'ZLAR

Efir, epoksid, izomeriya, nomeklatura, gomologik qator, etilenoksid

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR


- Oddiy efirlardagi *metomeriya izomeriyasiga* misollar keltiring.
[Javob: Masalan, C_2H_6O (CH_3OCH_3 va CH_3CH_2OH)]
- Qattiq suvda sovun yaxshi ko'pirmaydi va uning "yuvish" xossasi kamayadi. Chunki, sovun gidrolizlanishi natijasida hosil bo'lgan karbon kislota suv tarkibidagi Ca^{++} va Mg^{++} ionlari bilan birikib, suvda erimaydigan tuzlar hosil qiladi. Shu holni ifoda etuvchi kimyoviy reaktsiyalar tenglamasini yozing.
- Karbon kislotalarning kontsentrlangan mineral kislotalar (masalan, H_2SO_4) ishtirokida spirtlar bilan qizdirilganda murakkab efirlar hosil qiladi (*eterifikatsiya reaktsiyasi*). Shu usul bilan a) etilatsetat; b) izobutilpentanoat; c) propilformiatni qaysi karbon kislota va spirtdan olish mumkin? Reaktsiyalar tenglamalarini yozing
- Quyidagi o'zgarishlarni amalgalashirib, reaktsiyalrning borish sharoitini ko'rsating. Har bir reaktsiyada hosil bo'ladigan oraliq va oxirgi mahsulotlarni nomlang.
 - $CH_2=CH_2 \rightarrow CH_2=CH-O-CH=CH_2$
 - $CH_3-CH_2-CH_3 \rightarrow CH_3CH(CH_3)-O-CH_2CH=CH_2$
 - $CH_3-CH_3 \rightarrow O(CH_2CH_2)_2O$
 - $CH_2=CH_2 \rightarrow CH_3-O-CH_2CH_2-O-CH_3$
- $C_5H_{12}O$ modda natriy bilan qizdirilganda reaktsiyaga kirishadi (lekin vodord ajralmaydi), ortiqcha kontsentrlangan HI bilan qizdirilganda CH_3I va $(CH_3)_2CHCH_2I$ aralashmasi hosil bo'ladi. $C_5H_{12}O$ moddaning tuzilishini aniqlang.
[Javob: $CH_3OCH_2CH(CH_3)CH_3$]
- $C_4H_8O_2$ tarkibili birikma natriy hidroksidning suvdagi eritmasi bilan birga qaynatildi va metil spirt hamda $C_3H_5O_2Na$ tarkibli birikma olindi. Dastlabki birikmaning tuzilishini aniqlang.
[Javob: $CH_3CH_2COOCH_3$]
- Efirning chiqishi, nazariy yo'l bilan hisoblangandagi chiqishiga nisbatan 85% ni tashkil etsa, 30 g sirka kislota bilan 46 g spirtdan sirka kislotaning necha gramm etil efiri olish mumkinligini hisoblab toping. *[Javob: 37,4 g]*
- Tarkibida massa jihatidan 83,4% natriy palmitat bo'lgan 100 g massali atir sovun olish uchun, tripalmitat glitserin tutgan yog'dan qanday massa olish kerak bo'ladi? *[Javob: 80,6 g]*

13 -MAVZU. KARBON KISLOTALARING MURAKKAB EFIRLARI VA LAKTONLARI


Reja:

1. Izomeriya, gomologlari va nomeklaturasi.
2. Ularning olinish usullari
3. Fizik va kimoviy xossalari
4. Ularning ishlatalishi


Murakkab efirlar, kislotalarning eng asosiy funktsional hosilalaridan biri hisoblanadi. Ularning umumiy formulasi RCOOR', ya'ni bu moddalarни, molekulasida gidrosil guruhi o'rniga alkoksil guruhi almashgan kislotalarning hosilalari deb qarash mumkin.



Murakkab efirlar tabiatda keng tarqalgan bo'lib, ko'pchilik gullar va mevalarning o'ziga xos hidlarini belgilaydi. Kichik molekulali bir atomli spirtlar va kislotalardan tashkil topgan efirlar-gullar va mevalar hidiga ega bo'lgan uchuvchan suyuqliklardir. Masalan, etilformat - *rom*, izoamilatsetat - *nok*, etilbutirat - *o'rik*, izoamilbutitat - *ananas*, izovalerian kislotaning izoamil efiri - *olma* va h.k. hidrlarga ega bo'ladi. Bu efirlarni olishning eng asosiy usuli bo'lib (*laboratoriya*), asosan karbon kislotalarning spirtlar bilan konsentrangan sulfat kislota (yoki gazsimon HCl, BF_3 va h.k) ishtirokidagi reaksiyasi hisoblanadi:



Murakkab efirlar hosil bo'ladigan reaksiyalar *eterifikatsiya reaksiyalari* deyiladi (lotinchadan *ester*-efir). Eterifikatsiya reaksiyalar qaytardir. Bu reaksiya muvozanatini murakkab efir hosil bo'lish tomoniga siljitim uchun, odatda, suvni tortib oluvchi katalizatorlar (masalan, konts. H_2SO_4) ishlataladi. Kislorodli mineral kislotalarning spirtlar bilan o'zaro ta'siridan (masalan, gletsirenni nitrolashda) ham murakkab efirlar hosil bo'ladi:




Eng oddiy bir asosli kislota va spirtlarning murakkab efirlari suvdan yengil suyuqliklar, uchuvchan va ko'p hollarda xushbo'y hidli moddalar bo'ladi.


Ayrim murakkab efirlarning fizik konstantalari

Efirning nomi	Formulasi	T_gayn. °C	d^t g/sm³	Xidi
Etilformiat	HCOOC_2H_5	54,3	$0,917^{20}$	Meva
Izoamilformiat	$\text{HCOO}(\text{CH}_2)_2\text{CH}(\text{CH}_3)_2$	123,5	$0,87^{20}$	Olxo'ri
Etilatsetat	$\text{CH}_3\text{COOC}_2\text{H}_5$	77,1	$0,90^{20}$	Xushbo'y
Butilatsetat	$\text{CH}_3\text{COO}(\text{CH}_2)_3\text{CH}_3$	124	$0,88^{20}$	Ananas
Izobutilatsetat	$\text{CH}_3\text{COOCH}_2\text{CH}(\text{CH}_3)_2$	118	$0,87^{20}$	Meva
Izoamilatsetat	$\text{CH}_3\text{COO}(\text{CH}_2)_2\text{CH}(\text{CH}_3)_2$	142	$0,87^{21}$	Nok
Izoamilmpropionat	$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{COO}(\text{CH}_2)_2\text{CH}(\text{CH}_3)_2$	160	$0,86^{20}$	Nok va ananas
Etilbutirat	$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{COOC}_2\text{H}_5$	120	$0,88^{20}$	Ananas
Benzilformiat	$\text{HCOOCH}_2\text{C}_6\text{H}_5$	202	$1,08^{17}$	Giatsint va jasmine
Tsinnomilformiat	$\text{HCOOCH}_2\text{CH}-\text{CHC}_6\text{H}_5$	252	$1,09^0$	Gul
Feniletiformiat	$\text{HCOOCH}_2\text{CH}_2\text{C}_6\text{H}_5$	94 (9mm)	$1,05^{15}$	Orxideya va xrizantema
Benzilatsetat	$\text{CH}_3\text{COOCH}_2\text{C}_6\text{H}_5$	215	$1,06^{19}$	Jasmin

Karbon kislotalarning murakkab efirlari nukleofillar bilan ta'sirlashadi. Bunda alkoksiguruuhlar almashadi, ya'ni nukleofilning atsillanishi sodir bo'ladi. Ayrim hollarda nukleofillarni alkillanishi ham kuzatiladi.



Vinilatsetat $\text{CH}_3\text{COOCH=CH}_2$ oson polimerlanib, polivinilatsetatni hosil qiladi. Polivinilatsetat - kley, lok va bo'yoq materiallari ishlab chiqarishda keng ishlatiladi:



Polivinilatsetatni gidroliz (*sovunlanish*) lanish reaksiyasi mahsuloti polivinil spirti ham qimmatbaho polimer bo'lib, undan sintetik tola, plenka va klyonkalar ishlab chiqarishda keng foydalilanildi.

Sun'iy meva essensiyalari. Ko'pchilik murakkab efirlar xushbo'y hidga ega bo'lganligi sababli, oziq-ovqat va porfyumeriya sanoatida keng ishlatiladi:


HCOOC_2H_5	<i>etylformiat</i>	romli essentsiya
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{COOC}_2\text{H}_5$	<i>etylbutirat</i>	ananasli essentsiya
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{COOCH}_2\text{CH}_2\text{CH}(\text{CH}_3)_2$	<i>izoamilbutirat</i>	nokli essentsiya
$(\text{CH}_3)_2\text{CHCH}_2\text{COOR}$	<i>alkilizovaleratlar</i>	olmali essentsiya
$\text{CH}_3\text{COOCH}_2\text{C}_6\text{H}_5$	<i>benzilatsetat</i>	jasminli essentsiya

Metilakrilat $\text{CH}_2=\text{CHCOOCH}_3$, katalizatorlar ishtirotida oson polimerlanib-polimetilakrilatni hosil qiladi:




Polimetilakrilatdan plenkalar, organik oynalar va kleylar ishlab chiqariladi.

Metilmetakrilat $\text{CH}_2=\text{C}(\text{CH}_3)\text{COOCH}_3$ oson polimerlanib - polimetilmetakrilatni hosil qiladi:




Polimetilmetakrilatdan ham polimetilakrilatniki singari mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Poliefirlar. Polietilenertefatalat - tereftal kislotasining dimetil efiri va etilenglikoldan olinib, *lavsan* - sintetik tolasi ishlab chiqarishda ishlatiladi:





Ftal angidrid - glikollar, glitserin yoki pentaeritrit bilan poliftalatlar - *alkid smolalari* hosil qiladi. Glitserin bilan reaksiyada *gliftal smolasi* hosil bo'ladi:



Alkidli smolalar, laklar, bo'yoqlar tayyorlashda hamda linoleum ishlab chiqarishda bog'lovchi sifatida keng miqiyosda ishlatiladi.

Mumlar - yuqori molekulyar yog' kislolarining yuqori molekulyar spirtlar bilan hosil qilgan murakkab efirlaridir. Masalan, *asalari mumi* - palmitin kislutaning miritsil efiri bo'lsa, *spermaset* - palmitin kislutaning tsetil efiridir:




Mum ham, spermaset ham dorishunoslikda kosmetik va davolovchi surtma moylar tayyorlashda keng ishlatiladi. Ular inson va hayvon terisini muhofaza qiladi, hamda o'simliklarni qurib qolishdan saqlaydi.

Yog'lar

O'simlik va hayvon yog'larining eng asosiy tarkibiy qismi bo'lib, glitserin (uch atomli spirt) ning yuqori molekulyar to'yingan va to'yinmagan yog' kislotalar bilan hosil qilgan murakkab efirlari hisoblanadi.

Yog'lar tarkibida to'yingan kislotalardan moy (C_4), kapron (C_6), kapril (oktan) (C_8), kaprin (dekan) (C_{10}), laurin (C_{12}), palmitin (C_{16}), stearin (C_{18}) va araxin (C_{20}) kislotalari uchraydi. To'yinmaganlardan esa - palmitoolein, olein, linol va linolen kislotalar uchraydi.

Yog'simon mevaga ega bo'lган o'simliklar tarkibida asosan to'yinmagan olein kislota (olivka yog'ida 80% gacha, pista yog'ida 36% gacha) bo'ladi. Odamning yog'i 70% olein va 25% gacha palmitin kislotasidan tashkil topgan.



glitserinning oleopalmitostearati deb nomlanadi. Bu yog' halqaro nomlar majmuida 1-olenoil-2-stearoil-3-palmitoilglitserin deyiladi.

Ayrim oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi o'rtacha yog'larning miqdori.



Mahsulot	100 g mahsulot tarkibidagi yog'ni massasi, g da	Mahsulot	100 g mahsulot tarkibidagi yog'ni massasi, g da
Sut	3,8	O'simlik yog'i	99,9
Pishloq	33,0	Kartoshka	0
Tuxum	10,9	Qovurilgan yeryong'oq	49,0
Jo'ja go'shti	17,7	Oq non	1,7
Sariyog'	82,0		

Yog'lar organizmda muhim biologik vazifani bajaradi. Ular organizm uchun energiya manbai bo'lib, organizmda 1 g yog' oksidlanishi natijasida 39 kJ energiya ajralib chiqadi, bu qiymat, uglevodlar va oqsillar oksidlanganida ajralib chiqadigan energiyadan ancha ko'pdir (yog'lar asta-sekin oksidlanish natijasida CO_2 va H_2O hosil bo'ladi).


Yog'larni tabiiy manbaalar (hayvon va o'simliklar) dan olinadi. Yog'larni sintez qilib olish iqtisodiy jihatdan foydasizdir.

Yog'lar suvda erimaydi, organik erituvchilarda, masalan, dietil va petroley efirlarda yaxshi eriydi. Ayrim yog'lar oddiy haroratda qattiq moddalar (masalan, qo'y va mol yog'i), boshqalari yumshoq (sariyog'), hatto suyuq holda (masalan, o'simlik moyi, baliq moyi) bo'ladi. Odatda, suyuq yog'lar *moylar* deb yuritiladi.


Yog'larning gidrolizlanishi. Gidrolizlanish yoki sovunlanish, yog'larning eng muhim xossasidir. Yog'larni gidrolzlash yordamida ularning tuzilishi o'rganiladi, xalq xo'jaligi uchun qimmatbaho mahsulotlar (*sovunlar*) olinadi. Gidroliz -organizmada yog'lar metabolizmining birinchi bosqichidir.



Inson va hayvon organizmida gidroliz *lipaza* deb ataluvchi fermentlar yordamida boradi. Gidroliz mahsulotlari ichak pardalariga shimalib, so'ngra undan shu organizmga mansub bo'lgan boshqa yog'lar sintez bo'ladi:



Yog'larni gidrogenlash. Suyuq yog'lar, ya'ni moylar katalizatorlar yordamida vodorodni biriktirib qattiq yog'larga aylanadi. Bu usul *yog'larni gidrogenlash* deyilib, uni birinchi marta S.A.Fokhin sanoatda amalga oshirgan. Reaksiya 160-200°C da, 2-15 atm. bosimda nikel katalizatorligida boradi:



Shu usul bilan o'simlik moylaridan olingen qattiq yog'lar *solomaslar* deyiladi. Bu yog'lar tozalanib sut, tuxum, darmondori va boshqa mahsulotlar bilan aralashtiriladi. Bunda margarin hosil bo'ladi. Mahsulotga tuxum sarig'i qo'shib sariq rang berilsa, hidи va ta'mini saryog'ga o'xshash bo'lishi uchun - diketon *diatsetil CH₃COCOCH₃* moddasi qo'shiladi.

Yog'lar asosan ovqat mahsulotlari sifatida ishlataladi. Yaqin vaqtlargacha yog'lardan sovun olishda foydalanilar edi. Lekin hozirgi vaqtda yuvish vositalari asosan neftni qayta ishlash mahsulotlaridan ishlab chiqariladi.

TAYANCH SO'ZLAR

Efir, izomeriya, nomeklatura, gomologik qator, eterifikatsiya, pereeterifikatsiya va sovunlanish (gidroliz) reaktsiyalari, essentsiya, organik shisha, smola, mum

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Mol yog'inining asosiy qismlaridan biri moy kislotaning glitserin efiridir. Shu birikmaning formulasini yozing.
2. Quyidagilardan: a) monoglitseridlarda; b) bitta kislotadan hosil bo'lgan diglitseridlarda; c) uchta har xil kislotadan tashkil topgan trigletseriflarda nechta izomer bo'lishi mumkin? Shu izomerlarning umumiy formulasini yozing.
3. Oddiy efirlar spirtlardan sulfat kislota ishtirokida olinadi. Shuni hisobga olib, quyidagi oddiy efirlar hosil bo'lish reaktsiyalari tenglamalarini yozing: a) dietilefir; b) metiletiliefir; c) dipropilefir. Reaktsiyalar borishini tushun-tiring.
4. Nega oddiy efirlar, molekulyar massasi teng bo'lgan tegishli spirtlarga nisbatan past haroratda (masalan, dietil efir 34,6°C da butil spirt esa 188°C da) qaynaydi?
5. C₅H₁₂O tarkibli izomer oddiy efirlarning tuzilish formulalarini yozing. Ularni ratsional va sistematik nomeklaturaga binoan nomlang. Oddiy efirlarda izomeriyaning qanday turlari uchraydi
6. Massasi 13,6 g bo'lgan chumoli va sirkva kislotalari aralashmasi mo'l miqdordagi etanol bilan (konts.H₂SO₄ ishtirokida) reaktsiyaga

kirishishi natijasida 20,6 g massali murakkab efirlar aralashmasi olindi. Reaktsiyaga qancha massa chumoli kislota kirishganini aniqlang. [Javob: 4,6 g]

7. Yog'larni gidrolizlash natijasida hosil bo'ladigan X (kislrodli organik modda) birikma Cu(OH)₂ bilan to'q ko'k rangli birikma beradi. Bu X modda yana propilenni katalitik oksidlash natijasida ham hosil bo'lishi mumkin. X moddasiga natriy metali ta'sir ettirilganda 70% unum bilan 4,704 l (n.sh.da) vodorod ajralib chiqqadi. Agar mahsulot unumi katalitik oksidlanishda 80% ni tashkil etsa, X moddaning berilgan namunasini olish uchun propilenning qanday massasi kerak bo'ladi?

[Javob: X-glitserin; propilen-10,5 g]

8. Massasi 43,5 g bo'lган murakkab efirga ishqorning mo'l eritmasi ta'sir ettirilganda, 58,5 g massali ikki xil to'yigan organik birikmalar aralshmasi hosil bo'ldi. Shu ajralib chiqqan moddalardan birining tuzilish formulası C₄H₁₀O (shohlanmagan normal tuzilishli) ekanligi ma'lum bo'lsa, reaktsiya ucun olingan efirning formulasini aniqlang.

[Javob: Butilatsetat]

UGLEVODLAR

Uglevodlar tabiatda keng tarqalgan bo'lib, inson hayotida muhim ahamiyatga ega. Ular oziq-ovqat tarkibiga kiradi. Insonning energiyaga bo'lган ehtiyoji ovqatlanishda ko'p miqdorda uglevodlar qabul qilish hisobiga qondiriladi. Uglevodlar-o'simliklar quruq massasining 80% va hayvon organizmlari quruq massasining 2% ini tashkil etadi. Ular eng asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bo'lib hisoblanishidan tashqari yana, sintetik tolalar, portlovchi moddalar, qog'oz va etil spirti ishlab chiqarishda muhim xom ashyo bo'lib hisoblanadi.

Bu tabiiy moddalarni 1844 yilda K.Smidt birinchi bo'lib "uglevodlar" deb nomlashni taklif etadi. ("uglevodlar" degan nomi, bu sind birikmalarining ko'pini kimyoviy tarkibi C_n*(H₂O)_m umumiy formula bilan ifodalanganligidan kelib chiqqan). Hozirgi paytda "uglevodlar" tushunchasi keng ma'noni anglatadi.

Uglevodlar quyidagi sinflarga bo'linadi:


Monosaxaridlar-gidroksidaldegidlar yoki gidroksiketonlarning kimyoviy tarkibiga ega bo'lgan moddalar bo'lib, suvli eritmalarda asosan, tautomer tsiklik ko'rinishlarda mavjud bo'ladi.

Oligosaxaridlar (grekcha oligos-kam) - suv molekulalarining chiqib ketishi hisobiga monosaxarid molekulalarining o'zaro kondensatsiyalanish mahsuloti (oddiy efirlarga o'xshash): oligosaxaridlar ichida *disaxaridlar* eng ahamiyatlisi bo'lib, ularning molekulasi ikkita monosaxarid qoldiqlaridan tashkil topgan bo'ladi.

Polisaxaridlar-ko'p miqdordagi monosaxarid molekulalarining o'zaro kondensatsiyalanib hosil bo'ladigan yuqori o'lchamli birikmalaridir.

Monosaxarid molekulasi tarkibiga kiruvchi uglerod atomlarining soniga ko'ra, ular *tetroza*, *pentoza*, *geksoza* va h.k. guruhlarga bo'linadi. Monosaxarid molekulasida aldegid yoki keton guruhi bo'lishiga ko'ra esa, ular *aldoza* va *ketoza* bo'linadi.

<i>Monosaxaridlar</i>		
<i>Tetrozalar</i> ($C_4H_8O_4$)	<i>Pentozalar</i> ($C_5H_{10}O_5$)	<i>Geksozalar</i> ($C_6H_{12}O_6$)
Eritroza	arabinoza	glyukoza
Trezoza	ksiloza	mannoza
	riboza	galaktoza
		fruktoza
<i>Disaxaridlar</i> ($C_{12}H_{22}O_{11}$)		
saxaroza	<i>Polisaxaridlar</i>	
laktoza	penzozonlar ($C_5H_8O_4)_n$	
tselobioza	tsellyuloza ($C_6H_{10}O_5)_n$	
maltoza	kraxmal ($C_6H_{10}O_5)_n$	
	glikogen ($C_6H_{10}O_5)_n$	




14-MAVZU. MONOSAXARIDLAR

Reja:


1. Izomeriya, gomologlari va nomeklaturasi
2. Monosaxaridlardan olinish usullari va kimyoviy xossalari
3. Monosaxaridlarning eng muhim namoyondalari.
4. Monosaxaridlarning ishlatalishi

Tuzilishiga ko'ra monosaxaridlardan *poligidroksialdegid* yoki *poligidroksiketonlar* bo'lib hisoblanadi. Monosaxaridlardan molekulasi xiral bo'lib, tarkibida ikki va undan ortiq assimetrik uglerod atomiga ega bolishi mumkin. Bu narsa juda ko'p miqdorda fazoviy (*optik*) izomerlar bo'lishi mumkinligini belgilaydi. Tabiiy mahsulotlardan olingan uglevodlar - *optik faol* moddalar hisoblanadi.

Monosaxaridlardan kimyoviy jihatdan *poligidroksialdegidlar* va *poligidroksiketonlar* bo'lib, ular molekulasi uchun shoxlanmagan uglerod zanjiri xususiyatlidir. Aldegid guruh saqlaydigan monosaxaridlardan *aldozalar* deb atalsa, keton guruh saqlaydigan monosaxaridlardan *ketozalar* deb ataladi. «*Oza*» - qo'shimchasi hamma monosaxaridlarning nomi uchun xosdir. Aldozalarning eng muhim vakili – *glyukoza* bo'lib hisoblansa, ketozalarniki - *fruktoza*.




Aldogeksoza, masalan, glyukoza formulasini ko'rib chiqilganda, unda to'rtta xirallik markazi borligini ma'lum bo'ladi.




Shuning uchun Vant-Goff formulasasi $N=2^n$ ga ko'ra aldogeksozalar $N=2^n=16$ ta fazoviy izomer holida mavjud bo'la


oladi. Aldogeksozalarning barcha 16 ta fazoviy izomeri ma'lum. Ulardan biri tabiiy D-glyukozadir. 16 ta fazoviy izomerdan har birining bitta *optik antipodi* (*enantiomeri*) va 14 ta *diastereomeri* bor. Mavjud 16 ta fazoviy izomerlar o'z navbatida 8 juftga bo'linadi. Har juftdag'i monosaxaridlar o'zaro antipodlar bo'lib, ulardan biri qutblanish tekisligini qancha o'ngga bursa, ikkinchisi shuncha chapga buradi. Masalan, D-va L-glyukoza (D- va L- galaktoza va h.k) lar bir-biriga nisbatan *optik antipodlari*, ular yana *enantiomerlar* deb ham ataladi (*Fisher formulalari*):



Monosaxaridlar kimyosida faqat bitta uglerod atomining konfiguratsiyasi bilan farqlanadigan diastereomerlar *epimerlar* deb ataladi. Masalan, D-glyukoza va D-mannoza C-2 ning konfiguratsiyasi bo'yicha epimer monosaxaridlardir. D-glyukoza bilan D-galaktoza esa C-4 ning konfiguratsiyasi bo'yicha epimerdirlar:





Hozirgi vaqtida A.M.Rezanovning taklifi bilan monosaxaridlar konfiguratsiyasi bo'yicha D- va L-qatorga bo'linadi (D-*dextrum*-o'ng va L-*laevus*-chap). Monosaxaridlarning konfiguratsiyasi esa D(+) va L(-) glitserin aldegidning konfiguratsiyasiga nisbatan aniqlanadi:




Monasaxaridlarning halqali shakllari va toutomeriyasi.


E.Fisherning tasviriy formulalari yordamida ochiq zanjirli monasaxaridlар ifodalanadi. Biroq monasaxaridlар halqali shakllarda ham bo'ladi. Glyukozaning halqali tuzilish formulalarini avval rus olimi A.A.Kolli (1870 y.), keyinroq esa nemis olimi B.Tollens (1883 y.) taklif etgan.






Monosaxaridlarning xalqali shakllarida qo'shimcha xirallik markazi hosil bo'ladi, chunki ilgari oksoguruh tarkibiga kirgan uglerod atomi assimetrik uglerod atomi bo'lib qoladi. Hosil bo'lgan xiral markaz *anomer* markaz deb, tegishli ikkita fazoviy izomer esa α - va β - *izomerlar* deyiladi (agar C-1 va C-2 dagi OH guruhi tekislikning bir tomonida joylashgan bo'lsa α -*anomer*, aks holda β -*anomer* deyiladi). Bu izomerlar bir-biridan fizikaviy xossalari bilan farqlanadi. Masalan, *D*-glyukopiranozaning α -*anomeri* 146^0 da suyuqlansa, β -*anomeri* esa 150^0C da suyuqlanadi.





Monosaxaridlar tabiatda erkin holda va birikmalar holda uchraydi. Masalan, glyukoza uzum va boshqa mevalar tarkibida ko'p miqdorda erkin holda uchrasa, fruktoza esa glyukoza bilan birgalikda asalda bo'ladi. Biroq, monosaxaridlarning nisbatan ko'p qismi polisaxaridlar tarkibiga kiradi.

Monosaxaridlarni olishda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy manbaa polisaxaridlar gidrolizidir. Masalan, sanoatda glyukoza ktaxmalni gidrolizlash yo'li bilan olinadi.




Monosaxaridlar kristal moddalar bo'lib, ko'pchiligi gigroskopik, suvda yaxshi eriydi. Monosaxaridlarning eritmalarini lakmusga neytral, shirin ta'mga ega. Ular spirtda yomon, efirda esa mutlaqo erimaydi.


Monosaxaridlar kristallsimon holatda faqatgina bitta forma (furanoza yoki piranoza, α - yoki β -anomer) da mavjud bo'lsa, suvdan eritilishi bilan tautomer o'zgarishlar yuzaga kelib, bu holat α - va β -formalar orasida muvozanat holati qaror topguncha davom etadi. Bunda xususiyatga mutoratatsiya deviladi.

Ma'lumki har bir monosaxarid eritmada har xil tautomer shakllarda bo'ladi. Shuning uchun ham kimyoviy reaksiyalarda reaksiya sharoitiga hamda ta'sir qilayotgan reagentning tabiatiga qarab monosaxaridlarning formulasi u yoki bu shaklda ifodalanadi.


Glikozidlarni hosil bo'lishi.




Oddiy va murakkab efirlarning hosil bo'lishi.




Oksidlanish reaksiyalari.



Aldozalar tarkibida mis (II)-katoni saqlovchi *Feling suyuqligi* bilan ham oksidlanish-qaytarish reaksiyasiga kirishadi.




Qaytarish reaksiyalari.



Shunga o'xshash glyukoza qaytarilganda *sorbit*, mannoza qaytarilganda esa *mannit* hosil bo'ladi.

Fenilgidrazon bilan reaksiyasi. Glyukozani mo'l miqdordagi fenilgidrazin bilan qo'shib qizdirilganda *ozazonlar* hosil bo'ladi.



Bijg'ish reaksiyaları. Geksozalar uchun bijg'ish reaksiyaları xarakterli bo'lib (pentozalar bijg'ish reaksiyalariga kirishmaydi), bu reaksiyalar biologik katalizator - *fermentlar* ta'sirida amalga oshadi. Masalan, glyukoza to'rt xil bijg'ishiga mayilligi bor:

a) *spiritli bijg'ish:*



b) *sut kislotali bijg'ish:*



c) *moy kislotali bijg'ish:*






d) *limon kislotali bijg'ish:*






Pentozalar

D-ksiloza (yog'och shakari) - yog'och, poxol, bug'doy somoni yoki kungaboqar sheluhasi tarkibidagi *ksilanlarning* ($C_5H_8O_4$)_n gidrolizlanishi natijasida hosil bo'ladi:



□-*D*(+)-*ksilopiranoza*

D-Riboza qoldiqlari g'oyat katta biologik rol o'ynovchi oqsil yadroisi - nukleoproteidlar, nuklein kislotalar va boshqa ba'zi bir moddalar tarkibiga kiradi:






□□-*D*-ribofuranosa

Geksozalar.

D-Glyukoza. (uzum shakari yoki dekstroza) erkin holda faqat o'simliklarda emas, balki hayvonlar organizmida ham uchraydi. Shuningdek, glyukoza lavlagi shakari, sut shakari tarkibiga kiradi. Kraxmal, glikogen va tsellyuloza kabi yuqori molekulyar polisaxaridlar esa o'zaro har xil usulda birikkan glyukoza qoldiqlaridan iborat.




Tibbiyotda sof glyukoza eritmalar holida, ba'zi bir kasalliklarda qonga yuborish uchun, shuningdek, tabletkalar ishlab chiqarishda qollaniladi.

D-Galaktoza. Glyukozaning tabiatda keng tarqalgan fazoviy izomeridir. U glyukozadan faqat to'rtinchi ugleroddagi atomlar guruhining joylanishi bilan farqlanadi:



$\square \square$ -D-galaktopiranoza

D-Mannoza - glyukozaning fazoviy izomeri bo'lib, undan faqat ikkinchi ugleroddagi atomlar gruhining joylanishi bilan farqlanadi:



$\square \square$ -D-mannopyranoza

D-Fruktoza. (meva shakari, levuloza) shirin mevalar, qamish shakar va asal tarkibida glyukoza bilan birgalikda uchraydi. Fruktoza ayrim o'simliklarda uchraydigan polisaxarid - *inulin* tarkibiga ham kiradi va asosan uni gidrolizlab olinadi.


Fruktozani boshqa monosaxaridlardan ajratib turadigan o'ziga xos reaksiya - *Selivanov reaksiyasidir*: fruktoza eritmasini kuchli xlorid kislota va rezorsin ishtirokida qizdirilsa, eritma tezda to'q qizil rangga bo'yaladi.

DISAXARIDLAR

Shakarsimon polisaxaridlар jumlasiga, molekulasi oltitagacha monosaxarid qoldig'idan tashkil topgan uglevodlar kiradi. Shakarsimon polisaxaridlarning ikkinchi nomi - *oligosaxaridlар* (grekcha *oligos*-ko'p bo'lman) shundan kelib chiqqan. Bundan eng ahamiyatlisi *disaxaridlар* yoki *diozalardir*.


Disaxaridlар molekulasiда bir nechta ozod spirt gidroksillari mavjud bo'lгани uchun ular ko'p atomli spirlarning xossalalarini



qaytaradi: mis (II)-gidroksidni eritib ko'k rangli eritma hosil qiladi, oson metillanadi va atsetillanadi.




Кўп тарқалган дисахаридлар: (a)-**малтоза** ($1\text{-}\square\text{-D-глюкопиранозил-4}\text{-}\square\text{-D-глюкопираноза}$); (b)-**целлобиоза** ($\square\text{-D-глюкопиранозил-}\square\text{-D-глюкопираноза}$); (c)-**лактоза** ($1\text{-}\square\text{-D-галактопиранозил-4-D-глюкопираноза}$); (d)-**сахароза** ($1\text{-}\square\text{-D-глюкопиранозил-2}\text{-}\square\text{-D-фруктофураноза}$); (e)-**трегалоза** ($1\text{-}\square\text{-D-глюкопиранозил-1}\text{-}\square\text{-D-глюкопираноза}$).

Maltoza yoki solod shakari. Maltoza ayrim bir o'simliklar tarkibida oz miqdorda uchraydi. Maltoza kraxmalga solod (undirilgan bug'doy maysasi) tarkibidagi diastaza fermenti ta'sir ettirilganda hosil bo'ladi, shuning uchun u yana *solod shakari* deb ham ataladi:






Sellobioza - rangsiz kristalsimon modda bo'lib, suvda yaxshi eriydi, eritmalarda *mutoratatsiya hodisasi* kuzatiladi. Sellobiozani yana boshqacha $4-(\beta\text{-D-glyukopiranozido})-(\alpha\text{ yoki }\beta\text{-D-glyukopiranoza}$ deb ham ataladi. Uning molekulasidagi bitta glyukoza qoldig'i maltoza molekulasidagiga qaraganda 180° ga qayrilgan holatda bo'ladi.




Tsellobioza - faqatgina tsellyulaza fermenti yoki kislota ta'siridagina glyukozagacha gidrolizlanadi, boshqa fermentlar ta'siriga chidamlı bo'lib, spirli bijg'ish kuzatilmaydi (etyl spirit hosil qilmaydi). Odam organizmida tsellobioza parchalanmaydi, shuning uchun oziq-ovqat sifatida ishlatilib bo'lmaydi.

Laktoza (sut shakari). Bu disaxaridlarning nomi uni sutdan olinishi tufayli kelib chiqqan (lotincha *lactum* - sut). U sigir suti tarkibida 4-5,5%, ayollar sutida 5,5-8,4% bo'ladi. Laktoza β -D-galaktoza va glyukozadan tashkil topgan. α - va β - laktozalar mavjud bo'lib, shulardan α -laktoza oson kristallanish xususiyatiga ega bo'ladi. Laktozani yana boshqacha $4-(\beta\text{-D-galaktopiranozido})-(\alpha\text{ yoki }\beta\text{-D-glyukopiranoza}$ deb ham nomlash mumkin:



Laktoza boshqa disaxaridlarga nisbatan suvda yomon eriydi, saxarozagaga nisbatan shirinligi 5 marta kam bo'ladi. Laktoza spirtli bijg'ishga uchramaydi. Maxsus sut kislotali zamburug'lar ishtirokida sut kislotosi hosil bo'ladi.

Saxaroza (qamish yoki lavlagi shakari), shakar qamishda va qand lavlagida juda keng tarqalgan (quruq massaga nisbatan 28% gacha saqlanadi). Bundan tashqari u palma mevasida, jo'horida ham ko'p miqdorda saqlanadi. Qand eramizgacha 300 yil oldin qadimgi Hindistonda ma'lum bo'lgan. Lavlagi tarkibida saxaroza birinchi marta Saxaroza molekulasi α -glyukopiranoza va β -fruktofuranozalardan tashkil topgan.



Saxarozaning suvli eritmali kislota ishtirokida qo'shib qaynatilganda gidrolizga uchrab glyukoza va fruktozalarning aralashmasi (*sun'iy asal*) hosil bo'ladi.

Quyida tabiatda uchraydigan saxarozaning turli xil sterioizomerlari keltirilgan:

glyukoza(1 \square)-(2 \square)fruktoza
glyukoza(1 \square)-(2 \square)fruktoza
glyukoza(1 \square)-(2 \square)fruktoza
glyukoza(1 \square)-(2 \square)fruktoza

TAYANCH SO'ZLAR

Monosaxarid, izomeriya, nomeklatura, gomologik qator, aldegidospirt va ketospirt, aldoza va ketoza, optic antipod (enantiomer), diasteriomeric, epimer, anomeric, mutarotatsiya, glikozid, poliatsetal OH-guruh, Feling suyuqligi, ferment, bijg'ish. Disaxarid va oligosaxarid, izomeriya, nomeklatura, gomologik qator, qaytariladigan va qaytarilmaydigan disaharidlar, mutarotatsiya

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Uglevodlar - aralash funksiyali birikmalar ekanligini qaysi reaktsiyalar orqali isbotlash mumkin?
2. Monosaxaridlarni polisaxaridlardan qaysi xossalariiga asoslanib bir-biridan farq qilish mumkin?
3. Tabiatda uglevodlar *fotosintez jarayoni* natijasida hosil bo'ladi. Fotosintez jarayonining mohiyatini tushuntiring.
4. “*Mutoratatsiya hodisasi*”ning qanday amaliy ahamiyati bor? U asosan qaysi sind birikmalariga xos? Nima uchun?
5. Monosaxaridlarga quruq HCl ishtirokida metil spirt ta'sir ettirilganda qanday mahsulotlar hosil bo'ladi?
6. Gidroliz zavodida yog'och qipig'idan bir sutkada 80 t 90% li etil spirt olinadi. Shu texnologik jarayonda ajralib chiqadigan uglerod (IV)-oksidning hajmini aniqlang. [Javob: 35068 m^3]
7. Tolalari destruksiyalangan 40 g paxtadan (95% tsellyuloza) 19 g glyukoza olingan. Glyukozaning protsent hisobidagi unumini toping. [Javob: 45,02%]
8. Tarkibida 26% kraxmal bor bir tonna kartoshkadan qancha glyukoza hosil bo'ladi? Shu kraxmaldan qancha litr spirt olish mumkin? [Javob: Glyukoza 633,3 kg; spirt 323,6 kg]

15-MAVZU. POLISAXARIDLAR

(Kraxmal, Tsellyuloza)

Reja:


1. Gomologlari va nomeklaturasi
2. Ularning olinish usullari
3. Ularning kimyoviy xossalari
4. Ularning ishlatalishi

Polisaxaridlар tabiiy yuqori molekulyar birikmalar hisoblanib, ularning makromolekulalari juda ko'p miqdordagi monosaxarid molekulalaridan tashkil topgan bo'lib, ular o'zaro glikozid bog'lar hisobiga bog'langan bo'ladi.

Yuqori molekulyar polisaxaridlар zanjiri shoxlangan yoki shoxlanmagan (chiziqsimon) bo'lishi mumkin.


Kraxmal.

Kraxmal ($C_6H_{10}O_5$) - fotosintez mahsuloti hisoblanib, yashil barglarda donachalar ko'rinishida bo'ladi. O'simlikdan ajratib olingan kraxmal amorf ko'rinishidagi oq kukunsimon modda. Uni suvg'a solib ivitilsa, kolloid eritma - *kleystr* hosil bo'ladi. Kraxmal eritmasi qutblangan nur sathini o'ngga buradi, uning solishtirma buruvchanligi $[\alpha]_D=+195^0$ ga teng. Kraxmalni tez qizdirilsa, undagi gigroskopik nam (10-12%) hisobiga makromolekula zanjirining kichikroq qoldiqlariga gidrolitik parchalanishi sodir bo'ladi va *dekstrinlar* deb ataladigan polisaxaridlar aralashmasi hosil bo'ladi.




Kraxmal murakkab tuzilishga ega, u D-glyukopiranoza qoldiqlaridan tashkil topgan ikkita gomopolisaxarid - *amiloza* (20-30%) va *amilopektin* (70-80%) dan tashkil topgan.


Amiloza molekulasiida 90-470 α -D-glyukopiranoza qoldiqlari α -1,4-glyukozid bog'lari orqali bog'langan, uning molekulyar og'irligi 32000-160000 oralig'ida bo'ladi. Amiloza zanjiri shoxlanmagan ko'rinishga ega. Quyida amiloza molekulasinging qisqartirilgan formulasi keltirilgan:



Amilopektin amilozadan farqli ravishda shoxlangan tuzilishga ega. Asosiy zanjirida D-glyukopiranoza qoldiqlari α -1,4-glyukozid bog'lar orqali birikkan. Biroq tarmoqlanish nuqtalarida α -1,6-glyukozid bog' ham mayjud bo'lib, bunda bir α -D-glyukopiranoza qoldig'ining birinchi uglerod (C1) atomi boshqa α -D-glyukopiranoza qoldig'ining oltinchi uglerod (C6) atomi bilan bog'langan bo'ladi. Amilopektinning tuzilishini quyidagicha sxematik



yoki Xeuors formulasi yordamida tasvirlash mumkin:



Amilopektin molekulasidagi tarmoqlanish nuqtalari orasida taxminan 20-25 ta D-glyukopiranoza qoldiqlari joylashadi. Alilopektinning molekulyar massasi 100000 dan 6 mln. gacha bo’ladi.

Alilopektin yod bilan qizg'ish binafsha rang beradi.


Kraxmal turli-tuman maqsadlarda ishlataladi. U odamlar ovqatidagi-non, don mahsulotlari, kartoshkadagi asosiy mahsulot hisoblanadi. Anchagina miqdori qayta ishlanib qandolatchilida foydalaniladigan dekstrinlar, patoka va glyukozaga aylantiriladi. Kartoshka va boshqolilar donidagi kraxmaldan etil spirt olinadi. Kraxmaldan yelimlovchi vosita sifatida foydalaniladi. Gazlamalarga pardoz berishda, kiyim-kechakni kraxmallashda ishlataladi. Tibbiyotda kraxmal asosida malham dorilar, sepki dorilar va boshqalar tayloranadi.

Tsellyuloza (yoki kletchatka) ($C_6H_{10}O_5$)_n:


Tsellyuloza ham tabiiy yuqori molekulyar polisaxarid bo'lib, barcha o'simliklar tarkibiga kiradi va ularda hujayra qobiqlarini hosil qiladi. Yog'och o'z tarkibida 50-70% tsellyuloza saqlaydi. Zig'ir va kanop tolasi ham asosan tsellyulozadan tashkil topgan. Paxta tolasining 92-96% tsellyulozadan iborat.

Tsellyuloza suyuqlanmaydi ham, bug'simon holatga ham o'tmaydi: 350°C ga qadar qizdirilganda parchalanadi - *ko'mirlanadi*. Sof tsellyuloza - suvda va odatdag'i organik erituvchilarda erimaydigan oq qattiq modda, mis (II)-gidroksidning ammiakdag'i eritmasi (*Shveytser reaktiv*) da yaxshi eriydi. Bu eritmadan kislotalar tsellyulozani tolalar holida (*gidrattsellyuloza*) cho'kmaga tushiradi.

Tsellyuloza to'liq gidrolizlanganda β -D-glyukopiranoga hosil bo'ladi. Makromolekulada D-glyukopiranoga qoldiqlari o'zaro β -1,4-glyukozid bog'lar orqali bog'langan. Tsellyulozaning makromolekulasi shoxlanmagan bo'lib, unda 2500 dan 12000 gacha β -D-glyukopiranoga qoldiqlari bo'lib, molekulyar massasi 400000 dan 1-2 mln. gacha boradi. Quyida tsellyuloza molekulasi bir qismining tuzilishi va undagi vodorod bog'larini ko'tsatilgan:




Tsellyuloza CS_2 (*uglerod disulfid*) ishtirokida ishqor eritmalarida eriydi, bunda *ksantogenatlar* hosil bo'ladi:



Olingan eritma (*viskoza*) ga kislota qo'shilganda tsellyuloza olinadi. Viskoza eritmasini kichik tirkish (*filera*) lar orqali kuchli kislotalarning suvli eritmalariga siqib chiqarilsa, ingichka iplar hosil bo'ladi, bu iplarni yigirish orqali sun'iy tola - *viskoza tolesi* olinadi. Viskoza eritmasini maxsus tirkishlar orqali siqib chiqarib esa shaffof plenka - *tsellofan* olinadi.


Xuddi shunga o'xshash sun'iy tolani tsellyulozaning *Shvetser eritmasi* dagi aralashmasidan olish mumkin (*mis-ammiakli tola*). Bunday usulda olingan tola sifat jihatidan bir muncha yutuqqa ega bo'lishi bilan birga narxi yuqori.

Tsellyulozaning sirkasining angdridi bilan ta'sirlashishi natijasida (sul'fat yoki sirkasining kislotasi ishtirokida) *diatsetat* yoki *triatsetat* tsellyuloza hosil bo'ladi:



Atsetiltsellyuloza (diatsetat yoki triatsetattsellyuloza) lar turli organik erituvchilarda eriydi, ulardan sun'iy tola - *atsetat tola* va yonmaydigan kino va fotoplyonkalar ishlab chiqariladi.


Tsellyuloza svnvi tortib oluvchi vosita sifatidagi konsentrangan sulfat kislota ishtirokida konsentrangan nitrat kislota bilan o'zari ta'sir ettirilganda murakkab efir - tsellyuloza trinitrati hosil bo'ladi, bu reaksiya bosqichma-bosqich boradi:



Nitrotsellyuloza organik erituvchilarda eriydi. Tarkibida kam miqdorda azot ushlagan (*mononitrotsellyuloza*) mahsulotlardan nitrotsellyulozalı loklar ishlab chiqarishda, tarkibida ko'proq miqdorda azot (*dinitrotsellyuloza*) ushlagan reaksiya mahsulotlarini etanol va dietil efirli eritmali olinib, bug'latilgandan keyin turli xil plenka (*kolloksilin* va *kollodiy*) lar olishda ishlatiladi.

Tarkibida maksimal miqdorda azot (*trinitrotsellyuloza*) tutgan mahsulot *piroksilin* deb atalib, undan o'q-dori taylorlashda portlovchi modda hamda farmatsevtikada dori tayyorlashda ishlatiladi.

Kraxmal kabi tsellyuloza ham suyultirilgan kislotalar bilan qizdirilganda gidrolizlanadi va glyukoza hosil qiladi:



Tsellyuzaning gidrolizi *shakarlanish* ham deyiladi va tsellyuzaning juda muhim xassasi hisoblanadi, u yog'och qipig'i va qirindilaridan glyukoza olishga imkon beradi, glyukozani bijg'itish yoli bilan esa etil spirt olinadi. Yog'ochdan olingan etil spirti *gidroliz spirti* deyiladi.

Gidroliz zavodlarida 1 t yog'ochdan 200 l gacha etil spirti olinadi, bu esa 1,5 t kartoshkani yoki 0,7 t donni tejashga imkon beradi.

TAYANCH SO'ZLAR


Amiloza va amilopektin, dekstrin, izomeriya, nomeklatura, gomologik qator, tsellofan, Shvetser eritmasi, mis-ammiakli tola, kolloksilin va kollodiy, piroksilin.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. D-mannozaning uchta tautomer shakli - aldegidli va ikkita pironozali tuzilish formulalarini yozing va ularni nomlang.
2. Trisaxarid - kislotali gidroliz qilinganda 2:1 nisbatda D-glyukoza va D-galaktoza, to'liq metillab so'ngra gidroliz qilinganda esa 2,3,6-tri-*o*-metilgalaktoza, 2,3,4,6-tetra-*o*-metil glyukoza va 2,3,4-tri-*o*-metil glyukoza hosil bo'ladi. Trisaxaridning sistematik nomeklatura bo'yicha nomini ayting.

[Javob: 4-*o*-D-glyukozil-6-*o*-D-galaktazil-D-glyukoza yoki 6-*o*-D-glyukozil-4-*o*-D-glyukozil-D-galaktoza]

3. Massasi 9 g bo'lgan glyukoza, ishqoriy sharoitda mis (II)-gidroksid bilan reaktsiyaga kirishib mis glyukonatni hosil qiladi.



Reaktsiya natijasida hosil bo'ladigan mis glyukonatning massasini aniqlang.

4. Quyidagilar: a) glyukoza; b) yog' to'liq yonganda hosil bo'ladigan gaz, sarf bo'lgan kislorodga nisbatan qanday hajmiy nisbatda bo'ladi? (Soddalashtirish maqsadida yog' sof trioleatdan iborat deb hisoblang). Olingan qiymatlarni quyidagi kuzatishlardan olingan ma'lumotlar bilan solishtirib ko'ring: a) hayvonning muskuli zo'r berib ishlaganida 1 minut ichida 4,51 ml kislorodd yutgan va 5,40 ml karbonat angidrid chiqargan; b) hayvon och qolganida 1 minutda 1,8 ml kislorod yutib, 1,26 ml karbonat angidrid chiqargan. Birinchi va ikkinchi holda qaysi moddalar ko'proq oksidlangan - uglevodorodlarmi yoki yog'larmi?

5. Massasi 36,6 g bo'lgan glitserin, fenol va glyukoza aralashmasiga mis (II)-gidroksid ta'sir ettirilganda 38 g massali ko'k rangli cho'kma hosil bo'ladi. Shu aralashmaga kumush (I)-oksidi ta'sir ettirilganda 21,6 g massali kumush cho'kmaga tushdi. Aralashmaning tarkibini foizlarda ifodalang. [Javob: 49,2% glyukoza; 25,7% fenol; 25,1% glitserin]

6. Quyidagilar: a) zig'ir tolasidagi ($M=586602$ g/mol); b) paxta tolasidagi ($M=7538508$) tsellyuloza molekulasida nechta $\text{C}_6\text{H}_{10}\text{O}_5$ zvenolar borligini hisoblab toping. [Javob: a) ~3621; b) ~46602]

AZOTLI ORGANIK BIRIKMALAR

16-MAVZU. Nitrobirkimlar


Reja:

1. Izomeriya, gomologlari va nomeklaturasi
2. Nitrobirkimlar olinish usullari
3. Nitrobirkimlar fizik va kimyoviy xossalari
4. Nitrobirkimlarning asosiy namoyondalari va ularning ishlatalishi


Molekulasida uglerod atomida nitroguruh $-NO_2$ bo'ladigan organik moddalar *nitrobirkimlar* deyiladi. Nitroguruhdag'i azot atomi, nitrat kislota efirlaridan farq qilib, bevosita uglerod atomi bilan bog'langan bo'ladi, masalan:




- 1) Nitroalkan va nitrotsikloalkanlar ($C(sp^3)-NO_2$ bog'li birikmalar):




- 2) Nitroalkenlar ($C(sp^2)-NO_2$ bog'li birikmalar):





- 3) Nitroarenlar ($C(sp^2)-NO_2$ bog'li birikmalar):




1-nitropropan




2-nitrobutan




3-nitro-1-propanol




1-chloro-3-nitropropan



Nitrobirikmalar alkan (alken, aromatik uglevodorod) larni to'g'ridan-to'g'ri nitrolash va noorganik nitritlarlarni alkillash, hamda, kamdan-kam holatlarda boshqa azot saqlovchi moddalar (nitrozobirikmalar, aminlar) ni oksidlash orqali olinadi.



Aromatik yadrodag'i vodorod atomining nitroguruhga almashinishi boshqa mexanizm va umuman boshqa sharoitda boradi.




Nitrobirikmalarning juda ko'p qismi suyuqlik bo'lib, yuqori haroratda qaynash xususiyatiga ega. Di- va polinitrobirikmalar - qattiq moddalardir. Juda toza holda nitrobirikmalar rangsiz bo'ladi,


lekin barcha nitrobirikmalar tarkibida turli xil qo'shimcha moddalar bo'ladi, bu moddalar ularga sarg'ish rang beradi.

Nitrobirikmalarning fizikaviy xossalari.


Birikma	T _{suyuq.} °C	T _{qayn.} °C	Nisbiy zichlik d _{20/4}	20°C da 100 ml suvda eruvchanlik (g da)
Nitrometan	-28,6	101	1,138	9,5
Nitroetan	-89,5	114	1,051	4,5
Nitropropan	-104	131	1,001	1,4
Nitrobenzol	+5,8	211	1,223	0,2
□-nitronaftalin	+57,8	304	-	Umuman erimaydi

Nitroalkanlarning kimyoviy xossalari, birinchidan, nitroguruhga tegishli reaksiyalar (*qaytarilish, gidrolizlanish*) va ikkinchidan α -uglerod atomlarining reaksiyalarini bilan belgilanadi:






Nitroguruh yadrodagи elektronlarni o'z tomoniga tortib *orto*- va *para*- holatlarda turgan hidroksil guruhlarning kislotalik xossalariни kuchaytiradi, masalan:



Eng asosiy namoyondalari


Tetranitrometan ($\text{C}(\text{NO}_2)_4$) - suyuqlik, 126°C da qaynaydi, raketa yoqilg'ilarini uchun oksidlovchi sifatida foydalilanadi. Bu modda sirka angdridi yoki atsetilendan olinadi:




Nitrotsiklogeksan - suyuqlik, 205°C da qaynaydi. Nitrotsiklogeksandan - tsiklogeksanonoksim olinadi, undan esa kapron olish uchun xom ashyo hisoblangan kaproloktem olinadi.

Nitrobenzol - rangsiz suyuqlik (ko'pincha qo'shimchalar bilan sariq rangga bo'yalgan bo'ladi), T_{qayn} , d_4^{20} , 1,203. Asosan anilin $\text{C}_6\text{H}_5\text{NH}_2$ (qaytarib) olishda ishlatiladi.


Nitrotoluollar



O-nitrotoluol
($T_{\text{suyuq}} -3^{\circ}\text{C}$)
($T_{\text{qayn}} 222^{\circ}\text{C}$)




m-nitrotoluol
($T_{\text{suyuq}} 16^{\circ}\text{C}$)
($T_{\text{qayn}} 233^{\circ}\text{C}$)



p-nitrotoluol
($T_{\text{suyuq}} 52^{\circ}\text{C}$)
($T_{\text{qayn}} 238^{\circ}\text{C}$)

Nitrotoluollani qaytarish orqali tegishli aminlar olinadi, ularni esa keyinchalik bo'yoqlar sintezida foydalaniladi.

Trinitrotoluol (trotil, tol) - toluolni to'liq nitrolash reaksiyasi mahsuloti.



Bu qattiq modda ($T_{\text{suyuq}} 80^{\circ}\text{C}$) - eng ko'p tarqalgan portlovchi moddalardan biri. Undan turli o'q-dorilar ishlab chqarishda foydalaniladi.

α -*Nitronaftalin* - qattiq modda, $T_{\text{suyuq}} 61^{\circ}\text{C}$. Naftalinni nitrolash nitijasida oson hosil bo'ladi, uni qaytarib α -naftilamin olinadi. α -naftilamin - naftalinning boshqa α -almashingan hosilalarini olishda ishlatiladi.

TAYANCH SO'ZLAR

Nitroalkan va nitrotsikloalkanlar, izomeriya, nomeklatura, gomologik qator, nitrolovchi agent, trotil yoki tol


SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Yoqilg'ini yondirishda oksidlovchi sifatida metanning hosilasi - tetranitrometan ishlatiladi. Shu birikmaning formulasini yozing.

2. Aminning proton biriktirib olish hususiyatiga sabab nima?
3. Anilinga ozroq aralashgan fenolni qanday oddiy usulda ajratib olish mumkin?
4. Nitrobenzolni vodorod sulfid bilan qaytarib, anilin olish (N.N.Zinin) reaktsiyasi tenglamasini yozing.

[Javob: $C_6H_5NH_2 + 3H_2S \rightarrow C_6H_5NH_2 + 2H_2O + 2S$]

5. Quyidagi reaktsiyalarни amalga oshirib oxirgi mahsulotni nomlang:



[Javob: *N*-metil-*N*-etilanilin]

6. $C_5H_{13}N$ tarkibli birikma xlorid kislota bilan tuz hosil qiladi, uning nitrit kislota bilan reaktsiyasi natijasida esa azot ajraladi va $C_5H_{12}O$ birikma hosil bo'ladi. $C_5H_{12}O$ oksidlanganda keton, unga kuchli oksidlovchilar ta'sir ettirilganda sırka va propion kislotalari hosil bo'ladi. Bu moddaning tuzilishini aniqlang. Reaktsiyalar sxemalarini yozing. [Javob: 3-pantanamin]

7. $C_9H_{11}NO$ tarkibli modda mineral kislotalar (HCl ; H_2SO_4) bilan reaktsiyalarga kirishmaydi. Kaliy permanganat ta'sirida u $C_9H_9NO_3$ gacha oksidlanadi. $C_9H_9NO_3$ ni ishqor ta'sirida gdroliz qilib, so'ngra unga sırka kislota ta'sir ettirilganda *p*-aminobenzoy kislota hosil bo'ladi. $C_9H_{11}NO$ moddaning tuzilishini aniqlang. [Javob: *p*-CH₃-C₆H₄-NHCOCH₃]

8. 200 ml 0,5 M xlorid kislota eritmasiga mo'l miqdorda temir ta'sir ettirilganda ajralib chiqadigan vodorod gazi bilan nitrobenzol qaytarilganda hosil bo'ladi. Anilinning massasini aniqlang.

[Javob: 1,55 g]


17 -MAVZU. AMINLAR. AMINOBIRIKMALAR

Reja:


1. Izomeriya, gomologlari va nomeklaturasi
2. Aminobirkimlar olinish usullari
3. Aminobirkimlar fizik va kimyoviy xossalari
4. Asosiy namoyondalari va ularning ishlatalishi

Bir yoki bir necha vodorod atomi uglevodorod qoldig'iga almashigan ammiak yoki ammoniy gidroksid hosilalariga *aminlar*

deb ataladi. Uglevodorod qoldig'ining tabiatiga qarab aminlar ochiq zanjirli va aromatik aminlarga bo'linadi. Ammiak molekulasi tarkibidagi vodorod atomlarining o'rniga almashingan radikallarning soniga ko'ra - *birlamchi I*, *ikkilamchi II* va *uchlamchi III* aminlarga bo'linadi; ammoniy tuzlari (IV) ning organik hosilalari bo'lib, *to'rtlamchi ammoniyli birikmalar V* hisoblanadi:




Aminlarda turli almashinish darajalarini mavjud bo'lishi, mumkin bo'lgan izomer birikmalarning sonini oshiradi. Masalan, butan 2 ta izomerga, butil spirit - 4 ta, $\text{C}_4\text{H}_{11}\text{N}$ tarkibli aminlar esa 8 ta izomerga ega bo'ladi.




Aminlarning olinishi juda ham xilma-xil bo'lib, ulardan eng asosiysi bo'lib-ammiakning alkillianishi (*Gofman reaksiyasi*) va nitrobirikmalarning qaytarilishi hisoblanadi.


1. Galoidalkillarga ammiak ta'sir ettirib birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi ochiq zanjirli aminlar hamda to'rtlamchi ammoniy asoslar hosil qilinadi.




Birlamchi aminobirikmalar olish uchun, ammiakni alkillamasdan balki uning hosilalarini alkillab olinadi. Masalan, ftalimid kaliydan (*Gabriel sintezi*) foydalanish mumkin:





2. Aromatik nitrobirikmalarni qaytarish orqali ham olish mumkin.




texnikada:



laboratoriyyada:



Karbon kislota amidlariga gipoklorid yoki gipobromidlar ta'sir ettirilsa birlamchi aminlar hosil bo'ladi (*Gofmancha parchalanish*):




Ochiq zanjirli aminlar dastlabki namoyandalari - metilamin, dimetilamin, trimetilamin odatdag'i sharoitda ammiakka o'xshash

o'tkir hidli suvda yaxshi eriydigan gazzlardir. O'rta a'zolari suyuqlik, yuqori a'zolari esa hidsiz, suvda erimaydigan qattiq moddalardir.


Jadval. Ayrim aminlarning fizikaviy xossalari

Amin	Formulasi	T _{suyuq} °C	T _{qayn} °C	Nisbiy zichlik d ₄ ²⁰
Metilamin	CH ₃ NH ₂	-	- 7,6	0,769 (-79°C)
Dimetilamin	(CH ₃) ₂ NH	-	7	0,680 (0°C)
Trimetilamin	(CH ₃) ₃ N	- 117	3,5	0,671 (0°C)
Etilamin	C ₂ H ₅ NH ₂	-	16,6	0,706 (0°C)
Dietilamin	(C ₂ H ₅) ₂ NH	- 50	56	0,711
Propilamin	C ₃ H ₇ NH ₂	-	49	0,714
Butilamin	C ₄ H ₉ NH ₂	-	78	0,742
Geksilamin	C ₆ H ₁₃ NH ₂	- 19	130	0,763
Anilin	C ₆ H ₅ NH ₂	- 6	184	1,027
Metilanilin	C ₆ H ₅ NHCH ₃	-	196	0,989
Dimetilanilin	C ₆ H ₅ N(CH ₃) ₂	2,5	194	0,756
Difenilamin	(C ₆ H ₅) ₂ NH	54	302	1,158


Asos xossalari. Barcha aminlar ozmi-ko'pmi asosli xossalarni namoyon qiladi. Aminlar eritmalarining asosli reaksiyasi ular suvda eriganda gidroksil ionlarining katta kons.cini hosil qilishi bilan izohlanadi:





Tuz hosil qilishi. Alifatik yoki aromatik aminlar mineral kislotalar bilan reaksiyaga kirishib tuzlar hosil qiladi. Masalan:




Aminlarning atsellanishi. Birlamchi va ikkilamchi aminlar kislota angdridlari yoki galogenangdridlar ta'sir ettirilganda atsillanishi sodir bo'lib *amidlar* hosil bo'ladi.






Aminlarning alkillanishi. Aminlarning kaloidalkillar bilan reaksiyaga kirishib, amino guruhdagi vodorodlarning radikallarga o'rin almashinishini *Gofman reaksiyalarida* ko'rildi (yuqorida).


Aminlarning nitrit kislota bilan reaksiyasi. Bu reaksiya yordamida birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi ochiq zanjirli aminlar nitrit kislota bilan reaksiyaga kirishib spirit hosil qiladi. Bunda gaz holidagi azot ajralib chiqadi:




Birlamchi ochiq zanjirli ominlarga nitrat kislota ta'sir ettiliglarda ular o'zgarmaydi.




Ikkilamchi alifatik va aromatik aminlar nitrit kislota bilan ta'sirlashib, yog'simon sariq rangli suyuqlik, nitrozobirikmalarini hosil qiladi:






Uchlamchi ochiq zanjirli aminlarga nitrat kislota ta'sir ettirilganda ular o'zgarmaydi.

Uchlamchi sof aromatik aminlar, benzol yadrosining 4 atomiga nitrolizlanishi kuzatiladi.




Izonitril hosil bo'lish reaksiyasi. Birlamchi ochiq zanjirli va aromatik aminlar xloroform bilan ishqorning spirtdag'i eritmasida qizdirilsa, kuchli ko'ngil aynatuvchi hidga ega bo'lgan modda hosil bo'ladi, bu birikma *izotsianid* yoki *korbonilamin* deb ataladi.




Bu reaksiya birlamchi aminoguruh tutgan, alifatik va aromatik aminlar *sifat reaksiyasi* hisoblanadi.


Bromlanish reaksiyasi. Fenil amin brom bilan oson reaksiyaga kirishib, 2,4,6-tribromofenilamin hosil qiladi:



Kompleks ionlarning hosil bo'lishi. Aminlar ham ammiak singari, *d*-metallarning ionlari bilan rangli kompleks birikmalar hosil qiladi. Masalan:



Yonish. Aminlar havoda yonib, olivning rangini sariqqa bo'yaydi, masalan:




Eng asosiy namoyandalari

Geksametilendiamin $\text{NH}_2-(\text{CH}_2)_6-\text{NH}_2$ kerakli pollimer material - *naylon* ishlab chiqarishda ishlataladi.

Anilin $\text{C}_6\text{H}_5\text{NH}_2$ - eng asosiy aromatik aminlardan biri. Anilindan turli xil bo'yoqlar, dorivor preparatlar, rezina uchun vulkanizator va stabilizatorlar, plastik massalar, fotografiya uchun ochqich (*proyavitel*) lar ishlab chiqarishda foydalilanadi.

Sulfanil kislota $\text{HO}_3\text{S}-\text{C}_6\text{H}_4-\text{NH}_2$ - qaynoq suvdan kristallga tushadigan qattiq modda, $t_{\text{siyuq}}=290^{\circ}\text{C}$ (parch). Sulfanil kislotasining eng asosiy hosilasi bo'lib, uning amidi (*sulfanilamid*) $\text{H}_2\text{N}-\text{C}_6\text{H}_4-\text{SO}_2-\text{NH}_2$ hisoblanadi. Bu hosiladan dorivor sulfamid preparatlar ishlab chiqarishda foydalilanadi. Ulardan eng oddiysi - sulfanil kislota amidining o'zi - *streptotsid*.



Sxema. Anilin asosida olinadigan mahsulotlar.


TAYANCH SO'ZLAR

Birlamchi, ikkilamchi va uchlamlchi aminlar, izomeriya, nomeklatura, gomologik qator, Gofman reaktsiyasi, Gabriel sintezi, Gofmancha parchalanish


SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Tajriba tugagandan keyin anilinli idishni yuvib, anilindan tozalash kerak. Buning uchun siz suv, natriy gidroksidning va xlorid kislotaning suyultirilgan eritmalaridan qaysi birini ishlatishingiz kerak bo'ladi? Nima uchun?

2. Benzol bilan anilinning aralashmasi bor. Haydash usulidan foydalanmay turib, qanday qilib shu aralashmadan benzolni ajratib oilsh mumkin?
3. Anilin toza suvda yaxshi eriydimi yoki ozroq kislota qo'shigan suvdami? Javobingizni izohlab bering.
4. Ikkita idishning biriga anilin tuzining eritmasi, boshqachasiga dietilamin tuzining eritmasi to'ldirilgan. Ishqor eritmasidan foydalanib, har qaysi idishda nima borligini aniqlash mumkinmi? Javobingizni tegishli reaktsiyalarning tenglamalarini yozib tasdiqlang.
5. Kislota amidlarining NaOBr yoki NaOCl ta'sirida (*Gofman bo'yicha*) parchalanishi aminlar sintez qilishning muhim reaktsiyasidir. Shu usul bilan etilamin olish reaktsiyasining mexanizmini yozing. *Javob:*



6. $\text{C}_4\text{H}_{11}\text{N}$ tarkibli optik faol suyuqlikning xlорid kislota bilan reaktsiyasidan $\text{C}_4\text{H}_{11}\text{NCl}$ modda hosil bo'ladi, nitrit kislota bilan reaktsiyasi natijasida esa gaz pufakchalari ajraladi. Dastlabki moddaning tuzilishini aniqlang. Reaktsiyalar sxemalarini keltiring. *Javob:*



7. Massasi 26,5 g bo'lgan anilin, fenol va benzol moddalari aralashmasiga NaOH ta'sir ettirilganda massasi 21,6 g bo'lgan yangi modda, aralashmani vodorod bilan qaytarilganda esa 8,4 g tsiklik modda hosil bo'ldi. Aralashma tarkibidagi har bir moddaning massasini aniqlang. [Javob: Anilin-9,3 g; fenol-9,4; benzol-7,8 g]
8. Massasi 16,6 g bo'lgan etil va propil spirtlari aralashmsiga mo'l miqdorda natriy metali ta'sir ettirilganda 3,36 l (n.sh.da) vodorod gazi ajralib chiqdi. 24,6 g nitrobenzolni amingacha shu vodorod bilan qaytarish uchun, boshlang'ich spirtlarning qanday massali

aralashmasidan olinishi kerak bo'ladi? Boshlang'ich aralashma tarkibidagi har bir moddaning massa ulushlarini aniqlang.


[Javob: 12,2 ml]

18-MAVZU. AMINOKISLOTALAR

Reja:

1. Izomeriya, gomologlari va nomeklaturasi
2. Aminokislotalar olinish usullari
3. Aminokislotalar fizik va kimyoviy xossalar
4. Asosiy namoyondalari va ularning ishlatilishi

Aminokislotalar deb, tarkibida - kislotali xassaga ega bo'lgan karboksil guruh (-COOH) va asosli xossaga ega bo'lgan aminoguruh (-NH₂) larni tutgan bifunksional birikmalarga aytildi. Oqsillar tarkibiga kiruvchi aminokislotalar asosan α-aminokislotalar sinfiga tegishli bo'ladi (karboksil va aminoguruqlar bitta uglerod atomiga bog'langan aminokislotalar α-aminokislotalar deyiladi).



□-aminokislotalarning umumiy formulası

α-Aminokislotalar bitta amin va bitta karboksil (bir asosli monoaminokislota), bitta karboksil va ikkita aminoguruqlar (ishqoriy xossali bir asosli diaminokislotalar) bo'lishi mumkin.

Asosiy tabiiy α-aminokislotalar

Nomi	Formula	Qisqartirilgan belgisi		Izoelektrik nuqta pI	Nisbiy burilish burchagi [□] ²⁵ D (H ₂ O)			
		o'zbekcha	lotincha					
I. ochiq zanjirli (atsiklik) alifatik aminokislotalar								
1. Monoamino- monokarbon kislotalar								
Glisin (glukol, aminosirkakislota)	NH ₂ CH ₂ COOH	Gli	Gly	5,97	-			
Alanin (□-aminopropion kislota)	NH ₂ CH(CH ₃)COOH	Ala	Ala	6,00	+1,8			

Serin (α -amino- α -oksi propion kislota)	$\text{NH}_2\text{CH}(\text{CH}_2\text{OH})\text{COOH}$	Ser	Ser	5,68	-7,5
Sistein (α -amino- α -merkapt opropion kislota)	$\text{NH}_2(\text{CH}_2\text{SH})\text{COOH}$	$\frac{1}{2}$ Sis	$\frac{1}{2}$ Cys	5,07	-16,5
Sistin	$[\text{NH}_2\text{C}(\text{COOH})(\text{CH}_2\text{S})]_2$	Sis	Cys	5,00	-211,9
Treonin (α -amino- α -oksimoy kislota)	$\text{CH}_3\text{CH}(\text{OH})\text{CH}(\text{NH}_2)\text{COOH}$	Tre	Tre	5,60	-28,5
Metionin (α -amino- α -tiometil moy kislota)	$\text{CH}_2\text{S}(\text{CH}_2)_2\text{CH}(\text{NH}_2)\text{COOH}$	Met	Met	5,74	-9,8
Valin (α -amino- α -valerian kislota)	$(\text{CH}_3)_2\text{CHCH}(\text{NH}_2)\text{COOH}$	Val	Val	5,96	+5,6
Leysin (α -amino-kapron kislota)	$(\text{CH}_3)_2\text{CHCH}_2\text{CH}(\text{NH}_2)\text{COOH}$	Ley	Leu	5,98	-11
Izoleysin (α -amino- α -etil- α -metil propion kislota)	$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{NH}_2)\text{COOH}$	Ile	Ile	6,02	+12,4

2. Monoamino- dikarbonikslotalar

Asparagin kislota (α -aminoqax-rabo kislota)	$\text{HOOCCH}_2\text{CH}(\text{NH}_2)\text{COOH}$	Asp	Asp	2,77	+5,0
Asparagin (asparagin kislota amidi)	$\text{H}_2\text{NOCCH}_2\text{CH}(\text{NH}_2)\text{COOH}$	Asn	Asn	2,77	-5,6
Glutamin kislota (α -aminoglutamin kislota)	$\text{HOOC}(\text{CH}_2)_2\text{CH}(\text{NH}_2)\text{COOH}$	Glu	Glu	3,22	+12,6
Glutamin (glutamin kislota amidi)	$\text{H}_2\text{NOC}(\text{CH}_2)_2\text{CH}(\text{NH}_2)\text{COOH}$	Gln	Gln	4,1	+6,3

3. Diamino- monokarbonikslotalar

Lizin (α , ω -diamino kapronat kislota)	$\text{H}_2\text{N}(\text{CH}_2)_4\text{CH}(\text{NH}_2)\text{COOH}$	Liz	Lys	9,74	+13,5
Arginin (α -amino- α -guanidin kislota)	$\text{HN}=\text{C}(\text{NH}_2)\text{NH}(\text{CH}_2)_3\text{CH}(\text{NH}_2)\text{COOH}$	Arg	Arg	10,76	+12,5

II. Siklik (xalqali) aminokislotalar					
1. Aromatik aminokislotalar					
Fenilalanin ($\text{C}_6\text{H}_5\text{CH}_2\text{CH}(\text{NH}_2)\text{COOH}$)	$\text{C}_6\text{H}_5\text{CH}_2\text{CH}(\text{NH}_2)\text{COOH}$	Fen	Phe	5,66	-34,5
Tirozin ($\text{HO-C}_6\text{H}_4\text{CH}_2\text{CH}(\text{NH}_2)\text{COOH}$)	$\text{HO-C}_6\text{H}_4\text{CH}_2\text{CH}(\text{NH}_2)\text{COOH}$	Tir	Tyr	5,48	-10 (5M HCl)
2. Geterosiklik aminokislotalar					
Triptofan ($\text{CH}_2\text{CH}(\text{NH}_2)\text{COOH}$)		Trp	Trp	5,89	-33,7
Gistidin ($\text{CH}_2\text{CH}(\text{NH}_2)\text{COOH}$)		Gis	His	7,59	-38,5
Prolin (pirroloidin $\text{C}_2=\text{N}-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{COOH}$) (antibiotiklar tarkibida uchraydi)		Pro	Pro	6,30	-86,2
Oksiprolin (oqsil tarkibida uchramaydi)		Pro-OH	Hypro	5,80	-72,5

Aminokislotalarning boshqa asosdagи klassifikatsiyasi ham bor; ular tarkibidagi ishqoriy va kislotali guruhlarning nisbati, qutbli guruhlар mavjudligiga qarab-neytral, ishqoriy va kislotali, qutbli va qutblanmagan aminokislotalar guruhlariga bo'lish mumkin:

Neytral aminokislotalar.

Glisin	Serin
Alanin	Treonin
Valin	Asparagin
Leysin	Glutamin
Izoleysin	Prolin
Metionin	Gistidin
Fenilalanin	

Kislotali aminokislotalar

Asparagin kislota

Glutamin kislota

Tsistein

Tirozin

Ishqoriy aminokislotalar


Arginin

Lizin


Gistidin

Deyarli hamma aminokislotalar optik faollikga ya'ni, qutblangan nur sathini burish xassasiga ega (faqt glitsin bu qatorga kirmaydi); ularning bu xossasi α -uglerod atomi to'rt valenti bilan to'rt xil guruhga bog'langanidan kelib chiqadi.

Bu shartga muvofiq, *D* va *L* α -aminokislotalar quyidagicha yoziladi:



Barcha aminokislotalar suvli eritmalarida ikki qutbli ionlar yoki *Switter ionlar* shaklida, ya'ni aminokislotalarning karboksil turkumi dissotsiyalangan, aminoguruh protonirlangan holatda bo'ladi.




α -Aminokislotalar qattiq holatda bipolar ion holida bo'ladi. α -Aminokislotalarning ba'zi bir o'ziga xos xossalari: yuqori haroratda suyuqlanishi, uchuvchan emasligi, suvda erishi va qutbsiz organik erituvchilarda erimasligi ularning bikolyar ion tuzilishiga ega ekanligi bilan tushuntiriladi.

α -Aminokislota bikolyar ionining konsentrasiyasi eng ko'p, kation va anion shakllarining minimal konsentrasiyalari o'zaro teng


bo'ladigan pH ning qiymati *izoelektrik nuqta* (*IEN, pI*) deyiladi. *pI* ning qiymati quyidagi tenglama bo'yicha aniqlanadi:

$$pI = \frac{1}{2} pK_{R1} + pK_{R2}$$


α -Aminokislotalar tabiiy birikma (oqsil) larni gidroliz qilib olish bilan bir qatorda sintetik yo'llar bilan ham olinadi.




β -aminokislotalar - α , β -to'yinmagan karbon kislotalarga ammiak biriktirib olinadi. Bu reaksiyaning eng qulay usulini birinchilbo'lib 1926 yilda V.M.Radionov taklif etgan. Bu reaksiya tegishli aldegid, malon kislotasi va ammoniy atsetatning sirkal kislotasine ritmasida o'zaro ta'sirlashishi natijasida olinadi:




Boshqa aminokislotalar quyidagicha olinishi mumkin:




Ayrim aminokislotalar erkin holda va proteinlar tarkibida bog'langan shaklda ham bir qator reaktivlar bilan rangli reaksiyaga kirishadi. Bular orasida eng muhimini *ningidrin* reaksiyasidir.







Aminokislotalarni ochish uchun yana boshqa rangli reaksiyalar: Millon va ksantoprotein reaksiyalari (tirozin va fenilalanin uchun), Folin-Chiokalteu reaksiyasi (tirozin uchun) ham keng ishlataladi.

Aminokislotalarning ayrim bir kimyoviy xossalari quyidagi sxemalarda keltirilgan:




Qizdirilgan β -aminokislotalardan ammiak ajraladi va to'yinmagan kislotaning ammoniyli tuzini hosil qiladi. γ -va δ -aminokislotalardan esa ichki amidlar (*laktamlar*) hosil bo'ladi:






karboksil guruhiiga boradigan reaksiyalar:




aminoguruhiiga boradigan reaksiyalar:




Eng asosiy namoyandalari.

p-aminobenzoy kislota - rangsiz kristall modda, $t_{\text{suyuq}}=186^\circ\text{C}$, suvda kam eriydi, *p-nitrobenzoy kislotani* qaytarish orqali olinadi.

p-aminosalisil kislota (qisqacha *PASK*) - sil (tuberkulyoz) kasalligiga qarshi ishlatalidigan dorivor preparat hisoblanadi. Uni, m-aminofenol va uglerod (IV)-oksidining o'zaro ta'sirlashishidan olinadi.



o-aminobenzoy kislota (antronil kislota), $t_{\text{suyuq}}=144^\circ\text{C}$, suvda kam eriydi. Goffman reaksiyasi yordamida kaliy ftalamiddan olinadi. Antronil kislotadan metil-qizil azobo'yog'i olinadi. Bu moddadan indikator (kislotali muhitda-qizil, neytral va asosli muhitda-sariq rang) sifatida foydalaniladi.




TAYANCH SO'ZLAR

Aminokislota, izomeriya, nomeklatura, gomologik qator, Svitter ion, izoelektrik nuqta (IEN, pI), ningidrin, laktam

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Aminokislotalar qanday usullar bilan olinadi? Ularni nomlashda qanday qoidaga rioya qilinadi?
2. Qanday tajribalar yordamida oqsil molekulasi tarkibida oltingugurt atomi borligini aniqlash mumkin?
3. Tuzilishi $\text{NH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{COONH}_2$ bo'lgan aminokislota nima uchun neytral, $\text{HOOCCH}_2\text{CH}(\text{NH}_2)\text{COOH}$ tarkibli aminokislota esa kislotali muhitga ega ekanligini tushuntirib bering.
4. Aminosirka kislota (glitsin)ning etil efiri suyultirilgan mo'l xlorid kislota qo'shib qaynatildi, so'ngra eritma suv hammomida qurigunga qadar bug'latildi. Bug'latilgandan keyin qolgan qoldiq nimadan iborat bo'ladi?
5. Tripeptid to'liq gidrolizlanganida glitsin, alanin va serin, qisman gidrolizlanganida esa alanilglitsin va glitsilserin hosil bo'ldi. Tripeptidning tuzilish formulasini yozing.

Javob:



6. 1,5 g aminosirka kislotani eterifikatsiya reaktsiyasiga kiritish ucun 96% li etil spirtdan ($\rho=0,8 \text{ g/ml}$) necha millilitr kerak bo'ladi? Ushbu reaktsiya uchun spirt ikki baravar ko'p olingan deb hisoblang.
[Javob: 11,5 ml]

7. Molekulyar massasi 146 ga teng bo'lgan 0,073 g massali aminokislotaga nitrit kislota ta'sir ettirilganda 224 ml (n.sh.da) erkin azot ajralib chiqdi. Tekshirilayotgan aminokislotada nechta amino guruh borligini aniqlang.
[Javob: 2 ta -NH₂ guruh]

8. Aminokislotalar bilan nitrit kislotaning o'zaro ta'sirlashuv reaktsiyasidan aminokislotalarni miqdoran miqdoran aniqlashda foydalanganligi ma'lum. Tarkibida alanin (α -aminopropion kislota) bo'lgan 0,4 g aralashmaga nitrit kislota ta'sir ettirilganda 44,8 sm³ (n.sh.da) azot hosil bo'ladi. Tekshirilayotgan aralashmadagi alaninning foiz miqdorini hisoblang.
[Javob: 7,12%]


19 -MAVZU. GETEROTSIKLICK BIRIKMALAR

Reja:

1. Yu.K.Yurev reaksiyasi
2. Asosiy namoyondalari va ularning ishlatalishi

Molekulasida uglerod va vodorod atomlaridan tashqari bir yoki bir necha boshqa element atomlari bo'lgan yopiq zanjirli birikmalar *geterotsiklik birikmalar* deyiladi.

Rossiya kimyogari Yu.K.Yurev (1936) pirrol, furan va tiofen oson bir-biriga aylanishini ko'rsatdi, buning uchun bu moddalarni suv, vodorod sulfid yoki ammiak bilan $400\text{-}450^{\circ}\text{C}$ da katalizator Al_2O_3 ishtirokida qizdirish lozim:



Pirrol. Pirrol - 130°C da qaynaydigan, suvda erimaydigan rangsiz suyuqlik, havoda qo'ng'ir tusga kiradi (oksidlanadi). Pirrolning hidi xloroform hidini eslatadi. Pirrol *kuchsiz asos* va *aromatik moddalar xossalasiga ega*.



piridin




pirrol

Piridin - kuchli yoqimsiz hidga ega bo'lgan, 115°C da qaynaydigan rangsiz suyuqlik. Piridin asosli xossalaga ega. Piridning suvdagi eritmasi lakkusni ko'k rangga bo'yaydi, chunki piridin aminlar kabi suv bilan ammoniy gidroksid NH_4^+OH^- ga o'xshash birikma hosil qiladi. Piridinning asosliligi ochiq zanjirli aminlarning asosligidan anchagini kam.


Qon tarkibidagi qizil *gemoglobin* moddasi, o'pkadan tananing barcha hujayralariga kislorod tashish vazifasini bajaradi. U xromoprotein hisoblanib, globin oqsili bilan oqsil bo'limgan qizil rangli *gem* qoldig'idan tashkil topgan. Gem tarkibida Fe(II) ni

ushlovchi *porfirin* hisoblanadi. Gemning tuzilishini birinchi bo'lib V.Fisher (1927) aniqlagan.

O'simliklarning yashil pigmenti *xlorofill* o'zining qisman vodorod to'yingan porfin halqasida kompleks shaklidagi magniyini tutadi. O'simliklar tarkibidan xlorofill *a* (ko'kish-qora kristallar) va xlorofill *b* (to'q yashil kristallar) ajratib olingan. Xlorofill optik faol modda bo'lib, birinchi marta uning struktura tuzilishini R.Villshtetter, M.Shtall va G.Fisher (1913-1938) lar aniqlagan. Xlorofillar fotosintez jarayonida eng asosiy vazifani bajaradi: ular yorug'lik nurini kimyoviy energiyaga aylantirib beradi.






Nikotin kislota va uning amidi *nikotinamid* tibbiyotda pelagra kasalligini davolashda qo'llaniladigan PP darmondorining ikkita shakli sifatida ma'lum.






Nikotinamid organizmda sodir bo'ladigan oksidlanish-qaytarilish jarayonlarini boshqaradigan ferment sistemalari tarkibiga kiradi. Nikotin kislotaning dietilamidi - *kordiamin* esa markaziy asab sistemasining faoliyatini uyg'unlashtiradi.

Piridin halqasi yana ko'pchilik alkaloidlar hamda B₆ darmondorining asosida yotadi. B₆ darmondori quyidagi uch turli shaklda bo'ladi:






Organizmada piridoksin oson oksidlanib piridoksilga aylanadi. Piridoksil aminlar bilan reaksiyaga kirishib piridoksamín hosil qiladi. Inson va hayvon organizmida oqsil almashinuvining normal bo'lishida B₆ darmondorining roli katta.

Pirimidin va uning hosilalari. Pirimidin - kristall modda bo'lib, kuchsiz asosli xossaga ega. Pirimidin-darmondorilar, nuklein kislotalar, sintetik dorivor moddalar tarkibiga kiradi. Pirimidin-nuklein kislotalar tarkibiga *urasil*, *timin* va *sitozin* holida kiradi:



Purin va uning xossalari. Purin pirimirin va imidazol halqalarining kondensirlanishidan hosil bo'lgan murakkab geterotsikl birikmadir:



Purinning nuklein kislotalar tarkibiga kiradigan hosilalari *adenin* va *guanin* nomli birikmalardir.

TAYANCH SO'ZLAR

Geterotsiklik birikmalar, izomeriya, nomeklatura, gomologik qator, gemoglobin, gem, porfirin, xlorofill

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Pirimidin asoslari va nuklein kislotalar tarkibiga kiradigan moddalarning formulalarini yozing va tuzilishini tushintirib bering.
2. Purin asoslari va nuklein kislotalar tarkibiga kiradigan moddalarning formulalarini yozing va tuzilishini tushintirib bering
3. Xinolin moddalarning formulalarini yozing va tuzilishini tushintirib bering.
4. Tiofen hosilasilalariga misollar yozing.
5. Purinning aminohosilalarini nimalardan iborart?
6. DNKning uglevodli qismi nima deb ataladi?

20 -MAVZU. OQSILLAR VA PEPTIDLAR

Reja:

1. Izomeriya, gomologlari va nomeklaturasi
2. Ularning olinish usullari
3. Kimyoviy xossalari va aniqlash usullari

Oqsillar, ya'nii *proteinlar* barcha organizmlar tarkibiga kiradigan eng muhim biopolimerlardan biri. Ularning «protein» (yunoncha *proteios*-birinchi, eng muhim) deb atalishi haqiqatdan ham oqsillarning hayotdagi o'rnnini rosmona aniq ifodalaydi. Oqsil nomi esa tuxum oqligi so'zidan kelib chiqqan codda atamadir.

Oqsillar hujayra tarkibidagi organik moddalarning taxminan 50% ini tashkil qiladi. Tirik organizmlarning hujayralari, toqimalari, hujayra komponentlari asosan protein molekulalaridan tashkil topgan.

Oqsillarning xillari nihoyatda ko'p. Organizmlarning har bir turi o'ziga xos oqsillarga ega. Odam organizmidagi oqsillarning xillari 50000 ga etadi, lekin hozirgacha ularning juda kam qismi, taxminan 2000 ga yaqini kashf etilgan va yaxshi tekshirilgan.

1. Oqsillar klassifikatsiyasi.

Oqsillar ikkita katta guruhga bo'linadi: oddiy oqsillar yoki *proteinlar* va murakkab oqsillar yoki *proteidlar*.

Proteinlar kislotali muhitga ega bo'lgan suvli eritmalarida gidrolizga uchrab faqatgina α -aminokislotalar hosil qilsa, proteidlar gidrolizi natijasida esa α -aminokislotalardan tashqari yana boshqanoorganik yoki organik moddalar hosil bo'ladi.

Proteinlar. Quyida eng asosiy sinflari keltirilgan.

Albuminlar suvda yaxshi eriydi. Sut, tuxum oqi va qon tarkibida uchraydi.

Globulinlar suvda erimaydi, lekin suyultirilgan tuz eritmalarida eriydi. Globulinlarga qon flobulini va muskul oqsili miozin misol bo'ladi.

Skleroproteinlar-erimaydigan oqsillar. Ularga keritinlar, teri oqimi va birlashtiruvchi kallogen, tabiiy ipak oqsili fibroin misol bo'ladi.

Glutelinlar faqatgina suyultirilgan ishqor eritmalarida eriydi. O'simliklar tarkibida uchraydi.

Proteidlar-boshqa tipdag'i molekulalar bilan bog'langan proteinlardan tashkil topgan.

Fosfoproteidlar tarkibida serin aminokislotalarning gidroksil guruhsiga bilan fosfat kislota qoldig'idan tashkil topgan murakkab efirni tutadi. Ularga-tuxum sarig'idan bo'ladi oqsil-vitelin, sut oqsili-kazein misol bo'ladi.

Glikoproteidlar tarkibida uglevodlar qoldig'ini tutadi. Ular-migiz (shoh).

Xromoproteidlar tarkibida bo'yogli moddalar (masalan: porfin) tutadi. Eng asosiy xromoproteld bo'lib gemoglobin (kislorod tashuvchi, qonni qizil rangga bo'yaydi) hisoblanadi.

Nukleoproteidlar-nuklein kislotalar bilan bog'langan proteinlar. Ular biologik jihatdan zarur bo'lgan oqsillar-hujayra yadrolarining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Nukleoproteidlar, turli xil kasalliklarni keltirib chiqaradigan viruslarning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

2.Oqsillarning funksiyasi.

Proteinlar bajaradigan funksiyalar faqat oqsil molekulalari uchun xos, aksari ajoyib yagona vazifalardir. Eng muhimmi quyidagilar:

1) *Katalitik funksiya.* Shu vaqtgacha kashf etilgan barcha biologik katalizatorlar-*fermentlar* oqsildir. Bitta hujayrada ularning soni 2000 dan ortiq bo'ladi. Bu funksiya faqat oqsillar uchun xos.

2) Ehiyot ochiq moddasi sifatida oqsillar chegaralangan miqdorda qand, ba'zi to'qimalarda, ko'p miqdorda o'sayotgan homilada, o'simliklar donida, tuxumda va sutda bo'lib, zarur bo'lgan sharoitda sarflanadi.

3) *Transport funksiyasi.* Qonda kislarodni tashish tamomila oqsil-*gemoglobin* tomonidan bajariladi. Proteinlar qonda lipidlar, ba'zi garmonlar, vitaminlar, metall ionlari bilan kompleks hosil qilib, ularni tegishli to'qimalarga etkazadi.

4) *Qo'riqlash funksiyasi.* Barcha immungonalar oqsillardir. Ular organizmga kirgan bakteriyalarni, yot oqsillarni o'ziga xos ravishda bog'laydi, parchalaydi, zararsizlantiradi.

5) *Qisqarish funksiyasi.* Muskullar juda ko'p oqsillar ishtirokida qisqaradi. Ularning eng muhimlari *aktin* va *miozin* qisqaruvchi muskul tolalarini tashkil qiladi.

6) *Oqsil gormonlar.* Bir qator ikki sekretsiya bezlarining mahsulotlari peptid va oqsil tabiatiga ega. Masalan, insulin, o'sish garmoni va boshqalar. Ular organizmda moddalar almashinuvini rostlab turadi.

7) *Struktura funksiyasi.* Oqsillar biriktiruvchi to'qimaning asosiy qurilishi materiali: keratin, kollogen, elastin shular qatoriga kiradi.

Oqsillarning asosiy fizik-kimyoviy xossalari ularning yuqori molekulyar polimer birikma ekanligidan kelib chiqadi. Proteinlarning eritmaliari juda yopishqoq, kam diffuziyalanadigan, shuningdek, keng miqiyosda shishish qobiliyatiga, optik faoliyat, elektr maydonida harakatlanishi, past osmotik bosimga ega.


Oqsillarning nisbiy molekulyar massasi juda katta. Masalan, tovuq tuxumi tarkibiga kiruvchi oqsilning nisbiy molekulyar massasi 36000 ga teng. Go'shtdan olingan bir oqsilning nisbiy massasi 150000. Ba'zi boshqa oksidlarning nisbiy molekulyar massasining pastki chegarasi 6000, yuqorigi chegarasi 1000000 va undan ham katta.

Tabiiy oqsillar o'ziga xos, qat'iy belgilangan fazoviy tuzilishga (konfiguratsiyaga), muhitning fiziologik sharoitida ma'lum fizik-kimyoviy va biologik xossalarga ega. Bu ularning nativ (tabiiy) holati bo'lib, u turli ta'sir ostida o'zgaradi, oqsil zarrachalari iviydi, cho'kadi. Bunday nativ holatning yo'qolishi *denaturatsiya* deyiladi. Natijada oqsil molekulasing shakli, biologik funksiyalari o'zgaradi, erishi xususiyati yo'qoladi. Denaturatsiya yuqori temperaturada, og'ir metall (simob, qo'rg'oshin, kumush, vismut) tuzlari, bir qator organik reaktivlar (uchxlopsirka kislota, nitrat kislota, tannin va boshqalar) ta'sirida kuzatiladi. Bu jarayonda oqsil molekulalarining pentid bog'lari uzilmaydi, asosan disulfid –S-S- va boshqa kuchsiz bog'lanishlar echiladi, nativ oqsilning yumaloq shakli yoyiladi. Denaturatsiya ma'lum gegaroda qaytalamadir (renaturatsiya), denaturlovchi agent yo'qolgandan so'ng uzilgan bog'lar qaytadan tiklanishi mumkin.


Tabiatda 300 ga yaqin amino9kislota uchraydi. Ularning yarmidan ortig'i umuman oqsil tarkibiga kirmaydi, qolgan yarmisining ko'p qismi ham faqat ayrim organizmlarda, ba'zilari alohida oqsillar va peptidlар tarkibida bo'ladi. Oqsillarning gidrolizi natijasida ko'pincha 20 xil aminokislota olinadi. Agar oqsil molekulasi tarkibiga kiruvchi 20 xil aminokislotalar o'zaro bir-biri bilan turli ketma-ketlikda birikishi mumkinligini hisobga olinsa, bu molekulalar bir-biri bilan birikkanida hosil bo'ladigan turli kombinatsiyalarning umumiyligi miqdori $2,4 \cdot 10^{18}$ dan ortib chiqadi. Ana shuning uchun ham oqsil molekulalari o'zining tuzilishi jihatidan xilma-xil va murakkabdir.

1888 yilda rus biokimyogari A.Ya.Donilevskiy oqsillarning molekulalarida takrorlanuvchi atomlarning peptid guruhi (-CO-NH-) mavjudligini ko'rsata oldi.


Oqsillar tarkibidagi aminokislota molekulalari amid bog'ga nisbatan bog'langan bo'ladi, mazkur holda bu bog' *peptid bog'* deb atalsa, bir nechta aminokislota molekulalarining bu bog'lar orqali bog'langar birikmalar - *peptidlar* deyiladi:



peptid bog'



dipeptid (*glisilglisin*)




tripeptid (glisilalanilsistein)

Oqsil (peptid) makromolekulalari, faqatgina, o'zaro bir-biri bilan peptid (amid) bog'lar bilan birikkan α -aminokislotalar qoldiglаридан ташкил топган:

Oqsil tarkibidagi α -Aminokislotalarning barchasi L-qatorga mansub bo'ldi.


Oqsil molekulasi birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va to'rtlamchi tuzilish tartiblariga ega bo'lishi mumkin.

Oqsillarning birlamchi strukturasi - uning kimyoviy strukturasi, ya’ni ushbu oqsilning polipeptid zanjirida aminokislotalar qoldiglарining navbatlashib kelishidir.




Birlamchi struktura

Oqsilning ikkilamchi strukturasi: Polipentid zanjirning fazoda joylanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Valent burchaklarga va aminokislota qoldiqlarining o'zaro joylanishiga mos ravishda polipeptid zanjir odatda spiralsimon buralgan bo'ladi. Bu oqsil molekulasi tuzilishining ikkinchi tarkibi yoki *oqsillarning ikkilamchi tuzilishi* deyiladi. Oqsil molekulasinging spiral shaklni eslatuvchi fazoviy konfiguratsiyasi -CO- va NH- guruuhlar orasida juda ko'p vodorod bog'lanishlar borligi tufayli yuzaga keladi.



Ikkilamchi struktura (α -spiral)




Ikkilamchi struktura (β -sstruktura)

Polipeptid spiralining fazodagi orientatsiyasi yoki uning tanlanishi *uchlamchi struktura* deyiladi. Bu tushuncha butun molekulaning shakli, hajmi haqida ma'lumot beradi. Uchlamchi struktura rentgen struktura onalizi yordamida olingan tasvirni ishslash

yoli bilan chiziladi. Oqsil molekulasining uchlamchi strukturasini mustahkamlab turadigan aloqalar quyidagi rasmda keltirilgan:

Polipeptid zanjir



*Polipeptid zanjir
Uchlamchi struktura*


Uchlamchi strukturaning hosil bo'lishi polipeptid zanjirning turli qismlari o'zaro tikilib qolishi bilan tushuntiriladi. Bu tikilish yog' zanjirdagi aminokislota qoldiqlarining o'zaro kimyoviy bog' hosil qilishi yoki turli ta'sirlashishlar hisobiga hosil bo'ladi.

Ko'pchilik oqsillar to'rtlamchi strukturaga ham ega. Bu oliv tuzilish darajasi ayrim polipeptid zanjirlarning fazoda taxlanish shaklini tasvirlaydi. Molekulasining massasi 30-50 mingdan ortiq bo'lgan oqsillar aksari bir nechta bir xil (yoki har xil) zanjirdan tuzilgan. Kovalent bog' bilan emas, balki nokovalent bog'lanishlar orqali ancha barqaror saqlanadigan bunday butun tuzilma, aligomer oqsilning *to'rtlamchi strukturasini* tashkil qiladi. Misol tariqasida to'rtta oqsil makromolekulasidan tuzilgan ogregat sifatida gemoglobinni keltirish mumkin.

Ma'lum bo'lishicha faqat ana shunday strukturaga ega bo'lgan gemoglabingina o'ziga kislorod yutib uni organizmga tarqata oladi.

α -Aminokislolar va oqsillarni sifat va miqdoran aniqlash usullari.

1) *Ningdrin reaksiyasi.* α -Aminokislolar uchun umumiy sifat reaksiyasi-bu ningdrin bilan reaksiyadir. Reaksiya mahsuloti ko'k-binafsha rangli bo'ladi:



ningidrin


α -aminokislota

ko'k-binafsha tusli mahsulot

2) *Erlix reaksiyasi.* Triptofonni aniqlash uchun uning eritmasiga sulfat kislota ishtirokida *para*-dimetilaminobenzaldegid qo'shiladi. Bunda eritma qizil-binafsha rangga bo'yaladi. Boshqa α -aminokislotalar bu reaksiyani bermaydi.

3) *Ksantoprotein reaksiyasi.* Bu reaksiya yordamida radikalida aromatik tabiatli halqalar tutgan α -aminokislota (fenilalanin, tirozin, gistidin, triptofon) lar aniqlanadi. Masalan, tirozin konsentrlangan nitrat kislota ta'sirida nitrolanib sarg'ayadi. Bunda aminokislotalaring aromatik halqasi nitrolanadi. Keyin unga ammiak yoki ishqori eritmasi ta'sir ettirilsa sariq rang zarg'aldoq rangga o'tadi.

4) *Tarkibida oltingugurt atomi tutgan α -aminokislotalarning sifat reaksiyasi.* Tarkibida oltingugurt saqlagan α -aminokislotalar-sistein, sistin, metionin bor oqsillar eritmasini ortiqcha natriy ishqori eritmasi bilan qaynatilib, so'ngra unga bir necha tomchi qo'rg'oshin atsetat $(\text{CH}_3\text{COO})_2\text{Pb}$ eritmasi qo'shilsa, eritma qo'ng'ir-qora rangga bo'yaladi yoki qora cho'kma hosil bo'ladi. Bu reaksiyaning mohiyati quyidagicha tushuntiriladi. Oqsil tarkibidagi oltingugurt atomi saqlovchi α -aminokislotalar ishqor bilan qaynatilganda, aminokislota tarkibidagi oltingugurt natriy sulfid Na_2S ga o'tadi. Undagi oltingugurt anioni esa qo'rg'oshin kationi bilan quyidagicha reaksiyaga kirishadi:



5) *Biuret reaksiyasi.* Oqsil eritmasiga suyultirilgan mis sulfat va natriy gidroksid eritmali ta'sir ettirilsa, binafsha rang hosil bo'ladi. Bu reaksiya peptid bog'li (-CO-NH-) hamma moddalarda sodir bo'ladi.

TAYANCH SO'ZLAR


Protein va proteidlar, izomeriya, nomeklatura, gomologik qator, oqsil fuktsiyalari, molekulyar massa, denaturatsiya, peptid, oqsil tuzilishlari, sifat reaktsiyalari,

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Aminosirka kislotalning etil efiri toza suvda yahshi eriydimi yoki ozroq kislota eritmasi q’o’shilgan suvdami? Nima uchun?
2. Tuzilishi $\text{NH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{COONH}_2$ bo’lgan aminokislota nima uchun neytral, $\text{HOOCCH}_2\text{CH}(\text{NH}_2)\text{COOH}$ tarkibli aminokislota esa kislotali muhitga ega ekanligini tushuntirib bering.
3. $\text{C}_4\text{H}_9\text{O}_2\text{N}$ tarkibli izomer aminokislotalarning tuzilish formulalarini yozing. Optik faol aminokislotalarni ko’rsating.

[Javob: Hammasi bo’lib 5 ta izomer, shularidan 3 tasi optik faol]



4. Quyidagi aminokislotalar (*alanin* va *valin*) stereoisomer-larining proyektsion formulalarini yozing va ularni *R,S*-nomeklaturaga binoan nomlang. Bu stereoisomerlar qaysi stereokimyoviy qator (*D* yoki *L*)ga mansubligini ko’rsating. Javob:



5. α -galogenkarbon kislotalarga ortiqcha ammiak ta’sir ettirilganda (*α -galogenkarbon kislotalar ammonolizida*) α -aminokislotalar hosil bo’ladi. Shu usul bilan quyidagi aminokislotalarni sintez qiling: a) α -aminosirka kislota; b) α -aminomoy kislota; c) 2-amino-3-metilpentan kislota.



6. Quyidagi o’zgarishlarni amalga oshiring:




21 -MAVZU. NUKLEIN KISLOTALAR

Reja:

1. Nuklein kislotalarning struktura elementlari
2. Charhgaff qoidalari


Nuklein kislotalar yangi bir biologik modda sifatida 1868 yili shveytsariyalik biolog Fridrix Misher tomonidan kashf etilgan. U yirningi tashkil etadigan qon elementlari - *leukotsitlar* («yiring hujayralari») yadrosidan fosforga boy noma'lum birikma ajratib olib, unga *nuklein* nomini berdi. Bu birikma kislota xossasiga ega bo'ladigan keyinroq *nuklein kislota* deb ataladigan bo'lgan. 1891 yili nemis olimi Kyossel bu moddani gidroliz qilib, u uch xil komponentdan purin va pirimidinlar qatoriga kiradigan geterotsiklik azot asoslari, uglevod va fosfat kislottedan tashkil topganligini aniqlaydi. Shu omilning o'zi nuklein kislotalarning ikki xili mavjud ekanligini ko'rsatadi. Keyinroq ular tarkibiga kiradigan uglevod komponenti-pentazonning riboza yoki dezoksiriboza bo'lishiga qarab, *ridonukleun kislota* (*RNK*) va *dezoksiribonuklein kislota* (*DNK*) nomini oladi..

1). Dezoksiriboza va riboza.



Bu ikkala monosaxarid ham beshta uglerod atomi tutadigan pentazolar bo'lib, aldegid guruh saqlanadigan aldogintozalar qatoriga kiradi. Bu ikki qand qoldig'I orasidagi farq faqat ikkinchi uglerod atomiga tegishli. 2-uglerod *OH* bilan bog'langan, dezoksiribozada *OH* guruh o'rniда *H* atomi turadi, ya'ni 2-uglerod *O* atomidan mahrum, shuning uchun ham uning nomiga «dezoksi» old qo'shimchasi qo'shiladi.


2) Azot asoslari-purinlar va pirimidinlar.



Пурин




Пиримидин



DNK da ham, RNK da ham qariyib to'rttadan pirimidili va purinli asoslar qoqlanadi. Ulardan uchtasi ham DNK, ham RNK da saqlanib, DNK dagi to'rtinchи asos - *timin*, RNK dagi esa - *uratsildir*.


3) Fosfat guruh .

Nukleotidlardan tarkibiga ortofosfat kiradi. U molekulada bitta (*mono*-), ikkita (*di*-) yoki uchta (*tri*-) bo'lishi mumkin.




4) Nukleozidlar.

Nuklein asoslarning riboza yoki dezoksiriboza bilan hosil qilgan N-glikozidlari *nukleozidlar* deb ataladi. Glikozid bog'i, riboza yoki dezoksiribozaning anomer uglerod atomi (C-1) ni pirimidinli asoslarning 1-N yoki, purinli asoslarning 9-N bilan bog'laydi. Bunda hamma vaqt β -glikozid bog' hosil bo'ladi.




Ribonukleozidlar




Dezoksiribonukleozidlar

Pirimidinli asoslar sharoitiga qarab turli toutomer shakllarda bo'lishi mumkin. Masalan: urasil yoki 2,4-digidroksipirimidin sharoitiga qarab quyidagi tautomer shakllarda bo'lishi mumkin:



Nukleotidlar strukturasi

Nukleotidlardan strukturasiga azot asosi, uglevod qoldig'i va fosfat kislota kiradi. Uchta komponent molekulasida: A-U-P tartibda joylashgan.



Nuklein kislota	Shakar qismi	Azotli asoslar	Anorganik kislota
DNK	Dezoksiriboza	adenin (A), guanine (G), sitozin (S), timin (T)	H_3PO_4
RNK	Riboza	adenin (A), guanine (G), sitozin (S), urasil (U)	H_3PO_4


Nukleotidlardan nomenklaturasi ikki xil asosda tuzilishi mumkin, ularni nukleotidlarning fosfat efirlari sifatida qaralganda, adenozin hosilalarini *adenozin 5'-monofosfat* (AMF), *adenozin 5'-difosfat* (ADF), *adenozin 5'-trifosfat* (ATF) deb ataladi.


ADF va ATF molekulalaridagi fosfat kislota qoldiqlarining angdrid bog'lari energiyaga haddan tashqari boy. Bu bog'lar *makroergik bog'lar* deyiladi. Bu makroergik bog'larning gidrolitik parchalanishi natijasida ko'p miqdorda energiya ajralib chiqadi. Agar

oddiy murakkab efir bog'i 2000-3000 kal energiya zahirasi saqlasa, makroergik bog'lar 10000 dan 16000 gacha energiya zahirasi saqlaydi.

Nukleotidlar fosfat kislota yordamida uzun zanjirga birikib polikondensatlanishning yuqori malekulyar mahsulotlari - *nuklein kislotalarni* hosil qiladi. Bunda ribonukleotidlardan RNK, dezoksiribonukleotidlardan esa DNK hosil bo'ladi. RNK va DNK molekulalarida fosfat kislota qoldig'i bitta nukleotid shakari (riboza yoki dizoksiriboz) ning beshinchi uglerod atom (C-5) ini boshqa nukleotid shakarining uchinchi uglerod atomi (C-3) bilan bog'laydi. Natijada poliefir shakldagi birikma hosil bo'ladi. Bu kovalent bog'lar bilan polinukleotidning tutash zanjiriga bog'langan nukleotid zvenolarining ketma-ketligi *nuklein kislotalarning birlamchi tuzilishi* deyiladi.

DNK ning *ikkilamchi tuzilishi* bu uning molekulasi dagi polinukleotid zanjirlarning fazoviy tuzilishidir. D NK ning ikkilamchi tuzilishini 1953 yili Dj.Uotson va F.Krik taklif qildilar. Bunga asosan D NK molekulasi ikkita spiralsimon burilgan juda uzun polidezoksiribonukleotid zanjirlardan iborat. Bunda birinchi zanjirning adeninli qoldiqlari ikkinchi zanjirning timinli qoldiqlari bilan, birinchi zanjirning guaninli qoldiqlari esa boshqasining sitozinli qoldiqlari bilan vodorod bog'lanishlar orqali bog'langan bo'ladi.





Adenin-timin va guanin-sitozin kabi asoslar jufti *komplementar* (o'zaro bir-birini to'ldiruvchi) asoslar deyiladi. Komplementar asoslarni saralab olish DNK va RNK larning biosintezida hamma vaqt sodir bo'ladi.

DNK tarkibidagi nukleotidlarning o'zaro munosabati ma'lum qonuniyatlarga bo'ysunadi. Bu qonuniyatlar amerikalik olim E.Charhgaff tomonidan aniqlangan, u *Charhgaff qoidalari* deb yuritiladi. Bu qoidaga muvofiq:

1) purinli asoslarning soni pirimidinli asoslarning soniga teng, ya'ni $(A+G)=(S+T)$.

2) har qanday DNK tarkibidagi adenin molyar miqdorining timin molyar miqdoriga va guaninning molyar miqdorining sitozin-molyar miqdoriga nisbatan 1 ga teng, ya'ni $A/T = G/S = 1$.

3) pirimidin halqasining 4-holatida va purin halqasining 6-holatida aminoguruh saqlagan asoslarning soni huddi shu holatlarda oksoguruh saqlagan asoslarning soniga teng. Bu $A+S=G+T$ ekanligini bildiradi.

TAYANCH SO'ZLAR

Nuklein, leykotsit, RNK, DNK, izomeriya, nomeklatura, gomologik qator, purin va pirimidin asoslar, nukleotid, nukleozid, makroergik bog', nuklein kislotalar tuzilishi, Charhgaff qoidasi, komplementar asoslar

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Tetrapirrol birikmalar qatoriga kiruvchi moddalarga misollar keltiring.
2. Analginding formulasida uni amidopirindan farqlovchi guruhini ko'rsating.

3. Piridinning biologik ta'sirga ega hosilalarini yozing.
4. Purinning biologik ta'sirga ega hosilalarini ko'rsating.
5. PP vitamini deb nomlanuvchi piridin hosilasini ko'rsating.
6. Nuklein kislotalarning monomerlari
7. Nuklein kislotalardagi mononukleotid qoldiqlar o'zaro qanday bog'orqali bog'langan bo'ladi.
8. DNK molekulasingining spirallanishida ishtirok etuvchi bog'lanish qanaday nomlanadi.


22-MAVZU. YUQORI MOLEKULYAR BIRIKMALAR

Reja:

1. Polimer zanjir turlari, gomologlari va nomeklaturasi
2. Polimerlanish reaksiyalarida hosil bo'ladigan polimerlar
3. Tabiiy va sintetik kauchuk.
4. Polikondensatlanish reaksiyalarida hosil bo'ladigan polimerlar
5. Sintetik tolalar


Yuqori molekulyar birkmalar haqida umumiyligi tushunchasi va ularning klassifikatsiyalarini.

Polimer – kichik molekula zvenolarining qaytarilishi natijasida hosil bo'ladigan katta molekulalari birikmalardir. «*Polimer*» so'zi, grekcha ikki xil so'z «*poli*»-ko'p va «*meros*»-qismdan tashkil topgan. Qaysi moddadan polimerlar olinsa, uni «*monomer*» deyiladi, polimerlar molekulalarini *makromolekulalar* deyiladi (grekcha «*makros*» – katta, uzun). Masalan, polietilenning qaytariluvchi zvenosi bo'lib $-\text{CH}_2\text{-CH}_2-$ guruhi hisoblanadi:



Formulada «*n*» monomerning qancha molekulasi o'zaro birikib polimerlanish jarayonida makromolekula hosil qilganini ko'rsatadi; uni *polimerlanish darajasi* deb ataladi, polimerlanish darajasi doimiy kattalik emas.

Sopolimer – ikki yoki undan ortiq xil monomerlardan tashkil topgan polimer, masalan:




Polymerlar – chiziqsimon, shoxlangan yoki uch o'lchamli tikilgan (setkasimon) zanjirga ega bo'lishi mumkin.

Chiziqsimon polimerlar – zich joylashganligi bilan xarakterlanadi, shuning uchun bunday polimerlar yuqori zichlik, zanjirning uzilish mustahkimligiga va yuqori suyuqlanish haroratiga ega bo’ladi (masalan, yuqori bosimli polietilen).

Shoxlangan polimerlar - tartibsiz joylashishi bilan xarakterlanadi, shuning uchun zanjir uzilishiga bir munkcha kam mustahkamlikka ega bo'ladi va past suyuqlanish haroratiga ega bo'ladi (masalan, *kraxmal-amilopektin*).

Tikilgan (payvandlangan) yoki setkasimon polimerlar – yuqori qattiqlik, mustahkamlik va noziklik bilan xarakterlanadi (masalan, bakelit smolası).

Tuzilishiga ko'ra polimerlar – *regulyar* yoki *noregulyar* bo'lishi mumkin. Nosimmetrik monomer zvenolari o'zarो bir-biri bilan quyidagi ko'rinishda birikishi mumkin:



Qizdirilganda yumshaydigan va eriydigan, shuning uchun ham turli formalli mahsulotlar quyishda ishlataladigan plastiklar *termoplastlar* deyiladi. Masalan, *polietilen*, *pleksiglas* (*polimetilmekatrilit*). Termoplastlar qatoriga asosan, chiziqsimon polimer yoki sopolimerlar kiradi.

Uch o'lchamli setka strukturali plastiklar qizdirilganda qiyin yumshaydi, shuning uchun, ularni qayta eritib mahsulotlar tayyorlab bo'lmaydi. Bunday plastiklar *termoreaktiv plastiklar* deyiladi. Bunday plastiklar qattiqligi va erimasligi bilan xarakterlanadi.

Masalan, *fenol smolalari*, *aminoplastlar*, *epoksid smolalari*, *to'yinmagan poliefir smolalari* va h.k.

Bir qancha molekulalarning o'zaro kovalent bog' orqali birikib yuqori molekulyar modda hosil qilish reaktsiyasi *polimerlanish* deb ataladi.


Polimerlanish reaktsiyasida polimerdan boshqa qo'shimcha modda hosil bo'lmaydi, ya'ni reaktsiyada monomerning boshlang'ich tarkibi o'zgarmaydi. Tarkibida bir, ikki va undan ko'p qo'sh bog'li polienlar, atsitilen va uning vinil xosilalari yoki siklik tuzilishdagi ko'pchilik moddalar polimerlanish reaktsiyasiga kirisha oladi. Polimerlanish natijasida to'yinmagan bog'lar kamayib to'yingan bog'larga aylanadi.

Tabiiy va sintetik kauchuk


Tabiiy kauchuk, kimyoiy tarkibga ko'ra yuqori molekulyar to'yinmagan uglevodorod bo'lib, tarkibi $(C_5H_8)_n$, bunda n 1000 dan 3000 gacha bo'ladi. Tabiiy kauchuk – izoprenning polimeri:



Sanoat miqyosida sintetik kauchuk dastlab 1932 yilda S.V.Lebedev usuli bilan olingan. Lebedev usuli bo'yicha sintetik kauchuk olish uchun xom ashyo sifatida etil spirti ishlataladi:



etyl spirti *butadien-1,3*



butadien-1,3 *sintetik kauchuk
(polibutadien)*

Rezinalarning ayrim fizik xossalari.

Sintetik kauchuk xili	Monomer tarkibi	Aktiv tuldiruvchi (kurum)li rezinalarning xossalari.	
		Ishlatilishning temperatura ($^\circ\text{C}$) oralig'i.	Nisbiy cho'zilish, % da.
Butadien-noregulyar (SKB)	Butadien	-52 dan Q150 gacha	350-450
Butadien-stereoreg.	Butadien	-110 dan +150 gacha	400-600

(SKD) Butadien-stirol	Butadien (72%) stirol (28%)	-68 dan +150 gacha	550-650
Butadien-nitril	Butadien (74%) akrilonitril (26%)	-47 dan +160 gacha	600-700
Izopren-stereoreg. (SKI)	Izopren	-110 dan +150 gacha	600-800
Tabiiy	Izopren	-71 dan +150 gacha	600-850
Xloropren	Xloropren	-57 dan +170 gacha	600-700

Tabiiy va sintetik kauchuklarning sifatini yaxshilash uchun ular rezinaga aylantiriladi.

Reaktsiyada suv, spirt, ammiak, xlorid kislota va shunga o'xshash past molekulyar moddalar ajralib chiqishi bilan boradigan reaktsiyalar (polimerlanish jarayonlari) *polikondensatlanish* deyiladi.


Polikondensatlanish reaktsiyasi natijasida hosil bo'lgan polimerlarning elementar tarkibi past molekulyar moddalar ajralganligi sababli, reaktsiya uchun olingan monomerlar tarkibidan farq qiladi. Bunday reaktsiyaga kirisha oladigan monomerlar tarkibida ikki xil funktional guruh o'zaro reaktsiyaga kirishib, molekula qoldiqlarini bir-biriga "tikadi" (bog'laydi). Polikondensatlanish reaktsiyasiga, tarkibida ikki yoki undan ortiq turli funktional guruhlari bo'lgan moddalar kirisha oladi. Agar bir moddanang ikki xil funktional guruhlari o'zaro reaktsiyaga kirishib polimer hosil qilsa, bunday reaktsiya *gomopolikondensatlanish* deyiladi. Bunday reaktsiyaga aminokislotalar, aminospirtlar va oksikislotalarning polikondensatlanishi misol bo'la oladi.

Agar reaktsiyada funktional guruhlari bir xil bo'lgan bifunktional guruhli ikki modda qatnashsa, bu reaktsiya *geteropolikondensatlanish* deyiladi. Masalan, geksametilendiamin va adipin kislotadan polgeksametenadipinamid hosil bo'lishi.

Eng muhim polimerlarga doir umumiy obzor.

Polimerning nomi	Monomer	Polimer formulasi	Sintez usuli	Qo'llanilishi
Polietilen (PE)	$\text{CH}_2=\text{CH}_2$ <i>etilen</i>	$(-\text{CH}_2-\text{CH}_2-)_n$	CC P	Turli apparat detallari, vodoprovod, zax yerlarning namini tortadigan va boshqa quvurlar, turli polietilen pardalar, uy-ro'zgor


				buyumlari tayyорл. ishlatiladi
Polipropilen (PP)	$\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CH}_3$ <i>propilen</i>	$(-\text{CH}_2-\overset{\text{CH}}{\underset{\text{CH}_3}{\text{CH}}})_n$	CC P	Polietylenga qaraganda juda xam pishiq. Turli apparatlarning detallari, yupqa pardalar, arqon, quvur, yuqori darajadagi izolyasion materiallar tayyorl. ishlataladi
Polivinilxlorid (PVX)	$\text{CH}_2=\overset{\text{CH}}{\underset{\text{Cl}}{\text{CH}}}$ <i>vinilxlorid</i>	$(-\text{CH}_2-\overset{\text{CH}}{\underset{\text{Cl}}{\text{CH}}})_n$	CC P	Sun'iy charm, plash, klenka, quvurlar, elektr simlari uchun izolyasiyon material.
Polistirol (PS)	$\text{CH}=\overset{\text{CH}_2}{\underset{\text{C}_6\text{H}_5}{\text{CH}_2}}$ <i>vinilbenzol</i>	$(-\text{CH}_2-\overset{\text{CH}_2}{\underset{\text{C}_6\text{H}_5}{\text{CH}}})_n$	CC P	Elektr-izolyatlarning materiallar, kislotaga chidamlı quvurlar, turli uy-ruzg'or buyumlar, penoplastlar (yengil g'ovakli materiallar).
Polivinilidenxlorid (PVDX).	$\text{CH}_2=\text{CCl}_2$ <i>vinilidenxlorid</i>	$(-\text{CH}_2-\text{CCl}_2)_n$	CC P	Hidni o'tkazmaydigan plenkalar, qo'girchoqlarning yonmaydigan sochlari
Polimetilmetakrilat (PMMA)	$\text{CH}_2=\overset{\text{C O O C H}_3}{\underset{\text{C H}_3}{\text{C}}} \text{O C H}_3$ <i>metilmetakrilat</i>	$(-\text{CH}_2-\overset{\text{CH}_3}{\underset{\text{COOCH}_3}{\text{C}}})_n$	CC P	Shaffof plastmassa, silikat shishadan ancha mustaxkam bo'lgan organik shisha (samo-lyot va turli apparat xamda asboblarni himoya qilishda ishlataladi)
Politetraftoretilen (PTFE)	$\text{CF}_2=\text{CF}_2$ <i>tetraftoretilen</i>	$(-\text{CF}_2-\text{CF}_2)_n$	CC P	Elektroizolyatsiya, skvorodkalarni qoplash
Polimetilen-oksid (PMO)	CH_2O <i>formaldegid</i>	$\text{CH}_3\text{COO}(\text{CH}_2)_n\text{COCH}_3$	CO PK	Pretsizion detallar (masalan, o'yinchoq temir yo'llar)
Polietilentereftalat (PET)	$\text{HOCH}_2\text{CH}_2\text{OH}$ <i>etilenglikol</i>	$(-\text{O}(\text{CH}_2)_2\text{OCOC}_6\text{H}_4\text{CO})_n$	CO PK	Tolalar, butilkalar.
Poliamid-6 (PA-6) (naylon-6)	$\text{C H}_2\text{--C H}_2\text{--C H}_2\text{--C = O}$ <i>kaprolaktam</i>	$(-\text{NH}-(\text{CH}_2)_5\text{CO})_n$	CO PSO	Tolalar va shesternalar.

Fenolformaldegid smola (FFS)	 <i>fenol</i>		CC PK	Turli xil plastmassalar (fenoplastlar).
CH ₂ O <i>formaldegid (metanal)</i>				

PK-polikondensatsiya; PSO-tsiklning ochilishi bilan boradigan polimerlanish; CC-uglerod-uglerod qo'sh bog'li monomerlarning polibirikishi; CO-CC ga o'xshash, lekin uglerod-kislorod qo'sh bog'lari bilan.


Sintetik tolalar

Sintetik tolalar ham turli plastmassalar va smolalar singari, polikondensatlanish reaksiyasi maxsuloti hisoblanadi. Tabiatda uchraydigan hamda, sintetik va sun'iy yo'l bilan olinadigan eng muhim turdag'i tolalarning sinflari quyidagi sxemada keltirilgan:




Sintetik tolalardan eng muhimlarini ko'rib chiqamiz.


Laysan (poliefir tola), etilenglikol bilan benzol-1,4-dikarbon (tereftal) kislotani qo'shib qizdirilganda hosil bo'ladi:




Nylon. Nylon ham polikondentsiyalanish reaktsiyasining maxsuloti bo'lib hisoblanadi. Uni sintetik tola sifatida keng miqyosda ishlataladi. Nylonning juda ham ko'p xillari mavjud bo'lib, ularning barchasi poliamidlar bo'lib hisoblanadi. Masalan: Geksan-1,6-diiodixloridning geksan-1,6-diamin bilan qo'shib qizdirilishi natijasida *nylon-6.6* hosil bo'ladi.



Kaprolaktamning juda oz miqdordagi suv bilan qo'shib qizdirilishi natijasida *nylon-6* hosil bo'ladi. Kaprolaktam geterotsiklik birikma bo'lib, fenoldan quyidagicha bosqichmabosqich sintez qilinadi:



Nitron. Akrilonitrilni katalizatorlar ishtirokida qizdirishorqali poliakrilonitril (*nitron*) tolasi olinadi. U sintetik sherst sifatida ishlataladi: masalan:



Jadval:

Eng asosiy poliamidlar.

Poliamid	Formula	T _{suyuq.} °C	Tola
Poligeksametilen-adipamid.	$\text{HOOC}(\text{CH}_2)_4\overset{\text{O}}{\underset{\text{H}}{\text{N}}} - \left[(\text{CH}_2)_6\overset{\text{H}}{\underset{\text{O}}{\text{N}}}(\text{CH}_2)_4\overset{\text{O}}{\underset{\text{H}}{\text{N}}} \right]_n - (\text{CH}_2)_6\text{NH}_2$	250	Anid (AQSH naylon-6,6)
Poli-ε-kaproamid	$\text{HOOC}(\text{CH}_2)_5 - \left[\overset{\text{O}}{\underset{\text{H}}{\text{N}}}(\text{CH}_2)_5 \right]_n - \text{NH}_2$	225	Kapron (AQSH naylon-6, Germaniya perlon)
Poli-ω-enantoamid	$\text{HOOC}(\text{CH}_2)_6 - \left[\overset{\text{O}}{\underset{\text{H}}{\text{N}}}(\text{CH}_2)_6 \right]_n - \text{NH}_2$	223	Enant (AQSH naylon-7)
Poli-ω-undekanamid	$\text{HOOC}(\text{CH}_2)_{10} - \left[\overset{\text{O}}{\underset{\text{H}}{\text{N}}}(\text{CH}_2)_{10} \right]_n - \text{NH}_2$	180-185	Undekan (AQSH naylon-11, Frantsiya rilson).

TAYANCH SO'ZLAR

Polimer, monomer, makromolekula, polimerlanish darjası, sopolimer, izomeriya, nomeklatura, gomologik qator, polimer zanjir turları, polimerlanish, tabiiy va sintetik kauchuk, polikonsetlanish, tola

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Polimerlanish deb qanday reaksiyaga aytildi? Misollar keltiring. Polimerlanish darajasi nima? Uning fizik mohiyatini tushuntiring.
 2. Monomer nima? Struktura zvenosi nima? Qanday birikmalar monomer bo'la oladi?
 3. Polimerlanish reaksiyalari qanday bosqichlarga bo'linadi? Aktiv markazlar qanday usullar bilan hosil qilinadi?
 4. Tabiiy polimerlardan qaysilarini bilasiz? Ularning ahamiyatini izohlang.

- Enant, neylon, xlorin, nitron va lavsan tolalar olishda qaysi moddalardan xom ashyo sifatida foydalaniadi?
- Polivinilxloridning molekulyar massasi 350000 ga teng bo'lsa, yning molekulasiida nechta monomer zveno bor?
- Tarkibida 5% (massasiga ko'ra) oltingugrt bo'lган 200 kg rezina olish uchun, divinil (butadiyen) kauchugiga qo'shilishi kerak bo'lган SCl_2 ning massasini aniqlang. Tegishli vulkanlanish reaksiya tenglamasini yozing. [Javob: 32,18 g]
- Butadiyen-nitril kauchugining o'ttacha nisbiy molekulyar massasi 395000 bo'lsa, polimerlanish darajasini aniqlang. Polimer olish reaksiya tenglamasini yozing. [Javob: 500]

23 -MAVZU. ORGANIK BIRIKMALARDA BO'LADIGAN IZOMERIYA TURLARI

Reja:

- Tuzilish (struktura) izomerlar
- Dinamik izomeriya (tautomeriya).
- Fazoviy izomeriya yoki stereoizomeriya..
- Ko'zgu izomeiyasi
- Qo'sh bog' saqlagan birikmalar qatoridagi fazoviy izomeriya.

Organik birikmalarda bitta tarkibga ega bo'lган moddaga bir necha har hil tuzilishi birikmalar to'g'ri kelishi mumkin. Bu hodisa **izomeriya** deb ataladi. Organik kimyoning rivojlanishi jarayonida izomeriya tushunchasi chuqurlashib, fazoviy kimyo tasavvurlari hisobiga yangi mazmun bilan boyidi. Hozirgi vaqtida izomerlar deb, tarkibi bir hil, ammo tabiatini yoki atomlar orasidagi bog'larning ketma-ketligi va ularning fazoda joylashishi bilan farqlanadigan birikmalarga aytildi. Shu yangi ta'rifga ko'ra izomerlar quyidagi asosiy turxga bo'linadi:

Parafin (alkan)lar qatoridagi izomerlar soni.

Moddalar formulasi	Izomerlar soni		Moddalar formulasi	Izomerlar soni	
	Bo'lishi mumkin	Ma'lum		Bo'lishi mumkin	Ma'lum
C_3H_8	1	1	$\text{C}_{11}\text{H}_{24}$	159	27
C_4H_{10}	2	2	$\text{C}_{12}\text{H}_{26}$	355	41

C_5H_{12}	3	3	$C_{13}H_{28}$	802	32
C_6H_{14}	5	5	$C_{14}H_{30}$	1858	29
C_7H_{16}	9	9	$C_{15}H_{32}$	4347	28
C_8H_{18}	18	18	***	***	***
C_9H_{20}	35	35	$C_{20}H_{42}$	366319	23
$C_{10}H_{22}$	75	71	$C_{70}H_{142}$	$5 \cdot 10^{26}$	1

Tuzilish izomeriyasida ,moddalar kimyoviy tuzilishi bilan o'zaro farqlanadi, shuning uchun ular **tuzilish izomerlari** deb ataladi.

To'yingan bir atomli spirtlar qatoridagi izomerlar soni.


Spirtning formulasi.	Izomerlar soni		Xuddi shuncha uglerod atomli parafinlar-dagi bo'lishi mumkin bo'lgan izomerlar soni
	Nazariy bo'lishi mumkin.	SHulardan ma'lumlari.	
CH_3OH	1	1	1
C_2H_5OH	1	1	1
C_3H_7OH	2	2	1
C_4H_9OH	4	4	2
$C_5H_{11}OH$	8	8	3
$C_6H_{13}OH$	17	17	5
$C_7H_{15}OH$	43	37	9
$C_8H_{17}OH$	93	57	18
$C_9H_{19}OH$	225	67	35
$C_{10}H_{21}OH$	543	70	75

1. Tuzilish (struktura) izomerlar bir qator gruppalarga bo'linadi:


a) Uglerod zanjiri (skeleti) izomeriyasi;




butan



izobutan




Antratsen




Fenantren

b) Holat izomeriyasi;




buten-1



buten-2



butanol-1




butanol-2

c) Birgalikda joylashish holat izomeriyasi;




geksandion-3,4




pirokatexin



geksandion-2,5



rezortsin



gidroxinon

g) Metameriya, molekula tarkibiga kiruvchi bir necha uglevodorod radikallaridagi uglerod atomining soniga bog'liq bo'lувчи izomeriya turi;



sirka kislotasining etil efiri (etilatsetat)



propion kislotasining metil efiri (metilpropionat).




dimetilamin



etilamin


2. Dinamik izomeriya (tautomeriya).



*atsetosirka efiri
(keton forma)*




*atsetosirka efiri
(enol forma)*




3. Fazoviy izomeriya yoki stereoizomeriya.

Bu izomeriyada atomlarning fazoda joylashuviga hisobiga yangi izomerlar hosil bo'ladi. Masalan:




Sis-izomerda, radikallar fazo tekisligining bir tomonida joylashgan bo'lsa, trans-izomerda esa aksincha, funktsional gruppa yoki radikallar fazo tekisligining turli tomonlarida joylashgan bo'ladi. Stereoizomerianing bunday turi *geometrik* yoki *tsis-trans izomeriya* deb yuritiladi.

Atomlarning molekula ichida fazoda bir yoki bir necha - bog'lar atrofida aylanishidan hosil bo'ladigan morlekulalarning turli holatlariiga *konformatsiya* (lotincha *conformis* – o'xhashi) deb ataladi. Binobarin, konformatsion izomerlar (*konformerlar*) – bu fazoviy izomerlar bo'lib, ular orasidagi farq molekulaning ayrim qismlarini oddiy bog' atrofida aylanishi natijasida kelib chiqadi. Konformatsion izomerlar etanning *to'silgan* va *to'xtatilgan* konformatsiyalari, tsiklogeksanning esa *kreslo* va *qayiq* shakllari misol bo'ladi. Konformatsion izomerlarni alovida ajratib bo'lmaydi, ular faqat fizikaviy usullar yordamida aniqlanadi.



Rasm. Etanning to'silgan (*a*) va to'xtatilgan (*b*) konformatsiyalari: 1-nusxalarining yon tomonidan ko'rinishi; 2-nusxalarining yuqoridan ko'rinishi.

O'rribosarlar fazoda bir-biriga nisbatan eng yaqin holatda turgan konformatsiyalar eng yuqori energiyaga ega bo'ladi va to'silgan konformatsiyalar deyiladi.



O'rribosarlar fazoda bir-biriga nisbatan eng uzoq holatda joylashgan konformatsiyalar eng kam energiyaga ega bo'ladi va to'xtatilgan konformatsiyalar deyiladi.

4) Ko'zgu izomeiyasi.


Optik izomeriya ham fazoviy izomeriyaning bir turi bo'lib, bu izomeriya, to'rtta har xil o'rribosarlar tutgan sp^3 -gibridlangan atom (uglerod, azot, kremniy, germaniy va boshqalar) tutgan organik birikmalarida kuzatiladi. Bunday atom *xiral atom* deyiladi. Organik birikmalar ichida uglerodning xiral atomini saqlagan birikmalar eng katta ahamiyatga ega. Bunday uglerod atomida simmetriya elementlari yo'qligi tufayli uni yana *assimetrik uglerod atomi* ham deyiladi va S^* kabi belgilanadi. Assimetrik uglerod atomlari soniga ko'ra optik izomerlar bir nechta bo'lishi mumkin. Molekuladagi assimetrik uglerodlar soniga ko'ra asosan quyidagi formula orqali izomerlar soni aniqlanishi mumkin:

$$N=2^n$$

N-optik izomerlar soni
n-assimetrik uglerodlar soni.

Ba'zi suyuq organik moddalardan yoki ularning eritmalaridan qutblangan nur o'tkazilsa, nuring qutblanish tekisligini o'ngga yoki chapga burish mumkinligini aniqlangan. Bunday moddalar *optik aktiv moddalar* deyiladi, hamda ular ikki xil optik izomerlar hosil qiladi. Ulardan biri qutblanish tekisligini o'ng tomonga, boshqasi esa chap tomonga buradi. Agar qutblanish tekisligini o'ngga burilsa – (+) yoki *D* (*dextrum*-o'ng) bilan, chapga burilsa – (-) yoki *L* (*laevus*-chap) bilan belgilanadi. Bunday izomerlarga *antipodlar* deyiladi (grekcha “*xupo*” -qarama-qarshi). Agar aralashmadagi izomerlar soni bir xil bo'lsa (har bir D va L izomerlardan 50% dan), bular *ratsematlar* deb yuritiladi.


Optik izomerlar bir-biridan o'zining ko'zgudagi aksi kabi farq qilganligi uchun ham *ko'zgu izomeriyasi* deb yuritiladi.




Rasm. Sut kislotasining enantiomerlari (antipodlari)

Qo'sh bog' saqlagan birikmalar qatoridagi fazoviy izomeriya.

Qo'sh bog' tutgan uglerod atomlaridagi bir xil o'rinosarlar π -bog' tekisligiga nisbatan bir tarafda (*tsis*-izomer) yoki har hil tarafda (*trans*-izomer) joylashishi mumkin. Bunday joylashish *tsis*-va *trans*-izomerlar deb ataladigan fazoviy izomerlarning vujudga kelishiga olib keladi. Masalan buten-2 quyidagi ikkita fazoviy izomerlar holida bo'ladi:




Cis-izomer




Trans-izomer

Sis-trans izomeriyaning vujudga kelishining sababi π -bog' atrofida uni uzmay turib erkin aylanishning mumkin emasligidir. *Sis-trans* izomerlar bir-biriga nisbatan diasteriomerlar, anqrog'i π -diastereomerlardir. Masalan, butendikislota NOOS-SNqSN-SOON ikkita π -diastereomer- molein (*tsis*-izomer) va fumar (*trans*-izomer) kislotalar ko'rinishida bo'ladi:




Sis-izomer
(malein kislota)




Trans-izomer
(Fumar kislota)

π -Diastereomerlarni belgilash uchun uzoq vaqt davomida *tsis*-va *trans*- old qo'shimchalaridan foydalanilgan. Biroq, qo'sh bog' bilan bog'langan uglerod atomlarida har hil o'rribosarlar bo'lгganda, belgilashning bu usuldan foydalanib bo'lmaydi. Shuning uchun ham hozirgi vaqtida π -diastereomerlarni belgilash uchun *E,Z-sistemadan* foydalaniladi. Bu sistema o'rribosarlarning kattaligini aniqlashga asoslangan bo'lib, kattalik o'z navbatida, o'rribosarlardagi atomlar tartib raqamini aniqlash bilan topiladi.

Katta o'rribosarlar π -bog' tekisligining *bir tarafida* joylashgan π -diastereomer *Z*, *har xil tarafda* joylashgan π -diastereomer esa *E* xarflari bilan belgilanadi (*Z-nemische zusammen*-birga, *E* esa *entgegen-qarama-qarshi* tomonda so'zidan olingan). Masalan, *1-brom-1-yod -2-xloreten* $\text{CBrI}=\text{CHCl}$ quyidagi ikkita π -diastereomer ko'rinishda bo'ladi.



Z-izomer



E-izomer

I (53) < *Br* (35) < *Cl* (17)

C-1 da katta o'rribosar -*I*, *C-2* da esa -*Cl*.

BA'ZI RADIKALLARNING NOMLANISHI

Formulasi	Nomi	Formulasi	Nomi
ALKILLAR VA TSIKLOALKILLAR			
CH_3-	<i>Metil</i>	$\text{CH}_2-(\text{CH}_2)_4-$	<i>Pentil (amil)</i>
C_2H_5-	<i>Etil</i>	$(\text{CH}_3)_2\text{CHCH}_2\text{CH}_2-$	<i>Izopentil (izoamil)</i>
C_3H_7-	<i>Propil</i>	$(\text{CH}_3)_3\text{C}-\text{CH}_2-$	<i>Neopentil</i>
$(\text{CH}_3)_2\text{CH}-$	<i>Izopropil</i>		<i>Tsiklopropil</i>
$\text{CH}_3-(\text{CH}_2)_3-$	<i>Butil</i>		<i>Tsiklobutil</i>
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}(\text{CH}_3)-$	<i>Ikkilamchi butil</i>		<i>Tsiklopentil</i>
$(\text{CH}_3)_2\text{CH}-\text{CH}_2-$	<i>Izobutil</i>		<i>Siklogeksil</i>
$(\text{CH}_3)_3\text{C}-$	<i>Uchlamchi butil</i>		
Alkenillar va alkinillar			
$\text{CH}_2=\text{CH}-$	<i>Vinil</i>	$\text{CH}\equiv\text{C}-$	<i>Etinil</i>
$\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CH}_2-$	<i>Allil</i>	$\text{CH}_3-\text{C}\equiv\text{C}-$	<i>Propinil</i>
$\text{CH}_3-\text{CH}=\text{CH}-$	<i>Propenil</i>	$\text{CH}\equiv\text{C}-\text{CH}_2-$	<i>Propargil</i>
$\text{CH}_2=\text{C}(\text{CH}_3)-$	<i>Izopropenil</i>		
$(\text{CH}_3)_2\text{C}=\text{CH}-$	<i>Izobutenil</i>		
ALKILIDENLAR			
$\text{CH}_3-\text{CH}=$	<i>Etiliden</i>	$(\text{CH}_3)_2\text{C}\equiv$	<i>Izopropiliden</i>
$\text{CH}_3-\text{CH}_2-\text{CH}=$	<i>Propiliden</i>		<i>Siklogeksiliden</i>
ARIL RADIKALLAR			
C_6H_5-	<i>Fenil</i>		<i>o- kumil</i>
$\text{C}_6\text{H}_5-\text{CH}_2-$	<i>Benzil</i>		<i>α - naftil</i>
$\text{CH}_3-\text{C}_6\text{H}_4-$	<i>Tolil (o-,m-,n-)</i>		<i>β - naftil</i>

	Mezitil	C ₆ H ₅ -CH=CH-	Stiril
(C ₆ H ₅) ₃ C -	Tritil	C ₆ H ₅ - CH =	Benziliden

KISLORODLI RADIKALLAR

	Alkoksil	Asil	
CH ₃ O -	Metoksi	HCO -	Formil
C ₂ H ₅ O -	Etoksi	CH ₃ -CO -	Atsetil
C ₃ H ₇ O -	Propoksi	C ₂ H ₅ -CO -	Propionil
C ₆ H ₅ O -	Fenoksi	(CH ₃) ₂ CH-CO -	Izobutiril
C ₆ H ₅ -CH ₂ -O -	Benzoksi	C ₆ H ₅ -CO -	Benzoil

AZOTLI RADIKALLAR

CH ₃ -CO-NH -	Atsetilamin	- NH -	Imin
H ₂ N-NH -	Gidrazin	HCO - NH	Formilamin
(CH ₃) ₂ N -	Dimetilamin		

TAYANCH SO'ZLAR

Izomeriya, tuzilish (struktura) izomerlar, metameriya, dinamik izomeriya, konformatsiya, antipod, ratsemat

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- Uglerod atomining qo'zg'almagan va qo'zg'algan (sp^3 -, sp^2 -, sp -gibrildanish) holatlarining elektron tuzilishini yozing.
- A.M.Butlerovning kimyoviy tuzilish nazariyasining asosiy mazmunini ta'riflang.
- Uglerod atomining elektron tuzilishi qanday? Atom tuzilishi nuqtai nazaridan uning valentligini qanday tushuntirish mumkin?

4. Moddalarning emperik va molekulyar formulalarini aniqlash uchun modda haqida qanday ma'lumotlarga ega bo'lish lozim?
5. Moddalarning qaynash va suyuqlanish haroratlari qanday usullar bilan aniqlanadi?
6. Qayta kristallash va sublimatsiyalash yo'li bilan tozalash usullarining shakli va mohiyatida qanday farq bor?
7. Izomeriya hodisasi deb nimaga aytildi? Uning qanday turlari mavjud?
8. Atomdagi elektronlarning holati qanday kvant sonlar bilan xarakterlanadi?

ORGANIK KIMYODAN QIZIQARLI MA'LUMOTLAR

1 t bug'doy yetishtirish uchun 15 000 t atrofida, 1t paxta yetishtirish uchun esa 10 000 t suv sarflandi.

1 t quruq yog'och qipig'idan taxminan 200 l etanol olish mumkin. Shuncha miqdor spirt 0,7 t don yoki 1,5 t kartoshkadan olinadi.

1 t quruq torfdan taxminan 150 l gacha etanol olinadi.

105 yilda pekinlik saroy amaldori say Lun kanop, zig'ir tolalari va lattadan **qog'oz** yasagan. O'sha vaqtarda Xitoy imperatorining eng aqlli maslahatchilarini ham qog'ozning insoniyat uchun qanday rol o'yashini aytil berolmas edilar.

1493 yil Xristofor **Kolumb** Gaita orollarida kauchuk koptok o'ynab yurgan maxalliy kishilarini ko'rjan.

1745 yil Rossiyada neft tozalanadigan birinchi zavod Uxtinskiy neft korxonasida qurilgan.

1747 y. berlinlik dorishunos Margraf xo'raki lavlagi tarkibida 6% ga yaqin qand borligini aniqladi. 1801 y. K.Axard raxbarligida birinchi qand zavodi qurildi. 1828 yilda Fransiyada 58 ta Kand zavodi bor edi.

1779 yil Gliterinini birinchi marta K.V.**Sheele** va so'ng M.E.**Shevrel** olgan (1813).

1801 yil **K.Axard** raxbarligida birinchi qand zavodi qurildi.

1812 yil K.S.**Kirxof** kraxmalni suylutrilgan sulfat kislota bilan qizdirish natijasida glyukoza xosil bo'lganini aniqladi. Reaksiya oxiriga yetguncha kislota surʼat bo'lmadi, Berselius shunday reaksiyalarni katalitik reaksiyalar deb atadi.

1820 y Fransiyada kauchuk va to'qima tolalaridan to'qilgan tasmalar tayyorlashni o'rgandilar. Angliyada **Makintosh** ikki qavat mato orasiga yupqa qavat kauchuk qo'yib, bunday materialdan suv o'tmaydigan palto tikishni tavsija qildi. Lekin bu palto qishda sovuqda qattiq bo'lib qoldi, yozda esa issiqa yumshab sitilib ketdi.

1823 yil Aka-uka **Dubninlar** birinchi bo'lib neft haydaladigan qurilma yaratdilar.

1823 yildan boshlab Dubninalar Mozdokdan Rossiya ichkarisiga ko'p ming pud «fotogen» (kerosin)ni tashiy boshladilar.

1824 yil F.**Vyoler** anorganik moddalardan organik moddalarni: oksalat kislotani, oldi.

1824 yil fevralda Peterburgning qora daryosi bo'yida **Ovsin** orginal pech qurdi. Bunday pech yordamida daraxtni quruq haydashning hamma mahsulotlari ushlab qolinishi mumkin bo'lgan.

1827 yilda birinchi ximiya darsligi nashr qilingan. Uning avtori I.**Berselius** edi.

1827 yilda shved kimyogari **I.Ya.Berselius** organik birikma va organik kimyo tushunchalarini kiritdi.

1828 yilda **F.Vyoler** mochevinani oldi.

1828 yilda Fransiyada 58 ta qand zavodi bor edi.

1832 yil rus olimi N.N.**Zinin** anilinni sintez qildi.

1833 yil Amerikada neftni haydashning birinchi tajribalarini **Silliman** joriy etdi.

1839 yil Amerikalik **Charlz Gudir** kauchuk mato ustiga oltingugurt sepib pechka ustiga qo'yganda yumshab rezina hosil bo'lganini ko'rди.

1842 yil etil efirini birinchi bo'lib Amerika Qo'shma Shtatlarida **Long** jarrohlikda qo'llagan.

1842 yilda **Zinin** Nikolay Nikolaevich –aromatik nitrobirikmalarining qaytarilish reaksiyasini kashf etdi va anilin xosil qildi. U rus kimyogarlarining maktabini asoschisi bo‘ldi. Bu maktabda Butlerov, Beketov, Borodin va boshqa olimlar tahsil ko‘rishgan.

1844 yilda G.Ya.**Mulder** oqsillar tarkibiga kiruvchi atomlar gruppasidan iborat radikalni «protein» (birlamchi) deb atadi.

1845 yil A.V.**Kolbe** sun’iy yo‘l bilan sirkva kislotani sintez qildi.

1846 yil **Djekson** va **Morton** lar etil efirini jarrohlikda qo‘llagan.

1848 yil nemis olimi G.**Kolbe** va ingлиз олими **Frankland** sirkva kislotani sintez qildi.

1851 yil **Bertlo** Benzol, fenol, naftalinni oldi.

1851 yil Fenolni birinchi marta P.E.**Bertlo** undan keyin Sh.A.**Vyurs** olgan (1867).

1853 yildan boshlab Rossiyada rus armiyasiga qurol yetkazib beradigan otasiga qarashli «Nobel» firmasida ishlagan, dinamitni kashf etdi. Shved injener kimyogari Nitroglitserindan amalda foydalanish uchun uni nifuzor tuproqqa yoki daraxtning mayda qipig‘iga nitroglitserin shimdirlilib dinamitga aylantiriladi (avtori **Nobel**).

1854 yil **Bertlo** Per Ejen Marselen – stearin, palmitin, olein va boshqa yog‘larning analoglarini sintez qildi.

1854 yil M.**Bertlo** yog‘ni sintez qildi.

1854 yil P.E.**Bertlo** sulfat kislotasi ishtirokida etilenni gidratlab etil spirit sintez qilgan. Bungacha etil spirit faqat uglevodlarni bijg‘itib olinar edi.

1855 yil **Vyurs** Sharl Adolf metilamin, etilamin, fenol va etilen oksid kabi moddalarni ixtiro va sintez qilgan.

1855 yilgacha shakarqamish qandi ko‘plab ishlab chiqarilar edi. So‘ng shakarqamish va lavlagi qandini ishlab chiqarish tenglashib qoldi, 1890 yillardan esa shakarqamish qandiga qaraganda lavlagi qandi ko‘proq chiqariladigan bo‘ldi.

1858 yilda nemis olimi **A.Kekule** uglerod atomining to‘rt valentli ekanligi xaqidagi g‘oyani e‘lon qildi.

1861 yil A.M.**Butlerov** qand moddasini sintez qildi.

1861 yil **Butlerov** Aleksandr Mixaylovich Organik moddalarning tuzilish nazariyasini yaratdi.

1862 yil **Bertlo** Suv va uglerod (II) oksiddan chumoli kislotasi sintez qildi.

1865 yil F.A.**Kekule** benzolga xalqali formulani taklif qildi.

1866 yil **Bertlo** Asetilen asosida bir qator aromatik uglevodorodlar oldi.

1869 yil **Markovnikov Vladimir Vasilevich** O‘rin olish, ajralish, biriktirib olish reaksiyalarining yo‘nalishi qoidalarni yaratdi. Neftdan sikloparafinlarni birinchi marta ajratib olgan.

1869 yilda F. **Misher** (shvesariyalik) leykotsitlarda yangi birikma borligini aniqladi va uni nuklein deb atadi. (nuklein kislotalarini kashf qildi)

1872 yil nemis kimyogari A.I.**Bayer** fenol va formaldegiddan smolasimon maxsulot olgan. Belgiyalik olim L.X.**Bakeland** bu moddani sanoatda ishlab chiqish uchun joriy etdi.

1881 yil rus olimi **M.G.Kucherov** asetilenga simob tuzlari katalizatorligida suv ta’sir ettirib aldegid oldi.

1888 yilda rus biokimyogari A.Ya.**Danilevskiy** oqsillarning molekulalarida takrorlanuvchi atomlarning peptid gruppasi mavjudligini ko‘rsatdi.

1890 yillardan esa shakarqamish qandiga qaraganda lavlagi qandi ko'proq chiqariladigan bo'ldi.

1901 yilda E.**Fisher** oqsillarni yemirilish mahsulotlaridan valin, prolin borligini kashf qilgan.

1922 y rus ximiklari N.D.**Zelinskiy** va B.A.**Kazan-skylar** 450—500°S temperaturada aktivlangan ko'mir ustidan *asetilen o'tkazib benzol* oldilar. Keyinchalik boshqa katalizatorlardan foydalanib, bu jarayonni ancha qulay sharoitlarda ham amalga oshirish mumkinligi aniqlandi.

1928 yil Lebedov Sergey Vasilevich 1,3-butadienni natriy ta'sirida polimerizatsiya qilib sintetik kauchuk oldi.

1932 yilda S.V.**Lebedov** usuliga ko'ra birinchi marta sintetik kauchuk ishlab chiqarila boshladi.

1936 yilda rus olimi A.N.**Belozerskiy** o'simliklar xujayrasida DNK borligini birinchi bo'lib aniqladi.

1951-1953 yillar F.**Senger** insulinni birlamchi strukturasi aniqlagan.

1953 yilda D.Uotson va F.Krik DNK ning qo'sh spiralli makromolekular modeli ishlab chiqildi.

1954 yilda birinchi bo'lib insulin oqsilining birlamchi strukturasi aniqlandi.

1982 yilda sun'iy yurak yaratish uchun turli materiallar ishlatishdi. Yurak korpusini alifatik poliuretan termoelastoplastdan, yurak qopqoqlarini ko'tarib turuvchi halqalar polikarbondan, qopqoqlarning o'zi esa titandan yasalgan edi. Poliuretan ustidan geparin payvand qilingan edi, geparin qonda laxtalar hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaydi.

2,4-dixlofenoksiksirka kislota va uning tuzlarining asosiy qo'llanilish doirasi don o'simliklarini himoya qilishdir. Bunday gerbitsidlar qo'llanganda faqat keng yaproqli o'simliklar nobud bo'ladi.

721-815 yillarda yashab yoo'tgan **Jobir ibn Xayyon** (Gaber) novshadil spirtni aniqlagan, oq bo'yoq tayyorlash usulini taklif qilgan, sirka kislotani xaydash orqali tozalash usulini o'rgangan.

973-1048 yillarda **Abu Rayxon Beruniy** tog' jinslari, minerallar, metallar va ko'plab birikmalarni o'rganib ularning xossalari haqida «Minerologiya» asarini yaratgan. «Kitob as-saydana» kitobida mineral dorilar xaqida fikr yuritgan.

980-1037 yillarda **Abu Ali ibn Sino** (Avisenna) «Risolat al-iksir», «Kitob ash-shifo», «Tib qonunlari» kabi asarlarida ko'pgina kislota, ishqor, shifobaxsh moddalarni tibbiyot amaliyotida qanday qo'llash haqida aytib o'tgan.

XIX asrning o'talarida Shved kimyogari **I.Berselius** yuzdan ortiq turli birikmalarni sintez qilgan.

XX asrning boshlarida E.**Fisher** 18 ta aminokislolar qoldig'idan iborat birikmani sintez qildi.

A.Kekule uglerod atomining to'rt valentli ekanligini e'lon qildi.

A.M.Butlerov *organik moddalarning tuzilish nazariyasini* o'zining «Organik ximiyanı to'liq o'rganishni amalga oshirish» darsligida batafsil bayon qilgan. Uning birinchi nashri 1864 yilda chiqqan.

A.M.Butlerov organik moddalarning ximiya tuzilish nazariyasining asosiy g'oyalarni 1861 yilda Shpeyerda tabiatshunoslarining qurultoyida «ximiya tuzilishi» xakidagi ma'rurasida bayon kilgan.

A.Ya.**Danilevskiy** oqsillarning molekulalarida peptid gruppasi mayjudligini ko'rsatdi. U mushak oqsillarini o'rganib, bu oqsil tarkibida antipepsin va antitripsin borligini aniqladi.

Agar benzinga 15% gacha metanol qo'shilsa, bu yoqilg'ini sezilarli darajada tejashga olib keladi. Metanolning o'zini to'g'ridan-to'g'ri ichdan yonar dvigatellarda ishlatish hozircha samarali emas.

Agar biror idishga ozgina benzin (spirit) solib va unga extiyotlik bilan yonib turgan gugurt cho'pi tutilsa, benzin (spirit) o'sha zahoti yonadi. Agar unga bir necha millilitr tetrahlorometan ko'shila, u holda olov o'chadi.

Agar zanglagan gaykani, masalan, avtomashina kollektoridan burab chiqarish kerak bo'lsa, u holda gaykani kechqurun sirkal kislotaga ho'llangan latta bilan o'rabi qo'yish tavsiya etiladi. Ertasiga gaykani burab olish ancha oson bo'ladi.

Agar etil spirit bilan konsentrangan sulfat kislota aralashmasi 140°S gacha qizdirilsa, etil efir hosil bo'ladi. Bu moddani birinchi bo'lib Amerika Ko'shma Shtatlarida Long (1842), Djekson va Morton (1846) lar jarrohlikda qo'llaganlar.

Aka-uka Dubininlar 1823 y birinchi bo'lib neft haydaladigan qurilma yaratdilar. 1823 yildan boshlab Dubininlar Mozdokdan Rossiya ichkarisiga ko'p ming pud «fotogen» (kerosin)ni tashiy boshladilar.

Alif qo'shilgan bo'yoqlar tarkibidagi karbon kislotalar qancha to'yinmagan bo'lsa shuncha oson quriydi (oksidlanadi). Qurish jarayonini quriyotgan yog'ochlar maxsus tezlatuvchilar-sikkativlar (qo'rg'oshin, marganes, kobalt tuzlari) qo'shib tezlatish mumkin. Yog'lar sikkativlar bilan qo'shib aralashtirilgandan keyin qizdiriladi.

Alkenlar ko'pincha olefinlar deb ham ataladi. Bu tarixiy nom XVIII asrlarda etilenning xlor bilan o'zaro ta'sirlashuvidan hosil bo'lgan mahsulot moysimon suyuq modda etilxlorid olingenidan so'ng paydo bo'ldi. Shunda etilen «yog' hosil qiluvchi» gaz (lot. gas defiant), «gollandiyalik kimyogarlar yog'i» deb atalgan.

Amerikada neftni haydashning birinchi tajribalarini 1833 y Sillnman joriy etdi.

Amerikalik ixtirochi **Charlz Gudir** (1800—1860) 1834 y *kauchukni* «qutqarishga» qattiq kirishdi. Ammo faqat 1839 y uning omadi keldi, u kauchuk qoplangan mato ustiga bir qavat oltingugurt sepib, so'ng shu matoni pechkaning ustiga qo'ydi. Bir oz vaqt o'tgandan so'ng charmga o'xshash, yopishmaydigan material (*rezina*) hosil bo'lganini ko'rди.

Atmosferani ko'p ifloslantiradiganlar tabiiy gaz bilan ishlaydigan TES lardir. Yuqori temperaturada pechlarda havodagi azot kislород bilan reaksiyaga kirishib azot oksidlarini hosil qilib TES trubalari orqali atmosferaga chiqariladi. Shuning uchun ham yangi energiya manbaarini tezroq o'zlashtirishga kirishish kerak.

Benzoy kislota bo'yoq ishlab chiqarishda qo'llaniladi. U juda yaxshi konservalovchi modda hamdir. Brusnika tarkibida benzoy kislota bo'lganligi uchun uning mevasi shakar solinmasa ham yaxshi saqlanadi.

Benzolni birinchi bo'lib 1851 y **P.E.Bertlo** olgan.

Bertlo (Vertelo) Per Ejen Marseley (1827—1907). Fransuz kimyogari, akademik, davlat arbobi. Stearin, palmitin, olein va boshqa yog'larning analogparini sintez qildi (1854). Etilenni gidratlab etil spirit oldi (1854). Birinchi bo'lib *benzol*, *fenol*, *naftalinni* oldi (1851). Suv va uglerod (II)-oksiddan *chumoli kislota* sintez qildi (1862). Asetilen asosida bir qator aromatik uglevodorodlar oldi (1866).

Bizning planetamizda o'rmon resurslari chegaralangan. Shuning uchun 2000 yilgacha plastmassalardan tayyorlangan qog'ozlar paydo bo'lib, ularning tarkibiga, masalan, polietilen, polipropilen, polivinixlorid va boshqa polimerlar kiradi. Plastmassalardan tayyorlangan qog'oz geografik haritalar, hujjatlar, perfokartalar va hokazolarni chop etishda muvaffaqiyat bilan ishlatalmoqda.

Bizning eramizdan 200 yil ilgari shakarqamishning shirin sharbatini xitoy va induslar ovqatga ishlatganlar. So'ng uni Misrda, Yunonda, Sitsiliyada o'stira boshladilar. Eramizning VIII asrlarida qattiq xoldagi qand eronliklarning savdo buyumi bo'lib hizmat qilgan.

Bir bo'lak qand ustiga ozgina sigaret kulini to'kib, qand alangaga tutilsa, ko'kimdir sariq alanga berib charsillab yonadi. Bu yerda kul katalizator vazifasini o'taydi.

Birgina yog'och chiqindisi emas, poxol, chor, don po'stloqlari, paxta sanoati chiqindilari, chala chirigan torf — bularning barchasi glyukoza, etanol va boshqalar kabi muhim mahsulotlar manbaalari bo'lib hizmat qilishi mumkin. Masalan, 1 t quruq torfdan taxminan 150 l gacha etanol olinadi.

Butlerov Aleksandr Mixaylovich (1828—1886). Rus kimyogari. Peterburg FA ning akademigi (1874 yildan). *Organik moddalarining tuzilish nazariyasining yaratuvchisi* (1861). Ko'p organik birikmalarning izomeriyasini oldindan aytib bergen va o'rgangan. Ko'p organik moddalarini sintez kilgan.

Vyoler Fridrix (1800—1882) Nemis kimyogari. Peterburg FA ning chet ellik a'zosi (1853 yildan). Uning tadqiqotlari ham anorganik ham organik ximiya sohalariga bag'ishlangan. *sianid kislotani* (1822) ixtiro qildi, aluminiy (1827), berilliyl va ittriy (1828) larni oldi.

Vyurs Sharl Adolf (1817—1884). Fransuz kimyogari, akademik. Ilmiy ishlari organik va anorganik ximiya taalluqli. Ko'p organik moddalarini (*metilamin, fenol, etilen oksid* va boshqalarni) ixtiro va sintez qilgan.

Geran (yorongul) ning hidi difenil efir $C_6H_5-O-C_6H_5$ ga hos, atirgullarning hidi esa feniletil spirt $C_6H_5CH_2CH_2OH$ ga xosdir.

Glitserinni birinchi marta **K.V. Sheelee** (1779) (va sung M.E. Shevrel olgan)(1813) Daraxt qipigi va fenolformaldegid smolalardan tayyorlangan plitalardan ishlangan mebellar ham inson uchun zararli ekan. Bunday plitalarni odam yashaydigan binolarga ishlatishga ham tavsiya etilmaydi. Bu plitalardan qurilgan uylar ham sog'liq, uchun xavfli. Bunday uylar masalan, Livanaxda (Latviyada) quriladi.

Daraxtni quruq haydab pista ko'mir olish qadimdan ma'lum edi. Lekin 1824 yil fevralda Peterburgning qora daryosi bo'yida Ovsin original pech qurdi. Bunday pech yordamida daraxtni quruq haydashning hamma mahsulotlari ushlab qolinishi mumkin bo'lgan.

Yer qobig'ida hammasi bo'lib uglerod 0,12% bor.

Yer qobig'inining o'n kilometrli qavatidagi issiqlik zapaslari planetamizning hamma yonuvchi moddalarining issiqlik berish quvvatidan 5000 marta yuqori. Geotermal suvlarning umumiyl dunyo zapasining o'zigina 700 mln m^3 ni tashkil etadi. Bu miqdor geotermal suvlari issiqlik energiyasining faqat 10% gina Elektr energiyasiga aylantirilsa, u 4 mlrd. yilga yetgan bo'lar edi. (Shu paytdagi energiya sarflash darajasiga hisoblaganda).

Yerning uch sutka davomida Kuyoshdan oladigan energiya miqdori tabiatdagi mayjud hamma ko'mir, gaz, neft va yog'och zapaslarini yoqishdan ajralib chiqishi

mumkin bo‘lgan energiyaga to‘g‘ri keladi. Bundan Kuyosh bizning sivilizatsiya talablarini biz o‘ylagancha isitilgan darajada qoniqtirish mumkinligini tushunish mumkin.

Jerar Sharl Frederik (1816—1856). Fransuz kimyogari, akademik. *Molekulada atomlarning o‘zaro ta’sirini* bиринчи bo‘lib aniqlagan. Organik birikmalarni sinflarga ajratishni taklif qilgan.

Juda *qadim* zamonalardan beri odamlar zararli hashoratlarga qarshi turli vositalardan foydalanadilar. Kadimgi Misrda moychechak (romashka) gulini quritib, maydalab insektitsid sifatida ishlatganlar. Hozirgi paytda turli sintetik insektitsidlardan eng kam zaharliси karbofosdir, lekin u bilan ishlashda *ham* xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish zarur.

Juda oz miqdordagi asetaldeggidan yangi ko‘kat hidi keladi.

Juftlashmagan elektronga va shuning uchun xam foydalanmagan valentlikka ega bulgan zarrachalar *erkin radikallar* deyiladi.

Zanglagan gaykani burab chiqarish kerak bo‘lsa, gaykani kechqurun sirka kislotaga xo‘llangan latta bilan o‘rab qo‘yish tavsiya etiladi.

Zelinskiy Nikolay Dmitrievich (1861—1953) Injener A.Kumant bilan hamkorlikda *gazniqob* (*protivogaz*) yaratdi (1916). Rus organik kimyogari, akademik. *Organik kataliz* ta’limotiga asos solganlardan biri. Neft ximiysi masalalari bilan shug‘ullangan. *Bir qator aminokislotalar, oksiaminokislotalar* va ko‘pgina boshqa organik moddalarni sintez qilgan. *Oqsil moddalarning gidroliz* jarayonlarini o‘rgangan.

Izoamil spirit sirka kislota bilan reaksiyaga kirishganda nok hidi, fenil etil spirit chumoli kislota bilan xrizantema xidi, benzil spirit va chumoli kislota jasmin hidi keladi.

Ingliz olimi **Xeuorzs** xalqaning o‘quvchiga qarab turgan tomonidagi uchta chizig‘ini qalin chiziqlar bilan tasvirlashni taklif etgan (masalan glyukozanining siklik formulasida).

Insulinning formulasi $S_{254}N_{377}N_{65}O_{75}S_6$

Ispaniya admirali **Xristofor Kolumb** o‘zining Gaiti orollariga qilgan sayoxatlari paytida (1493) kattagina qattiq koptok uynab yurgan mahalliy kishilarni ko‘rib qoldi. Qanchalik ajablanarli ko‘rinmasin, koptok yerga urilganda sakrab ancha yuqoriga ko‘tarilar edi. Kolumb bu qiziq modda (*kauchuk*) ning bir necha bo‘lagini vataniga olib qaytdi, lekin u o‘sha vaqtarda hech kimni qiziqtirmadi.

Keyingi yillarda dunyoda chumoli kislota ishlab chiqarishning umumiyo‘ hajmi o‘sib bormoqda. Bu dunyoning barcha mamlakatlarida asalarining kana [varroa] dan tashqari qirilishi bilan tushuntiriladi. Ular asalarining xitin qoplamasini kemirib gemolimfani so‘radi va asalarilar o‘ladi. Bu kanalarga qarshi ta’sir qiladigan vosita chumoli kislotadir.

Keyingi paytlarda qurilishda asosan rezinadan tayyorlanadigan rezina linoleum — relin keng qo‘llaniladigan bo‘ldi. Relin plitalar — rezina parket holida ishlatiladi.

Kekule Fridrix Avgust (1829—1896) Nemis organik kimyogari. Uning tadqiqotlari organik ximiya nazariyasiga va organik sintezga qaratilgan. Atomlar ega bo‘lgan o‘xshashlik birliklarini butun son-lar kabi ekanligini ko‘rsatib «valentlik» tushunchasini kiritgan (1857). *Uglerodni turt valentli* element deb hisoblagan (A. V. Kolbe bilan bir vaqtida).

Ketma-ket zanjirli o‘zgarishlar sodir bo‘ladigan reaksiyalar ***zanjirli reaksiyalar*** deyiladi.

Kichkina kolxoz qoshidagi ikkita pilorama bilan jixozlangan yog‘och tilish zavodi bir yilda 1 mln. l etanol ishlab chiqaradigan qipiqliq bilan ta’minlashi mumkin.

Kokslashda koks pechiga ko‘mir solinadi va isitish devorlari kanallarida gaz yoqlidi. Kokslash jarayoni 1000°С da sodir bo‘ladi va 14 soatga yaqin davom etadi. Hosil bo‘lgan koks pechlardan vagonlarga ortiladi. U yerda uni suv bilan o‘chirib, navlarga ajratiladi va metallurgiya zavodlarining domna pechlaridl ishlatalishga jo‘natiladi.

Krekning sanoat usulini 1891 yilda rus injeneri V. G. Shuhov ishlab chiqqan.

Kununyans Ivan Lyudvigovich fitorli, fosfor-organik, geterosiliklik birikmalar bilan ilmiy-tekshirish ishlarini olib borgan.

Ko‘p mamlakatlarda olimlar energetikaning AES siz programmalarini ishlab chiqmoqdalar.

Qadimgi misorda moychechak (romashka) gulini quritib, maydalab insektitsid sifatida ishlatganlar.

Quruq spirting turli navlarida odatda spirit mutlaqo bo‘lmaydi.

Quruq spirting turli navlarida odatda, spirit mutlaqo bulmaydi.

Lebedev Sergey Vasilevich (1874—1934). Rus kimyogari, akademik. Asosiy ilmiy ishi, to‘yinmagan uglevodorodlarning polimerlanishi, izomerlanishi va gidrogenlanishiga bag‘ishlangan. *1,3-butadienni natriy ta’sirida polimerizatsiya qilib sintetik kauchuk* oldi (1928).

Markovnikov Vladimir Vasilevich (1837—1904). Rus organik kimyogari. O‘rin olish, ajralish, biriktirib olish reaksiyalarining yunalishi xaqidagi, qo‘sish bog‘larga birikish va ximiyaviy tuzilishga bog‘lik, bo‘lgan izomerizatsiya qoidalarini yaratdi (1869). *Neftning tarkibiy qismini o‘rgandi* (1880). Nefteximiyanı mustaqil fan bo‘lishiga asos soldi. Organik moddalarni yangi sinfini — *sikloparafinlar* (*naftenlar*)ni *kashf etdi*. *Besh va olti - a’zoli sikloparafinlarni birinchi marta neftdan ajratib olib o’rgangan*.

Motor yoqilg‘ilari **detonatsiyaga** eng chidamli bo‘lishi kerak. Normal tuzilishga ega uglevodorodlar, masalan, n-pentan eng oson detonatsiyalanadi, detonatsiyaga chidamliligi nolga teng. Tarmoklangan zanjirli uglevodorodlar, masalan, **izooktan (2,2,4-trimetilpentan)** eng kam detonatsiyalanadi. Masalan, agar benzinning **oktan soni** 93 ga teng bo‘lsa, bu demak, u 93 izooktan va 7% pentan aralashmasidir. Yoqilg‘ilarning **detonatsiyaga** turg‘unligini oshirishga ularga antidentalatorlar ko‘shish bilan erishiladi. Ulardan biri — tetraetilqurgoshin $Rb(S_2N_5)_4$ dir. Lekin u zaharli bo‘lgani uchun ko‘p mamlakatlarda undan foydalanimaydi. Birmuncha samarali antidentalator — marganesli organik birikma $S_5N_5Mn(SO_4)_3$ dir. U zaxarli emas va xavoni ifloslantirmaydi.

Nemis kimyogari **A.I.Bayer** 1872 y fenol va formaldegidan smolasimon mahsulot olgan. Belgiyalik olim **L.X.Bakeland** bu moddani sanoatda ishlab chiqish usulini joriy etdi. Shunday qilib 1912 yildan boshlab **bakelit** deb atalgan fenolformaldegid smola ishlab chiqariladi.

Nisbiy molekular massalari: albumin 46000, ot gemoglobini 68000, odam gemoglobini 160000, tok shilliqurti gemotsiani 6600000.

Nitroglitserindan amalda foydalanish uchun uni nifuzor tuprokka yoki daraxtning mayda qipigiga nitroglitserin shimdirilib dinamitga aylantiriladi. **Dinamitning avtori A. Nobeldir.**

Nobel Alfred Bernxard (1833—1896). Shved injener kimyogari. 1853 yipdan boshlab Rossiyada, rus armiyasiga qurol yetkazib beradigan otasiga qarashli «Nobel» firmasida ishlagan. Shvesiya, Angliya va AQSh patentlagan *dynamitni* kashf etdi (1867). *Tutunsiz poroxning* tarkibini ishlab chiqdi. 33 mln. ga yaqin shved kronini fizika, ximiya, fiziologiya, meditsina, adabiyot sohasidagi ishlarga hamda tinchlikni mustahkamlash yulidagi faoliyatlariga vasiyat qildi.

Odam organizmida bir sutkada 400 g sirkva kislota xosil bo‘ladi. Bu 8 l oddiy sirkva tayyorlash uchun yetarlidir.

Oksalat kislota HOOC-COOH metallarning zangini, quyqasi va hokazolarni tozalashda ishlatiladi.

Oqsillarning ikkilamchi strukturasini L.**Poling** o‘rgangan.

Organik ximiyaning ta’rifি birinchi marta XIX asrning 50-yillarda **A.Kekulening** organik ximiya darsligida berilgan edi.

P.E.Bertlo 1854 y sulfat kislota ishtirokida etilenni gidratlab etil spirt sintez qilgan. Bungacha etil spirt faqat uglevodlarni bijg‘itib olinar edi.

Pergament qog‘ozni filtr qog‘ozdan tayyorlash mumkin. Buning uchun chinni kosachaga 20 ml suv solib unga ingichka oqim bilan 30 ml konsentrangan sulfat kislota qo‘shiladi. So‘ng pinsent bilan (pinsent polivinil xloriddan yasalgani maqsadga muvofiqdir) bir necha bo‘lak filtr qog‘oz 15—30 sek ga kislotaga tushiriladi. Undan so‘ng filtr qog‘oz bo‘laklarini katta stakandagi ozgina ammiak qo‘silgan suvgan solib uzoq vaqt tutiladi va olib quritiladi.

Pikrin kislota sariq rangli kristall modda. Shuning uchun u XIX asrlarda Parijda bir to‘qimachilik korxonasi portlash natijasida yer bilan yakson bo‘lgunga qadar (1871) sariq bo‘yoq sifatida ishlltilar edi.

Rossiyada neft tozalanadigan birinchi zavod 1745 y Uxtinskiy neft korxonasida qurilgan. Peterburgda va Moskvada bu vaqtarda yoritish uchun shag‘amdan foydalanilar edi, ko‘p butxonalarda esa ««chmaydigan» lampalar yonar edi, ularda tozalangan neft bilan usimlik moylari ishlatilar edi.

Semenov Nikolay Nikolaevich (1896—1987). Rus fizigi va fizik-kimyogari, akademik. Nobel mukofoti laureati (1956). Ilmiy tadqiqotlari *ximiyaviy jarayonlar, kataliz, zanjirli reaksiyalar, issiqlik bilan portlash nazariyasi* va gaz aralashmalarining yonishiga taalluqli.

Soda va boshqa ishqoriy moddalar bo‘limgan sintetik kir yuvish poroshoklari (masalan, «Novost», «Volna», «Kosmos») ishqor zararli ta’sir qiladigan jun va ipak buyumlari yuvish uchun tavsiya etiladi. Tarkibida soda, silikat va natriy polifosfat bo‘lgan poroshoklar (masalan «Astra», va «Era») paxtadan va kanopdan to‘qligan matolarni yuvish uchun ishlatiladi, chunki ularga ishqor ta’sir qilmaydi.

Spirtlar nomidan oldingi raqam gidrosil gruppa turgan uglerodni bildiradi. Spirtli ichimlik ichadiganlar o‘z umrini anchagina qisqartiradilar. Fransuz tadqiqotchilarining hisobiga ko‘ra 95% alkogoliklar gastrit, oshqozon yarasi, jigar sirrozi bilan kasallangan. Alkogoliklarda ovqat hazm qilish yo‘llari raki ko‘p uchraydi.

Spirtni pichoq bilan kesiladigan quyuqlashi⁶ qotib qolgan massaga aylantirish mumkin. Buning uchun chinni kosachaga 20 ml etanol solinadi va unga 5 g sovun qirindisi qo'shilddi, quyuqlashib qotib qolgan *massa hosil* bo'ladi. Undan bir bo'lak olib yoqib ko'rish mumkin.

Sut kislota SN_3 —SNON—SOON ko'p miqdorda sut achiganda, karam tuzlaganda, yem-xashakni siloslaganda hosil bo'ladi. U juda yaxshi konservant.

Tabiyi kauchukning nisbiy molekula massasi 15000-1500000.

Tarkibida 19 % saxaroza bo'lgan 100 kg qand lavlagidan 16,5 kg shakar va 50% saxarozasi bo'lgan 2,2 kg patoka olinadi.

Tarkibida quyi molekulular karbon kislotalar qoldiqlari bo'lgan qattiq yog'lar ham uchraydi. masalan, mol yog'ida moy kislotaning murakkab efiri bo'ladi.

Tarmoqlangan zanjirlri uglevodorodlar, masalan izooktan (2,2,4-trimetilpentan) eng kam detonatsiyalanadi. Benzinning oktan soni 93 ga teng bo'lsa demak 93% izooktan va 7% pentan aralashmasidir. Detonatsiyaga turg'unlikni oshirish uchun antidetonatorlar qo'shiladi masalan tetraetilqo'rgoshin $\text{Pb}(\text{C}_2\text{H}_5)_4$. Lekin u zaxarli bo'lGANI uchun marganesli organik birikma $\text{S}_5\text{N}_5\text{Mn}(\text{CO})_3$ camarali antidetonatordir. Tetraxlormetan CCl_4 og'ir bug' xosil qilib, bu bug' yonayotgan buyumni xavo kislorodidan ajratib qo'yadi.

Tibbiyotda ishlatiladigan yodoform SNI_3 ochiq jaroxatlarni bitishini tezlashtiradi.

Tibbiyotda ko'pincha ishlatiladigan *yodoform* SNJ_3 ni maktab laboratoriyasida olish mumkin. Buning uchun voronkaga 3—5 ml etil spirt va bir necha kristall yod (yodning suvdagi eritmasini xam olish mumkin) olinadi. So'ng yod eritmasiga eritma rangsizlangunicha natrui gidroksid eritmasi ko'shiladi. So'ngra voronka issiq suv solingan idishga tushiriladi. Ma'lum vaqtadan keyin eritma sovigach yodoformning sariq kristallari cho'kadi.

Toshko'mir havo kiritilmasdan temir trubada qattiq qizdirilsa U-simon nayda toshko'mir smolasi va uning tepasida ammiakli suv kondensatlanadi (bu suvda ammiak borlignga indikatorlar yordamida ishonch hosil qilish mumkin). Bundan tashqari, yoqiladigan gaz ajralib chiqadi. Temir naychada koks qoladi.

Trixlormetan SNSI_3 (xloroform) ko'p vaqtlardan beri tibbiyotda **narkoz** uchun ishlatilar edi. Triyodmetan SNJ_3 (*yodoform*)—sariq poroshok—tibbiyotda **ochiq jarohatlarning** bitishini tezlatish uchun ishlatiladi. Tetraxlormetan CCl_4 og'ip bug' hosil qilib, bu bug' yonayotgan buyumni **havo** kislorodidan ajratib qo'yadi. Shuning uchun tetraxlormetan **yong'inni o'chirishda** qo'llaniladi.

Tuyingan uglevodorodlarning turli aralashmasi yukori temperaturada va bosimda ko'mirni vodorod atmosferasida qizdirib olinadi. Bu aralashma dvigatellarda suyuq yoqilgi sifatida, shuningdek organik sintezda zarur xom ashyo urnida ishlatiladi.

O'zbekiston ko'mirning geologik zaxiralari bo'yicha Markaziy Osiyoda ikkinchi o'rinda turadi. (Angren, Sharg'un va Boysun konlarida qazib chiqariladi)

O'zbekistonda 160 dan ortiq neft konlari mavjud. neft va gaz mavjud bo'lgan beshta asosiy mintaqasi: Ustyurt, Buxoro-Xiva, Janubiy G'arbiy Xisor, Surxondaryo, Farg'ona.

O'zbekistonda 20 ga yaqin marmar konlari mavjud bo'lib, G'ozg'on, Nurota va Zirband konlarida qazib olinmoqda.

O'zbekistonda kaliyning tuzlari Qashqadaryo viloyatidagi Tubokat, Surxondaryo viloyatidagi Xo'jaikon konlarida qazib olinadi.

O'zbekistonda qidirilib topilgan gaz zaxiralari 2 trillion kubometrga yaqin. O'zbekistonda qidirilib topilgan ko'mir zaxiralari 2 milliard tonnadan ortiq. O'zbekistonda neft va gazni qayta ishlaydigan zavodlar Farg'ona, Oltiariq, Sho'rstan, Muborak va Ko'k yumaloqda faoliyat ko'satmoqda. O'zbekistonda toshtuzi (natriy xlorid) Xo'jaikon, Tubokat, Borsakelmas, Boybichakon, Oqqala konlarida qazib olinadi. O'zbekistonda fosfor zaxiralari Markaziy Qizilqumdag'i Qoraqat konida, Shimoliy Jetitov konlarida jamlangan.

O't o'chirishning eng oddiy vositasi – suv fitor oqimida och gunafsha alanga berib yonadi.

F.A.Kekule 1865 y *benzolga halgali formulani* taklif qildi. Bu bilan A.M.Butlerovning organik moddalarning tuzilish nazariyasini aromatik birikmalarga tarqatib, ta'sir doirasini kengaytirdi.

Fenol, shuningdek kapron (oraliq maxsulot—kaprolaktam), adipin kislota, oksidlanishga qarshi prisadkalar, yuvish vositalari olishda ishlatiladi.

Fenolni bиринчи мarta **P.E.Bertlo** (1851), undan keyin Sh,A.Vyurs олган (1867).

Fermentlar organizmdagi ko'pgina ximiyaviy reaksiyalarni tezlatuvchi maxsus katalizatorlardir. Fermentlar qaerda hayot bo'lsa shu yerda o'z ta'sirini ko'satadi. Formaldegidning muhim mahsuloti poliformal-degiddir. U juda ko'p hollarda metall va ular qotishmalarining o'tmini bosadi.

Fraklend Eduard (Frankland) (1825—1899). Ingliz organik kimyogari. «Valentlik» tushunchasidan oldingi «*birkirish kuchi*» haqidagi tushunchani kiritgan.

Fransuz tadqiqotchilarining xisobiga ko'ra 95% alkogoliklar gastrit, oshqozon yarasi, jigar sirrozi bilan kasallangan.

Xozirgi vaktida Dаниyada va Gollandiyada butun energiyaning 10% inn shamol tashkil etmokda, lekin u hali oxirgi chegara emas.

Xozirgi vaqtida qishloq xo'jaligida 100 ga yaqin turli ta'sir doiraga ega bo'lgan gerbitsidlар ishlatiladi. Gerbitsidlardan tibbiyotga zarar qilmaydigan me'yorda foydalanish kerak, hamma vaqt shuni unutmaslik kerakki, yovvoyi o'tlar bilan kurashda tuproqni sifatlari ishlash hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Hidlar. Izoamil spirit (izopentil) sirkə kislota bilan reaksiyaga kirishganda nok hidi, fenil etil spirit chumoli kislota bilan xrizantema hidi, benzil spirit va chumoli kislota jasmin hidi keladi. Moy kislotaning butil efiri – ananas hidli bo'ladi. Juda oz miqdordagi asetaldegiddan yangi ko'kat xidi keladi. Geran (yorongul) hidi difenil efir $C_6H_5-O-C_6H_5$ ga xos, atirgullarning hidi esa feniletil spirit $C_6H_5-CH_2-CH_2-OH$ ga xosdir.

Hozirgi passajir samolyoti 9 s davomida uchganda 50-75 t kislород sarflaydi. Xuddi shuncha vaqt ichida 25000-50000 ga o'rmondag'i fotosintez protsessida taxminan o'shancha miqdorda kislород ajralib chiqadi.

Sellyuloza yog'ochda 50% atrofida, paxta tolasida 98% gacha, jut ildizida 75% gacha bo'ladi.

Sikloparafinlarning umumiyligi formulasi S_pN_{2p} . Sikloparafinlar asosan ba'zi bir ieftlar tarkibida bo'ladi. Sikloparafinlarning ikkinchi nomi — **naftenlar** ham shundan kelib chiqqan. Sikloparafinlar laboratoriya da tuyingan uglevodorodlarning digalogenli

hosilalariga aktiv metallar ta'sir ettirib olinadi. Sikloparafinlarni neftdan ajratib olish ham mumkin.

Chumoli kislota asalari kanalariga qarshi ta'sir qiladigan vositadir.

Shevrel Mishel Ejen (1786—1889) A.Brakonno bilan hamkorlikda ko'pchilik *yog'lar* stearin va oleindan tashkil topganini aniklagan (1817), stearin, olein va palmitin kislotalarni ajratib oldi. Hayvon to'qimalaridan *xolesterin* ajratib oldi (1815), *stearin shag'amilar ishlab* chiqarishga patent oldi (1825). Bu yangi yoritish erasining boshlanishi edi.

E.Fisher glyukozaning aldegidospirtga to'g'ri keladigan formulasini taklif etgan.

Eng yangi tekshirishlar asosida masalan, Kansko— Achinsk ko'mir havzasida ko'mirdan sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqariladigan sanoat korxonasi qurilmoqda. Boshqa ximiya korxonalarida metanolni to'g'ridan-to'g'ri motor yoqilg'iciga qayta ishlab beradigan texnologik qurilmalar barpo etishga qaratilgan juda samarali ishlar olib borilmoqda.

Eramizdan 200 yil ilgari shakarqamishning shirin sharbatini xitoy va hinduslar ovqatga ishlatganlar. So'ng uni Misrda, Yunonda, Sitsiliyada o'stira boshladilar.

Eramizning VIII asrlarida qattiq xoldagi qand eronliklarning savdo buyumi bo'lib xizmat qilgan.

Etilenglikolga glitserin qo'shish avtomashinalarning suv nasoslarining ishslash muddatini uzaytiradi.

Etilenglikolning suvdagi 36,4 % li eritmasi- 20° S da, 52,6% lisi-40° S da, 66% lisi esa - 60° S da muzlaydi.

Yuqori molekulalı spirtlar xalq xo'jaligida ko'p soxalarida qo'llaniladi, masalan, S₁₄-S₂₀ vulkanizatsiyani tezlashtiruvchilar, S₁₈-S₂₀ tibbiyot preparatlari, S₈, S₁₂-S₂₀ parfyumeriya-kosmetika maxsulotlari, S₁₆-S₂₀ korroziyaga qarshi surkmalar.

M U N D A R I J A

«Organik kimyo» fanining rivojlanish tarixi	3
To'yingan uglevodorodlar (alkanlar)	5
Alkanlarning tabiiy manbaalari va asosiy olinish usullari	7
To'yinmagan uglevodorodlar (alken, alkadien va alkin)	14
Etilen qatori uglevodorodlari (Alkenlar) - C_nH_{2n}	14
Dien uglevodorodlari (Alkadienlar) – C_nH_{2n-2}	18
Atsetilen qatori uglevodorodlari (Alkinlar) – C_nH_{2n-2}	22
Alitsiklik birikmalar (tsikloalkan, tsikloaklen va tsikloalkadienlar)	26
Aromatik uglevodorodlar (Arenlar) – C_nH_{2n-6}	31
Tarkibida kislород saqlovchi organik birikmalar	39
Bir atomli spirtlar	39
Ko'p atomli spirtlar	46
Fenol va aromatik spirtlar	52
Karbonil birikmalar va ularning hosilalari	57
Monokarbonil birikmalar	58
Karbon kislotalar	66
Karbon kislotalarning funksional hosilalari	75
Efirlar. Oddiy efirlar. Epoksidlar	77
Karbon kislotalarning murakkab efirlari va laktonlari	82
Yog'lar	86
Uglevodlar	89
Monosaxaridlarning eng muhim namoyondalari	92
Disaxaridlar. Oligosaxaridlar	102
Polisaxaridlar (Kraxmal. Sellyuloza) ($C_6H_{10}O_5$) _n .	106
Azotli organik birikmalar	112
Nitrobirikmalar	112
Aminlar. Aminobirikmalar	117
Aminokislotalar	126
Geterotsiklik birikmalar	134
Oqsillar va peptidlar	137
Nuklein kislotalar	146
Yuqori molekulyar birikmalar	151
Tabiiy va sintetik kauchuk	153
Sintetik tolalar	156
Organik birikmalarda bo'ladigan izomeriya turlari	159
Ba'zi radikallarning nomlanishi	166
Organik kimyodan qiziqarli ma'lumotlar	169

